

Zoliyxon tog'larga yalinganida balki ularning rahmi kelib yorilib ketarmidi. Lekin nomusi tahqirlangan erkaklarning tosh qalbi yumshamadi. Temir xanjarini qinidan chiqarib, damini tekshirdi: o'tkir! U chaqqon bir harakat bilan Zoliyxonning sochlarini kesib tashladi-da, ko'kragini ocha boshladi. Zoliyxon xuddi nolasini birov eshitib, yordamga keladiganday bor ovozi bilan dod soldi. Kuchiga kuch qo'shilganday bo'ldi. Erkaklar changalidan chiqish uchun tipirchiladi. O'ng qo'lini Mshxotning changalidan chiqarib olib, yarmi ochilgan ko'kragini panjasi bilan to'sdi.

- Bola... bola... go'dakka rahm qiling!

Beor Kecha

Sharq tomondan kuchli shamol esyapti. Dargov vodiysi bo'ylab uchib, xushtak chalib o'ynoqlayotgan bevosh shamol Qizildon soyining suvlarini chayqatib, ko'piklatib xarsangtoshlarga, qoyalarga urdi. Bulutlarni ham chok-chokidan so'kib tashlagan telba shamol, laxtak parchalarini qizlarning qalam qoshini eslatuvchi hilol atrofidan nari haydab ketdi. So'ng xasrat bilan uv-v torta-torta o'zini Tbau tog'inining toshlariga urdi. Tog' yonbag'rida yo'liga g'ov bo'lgan baland minoralar, Sagat Lamardon ovulining eski binolari atrofida sarsari kezdi.

Biror zarurati yoki muhtojligi bo'lмаган одам бундай об-хавода уйда о'tirishni ma'qul ko'radi. Osetinlarning yarmi oshxona, yarmi esa turar joyga mo'ljallangan uylari bu paytda issiq, tanga rohat beradigan bo'ladi. O'choqqa ilingan qozon ostida alanga raqsga tushadi, tashqarida esa bo'ron hamma yoqni ostin-ustun qilib yuborish qasdida pishqiradi. Erkaklar toshkursilarda o'tirishib, olovga o'ychan tikilganlaricha birin-ketin tamaki o'rav tutatadilar. Bunday o'tirish erkaklarga yarashadi. Mehnatkash osetin ayollari esa bu vaqtida o'zlariga yarasha biron yumush bilan mashg'ul bo'ladi.

Ovulning adog'iда keng bir qo'rg'on bor. U bir-biri bilan qo'shib, qal'aga o'xshab ketgan ovuldagi uylardan keyinroq qurilgan. Yuqorida turib qaragan odamga boshqalardan o'zini chetga olib, mung'ayib qolgan yetimchaga o'xshab ko'rinvchi bu qo'rg'on Tutsat deb atalmish yuqori diniy martabali shajalarini qadimiyy yunonlarga bog'lovchi avlodning boshlig'i Zaurga tegishli. Diniy hukmronlik unga ota-bobolaridan meros bo'lib qolgan. Islom Qofqazga kirganda, Zaurning ajdodlari bu dinni majburan, yuzaki qabul qilishgan edi. Aslida esa o'zlarining qadimiyy urf-odatlariga sodiq qolaverishgandi. Ularning "Ila" deb atalmish ilohlari qadim zamonlarda qanday bo'lsa, endilikda ham dzuar farishtasining himoyachisi, momaqaldiryoq va yomg'ir xudosi sifatida sharaflanardi. Ularning ruhoniylari esa xalqning yo'lbosechilari sifatidagi martabalarini saqlab qolishgan edi.

Asrning o'rtalarida tutsatlar Sagat Lamardondan uch chaqirim naridagi tik va havfli qoyalar orasida joylashgan Nayfat qal'asida yashar edilar. Abxaziya knyazi Shervashidze Osetiya vodiylariga lashkar tortgan kezlar muqaddas Nayfat qal'asini vayron qilib tashladi. Tutsatlar uni qayta tiklamadilar. Shu yaqin oradagi Sagat Lamardonga, xizmatkorlari kodatlar va shidatlar istiqomat qiluvchi ovulga ko'chib o'tdilar. Ammo qadimdan ardoqlanib kelinayotgan odatlarni kanda qilmadilar. Ular har yili muqaddas bayram kunlari Nayfat qal'asiga kelib, butun qolgan hujralarda ikki hafta yashar edilar. Ilia xudosini sharaflovchi bayramni bu yerda o'tkazish an'anasi sira buzilmagan edi.

Moskvaning "ikki boshli burguti" Qofqaz uzra qanot yoyganida vodiyliklar nasroniy dinini qabul qilishga majbur bo'lishdi. Bu safar ham ular dinni shunchaki xo'jako'rsinga, yuzaki qabul qilishdi. Bu safar ham qadimiyy urf-odatlariga sodiq qolishdi. Yangi din ham yomg'ir va momaqaldiryoq hukmroni ekanini bilishgach, o'tkir farosatlarini ishlatib, o'zlarining xudolari - Ilia nasroniylardagi avliyo Ilyanining aynan o'zidir, degan xulosaga kelishdi-yu, begona din ta'qibidan qutulishdi. Shu tariqa qadimdan qolgan bayramlarini o'tkazishga ham monelik bo'lindi.

Bu yerliklarning hozirgi ruhoniylarini otalari Zaur Tutsat oltmish yoshdan oshgan bo'lsa-da, hali baquvvat edi. U ota-bobolaridan meros qolgan qalb tarbiyasiga alohida e'tibor berib, urf-odatlarga qat'iy ravishda rioya qilardi. Ajdodlarining ruhoniylarini hamma narsadan a'loroq qo'yarsa, shuningdek, nomus va hayot xususidagi o'gitlariga mutaassiblarcha bo'ysunarsa edi.

Xotinining ko'zları ojiz bo'lib qolgani uchun uy yumushlari uning suyukli qizi go'zal Zoliyxon zimmasida edi. Zaur Tutsat o'g'illaridan ro'shnolik ko'rmadi. To'ng'ichining ismi Qo'rg'ok edi. Urf-odat qoidalariga ko'ra merosxo'ri va ishining davomchisi hisoblanmish katta o'g'il gung-soqov edi. U biron nima demoqchi bo'lsa, hayvonning ovoziga o'xshagan tovush chiqarardi xalos. U chaqaloqligida ilashgan og'ir kasalning asorati tufayli kar bo'lib qolgandi. Tutsatlar bu holatni turlicha talqin qilar edilar.

Ko'plarining bu boradagi fikri bir Zaur Tutsat biron bir ilohiy qoidani buzganligi uchun Tbau tog'larining xudosini Ilia unga shunday jazoni loyiq ko'rgan.

Ikkinchı o'g'li Suzarko jasurlikda va chaqqonlikda tengsiz edi. Xudo chiroydan ham bergandi. U bu yerlarning eng suluv yigitini va raqqosi sanalardi. Osetiyaning hamma tomonlaridan yoshlardan bayramga to'planishgan onda ham uning oldiga tushadigani topilmas edi. Ammo u merosxo'rligidan bo'yin tovlab, otasini g'afflatda qoldirdi-yu, sirk chavandozlariga qo'shib ketdi. Suzarko bir kuni shaharga tushganida sayyor sirkka duch keldi-yu, taqdirini o'zi hal qilib qo'ya qoldi. Katta maosh, tomoshalardagi olqishlar, sirkning o'ziga xos bezakli hayoti yigitni o'ziga maftun qilib qo'ydi. U ota merosi o'rniga chavandozlikni afzal deb bildi.

O'g'lining ahdini eshitganida ruhoniylarini ota dastlab o'z qulqlariga ham ishonmadidi. Keyin uni oq qildi-yu, o'g'li haqidagi xotirani qalbidan butkul o'chirib, uni o'ldiga chiqardi. Xotini bilan qiziga hatto "marhum"ning nomini tilga olishni ham taqiqlab qo'ydi. Ukasi Tambiga xudo ko'p o'g'il bergen edi. Zaurning o'rnini meros qilib olishi lozim bo'lgan Tambi shundaygina qo'shni hovlida yashardi. O'g'illaridan umidini uzgan Zaur Tutsat ukasiga o'zining yuqori martabasini qoldirish bilan cheklanmay, sehrgarlik, fol ochish sirlaridan ham voqif qilishni o'yab qo'ygandi.

Xonadon sohibi man etshiga qaramay, ko'zları ojiz ona o'g'lini hech unuta olmas edi. Kuchli va chaqqon o'g'li tez-tez xayolida namoyon bo'laverardi. Eri biron yoqqa ketgan damlarda yoki yaqin atrofda bo'lмаган onlarda Zoliyxonni yoniga chaqrib, o'g'li haqida gaplashib o'tirishni yaxshi ko'rardi.

Bu kecha Zaur o'g'li Qo'rg'ok hamrohligida qo'shni ovuldagi bemorni ko'rgani ketgani sababli ona-bola uyda yolg'iz, o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lib o'tirardilar. Tashqarida hamon bo'ron uvlaydi. Kampir ikki qol'ini cho'zib o'tirib olgan, ikki bilagiga halqa qilib tashlangan ip to'plamini Zoliyxon to'p kabi yumaloqlab o'rarsi.

Tashqarida itlar huriy boshlagach, Zoliyxon qo'lidagi ipni onasining etagiga tashlab, hovliga shoshildi. Ostona hatlashi bilan odam qorasiga ko'zi tushdi. Xanjarini qinidan sug'urgan notanish odam tinmay hurib, hamlaga shaylanayotgan ikkita katta itdan o'zini himoya qilib turardi. Baland bo'yli, qomati kelishgan bu yigit tog'liklarning milliy kiyimida edi. U tish-tirnog'igacha qurollangan to'pponcha, miltiq, xanjar hammasi mukammal edi.

Zoliyxon ovoz berib, itlarni chaqirdi. Itlar norozilik bildirganday bir g'ingshib olishdi-yu, ammo bekalarining amriga itoat etib, tinchishdi. U notanish odamning ta'zimiga yengil ta'zim bilan alik oldi-da, uni qo'noqxonaga boshladi. Qo'noqxonadagi anjomlar oddiygina edi: yerga yapaloq tosh to'shalmay, suvab qo'yilgan, devorga yonboshlatib supa qilingan, kichkina darcha ro'parasida

katta kamin-o'choq bor, supa atrofiga taxta kursichalar qo'yilgan.

Zoliyxon otasi bilan akasining uyda emasligini aytib, mezbonlik vazifasini qiz boshi bilan o'zi bajarayotgani uchun undan uzsor radi. Qiz tog'liklar odatiga binoan uning kimligini, nima uchun bu yerga kelganini surishtirmadi. U - mehmon, mezbon uchun shuning o'zi kifoya. Qiz kamindagi olov alanga olib, xonani yoritgunicha tiz cho'kkanicha o'tirdi. O'rnidan turgach, yo'lovchining ivib ketganini ko'rdi.

- Olovda quritib oling,-dedi u kamin tomon qo'li bilan ishora qilib. So'ng qo'noqxonadan chiqdi-da, hovlini kesib o'tib, uyga kirdi. Onasiga notanish mehmon tashrif buyrganini aytib, unga ovqat tayyorlashga tutindi.

Zoliyxon g'oyatda chiroyli edi: bo'y-basti kelishgan, yurishlari chaqqon huddi kapalak yer uzra uchib yurganday, yuz-ko'zlari neppa-nozin, sochlari xuddi ipakday mayin, qop-qora...

Qiz chiqib ketgach, mehmon qurollarini devordagi mixxoziqqa ilib, cherkascha kamzulini yechdi-da, olovga tutdi. Olov tafti urilgach, kiyimdan yengil hovur ko'tarildi. U oyoq kiyimini qofqazcha charm paypog'ini ham yechib, olovga yaqin qo'ydi.

Yuziga, peshonasiga erta tushgan ajin uning hayot yo'li g'am-alam, ayriliq azobiga to'la ekanidan darak beradi. Ammo olov kabi chaqnab turgan ko'zları bu azoblarga bandi emasligini bildiradi. U qurigan paypog'ini kiyayotgan damda Zoliyxon taom ko'tarib kirdi. U qofqazcha pastak xontaxtani mehmon yaqiniga tavozelik bilan surib, keltirgan noz-ne'matlarni uning ustiga qo'yib, qadahga pivo quydi. Keyin ovqatdan tatib ko'rishga taklif qilib, o'zi xonaning qorong'i burchagiga o'tdi-da, "mehmonga yana biron xizmat zarur bo'lib qolar", degan maqsadda kutib turdi.

Yigit qizga bir qarab olgach, taomga qo'l uzatdi. Shoshilganicha ovqat yeyishi ochqab qolganini oshkor qildi. Qizning ko'zi devorda, olov ro'parasida osig'liq turgan sariq rangli kamzulga[1] tushdi. Uning tashqi ko'rinishiga qarab anchadan beri sovun ko'rmanagini payqash qiyin emasdi.

- Kamzulingizni yuvib qo'yaymi?-dedi u qo'ng'iroqdek yoqimli ovozi bilan.

- Yaxshi bo'lardi,-dedi mehmon, taomdan bosh ko'tarib. So'ng qo'shib qo'ydi:-Bundan kamzulim zarar ko'rmaydi. Egnimdan tushmaganiga ham ko'p bo'ldi.

Qiz uyga oshiqdi. "Bu odam abrekk[2] o'xshaydi,-deb o'yladi u o'zicha. Ehtimol qonli qasoskorlardan qochib yurgandir..." Zoliyxon katta yog'och tog'oraga issiq suv quyib, qo'noqxonaga qaytdi. Yenglarini shimarib, kamin yoniga cho'kkaladi-da, kamzulni yuva boshladи.

Kamindagi o'tin chirsillab yonyapti. Alangadan sachrayotgan yorug'likda qizning qop-qora sochlari yaltiraydi. O'g'rinchay qarab-qarab qo'yayotgan yigit qiz chiroyining sehriga maftun bo'la boshlaydi.

Tashqarida bo'ron hushtak chalib, uvlaydi. Xona ichi issiq, tanga rohat beradi. Yigitning ko'zi devorda osig'liq turgan fandirga[3] tushdi. Suzarko bu xonadonni tark etganidan beri fandir egasiz ravishda osig'liq turardi. Mehmon ko'pdan beri musiqa asbobini ko'rmanagi edi. Shu topda kuy chalib, qo'shiq aytmoqqa unda ishtiyoq tug'ildi. Bir vaqtlar u chalgan kuy , u aytgan qo'shiq har qanday kishini o'ziga rom qilib olardi.

* * *

Yigit o'rnidan turdi-da, fandirni qo'lga oldi. Avaylaganicha sozladi. Zoliyxon esa uning harakatiga ahamiyat bermay, boshini egib olib kir yuvishda davom etardi. Yigit bir oz sukut saqlagach, fandir torlarini dadil chertdi. Shundagina qiz u tomon qarab qo'ydi. Kuya qo'shiq ulandi. U o'z xalqining jangovor qo'shig'in ayta boshladи:

Qindan qilich sug'ursak tangrining nomi bilan,
Va tilla g'iloflarni jaranglatsak - o'sha kun;
G'anim qonini so'rsak tangri imoni bilan,
Ham yoyli kamonlarni taranglatsak o'sha kun;
Da'vetkor qo'shiqlarni balandlatsak o'sha kun;
Yov qishloqqa o't qo'ysa, yondirsa tepalarni,
Ibodat xonalaridan vahsiy olov porlasa;
Odamlar tashlab qochsa kultepa kulbalarni,
Lekin bir his ularni birlashmoqqa chorlasa;
Shu tuyg'uni ularga anglatolsak o'sha kun;
Qaytgan shamol misoli shashti tushgan olomon,
Bo'ri quvgan qo'y kabi tirqirab qochar bo'lsa;
Yo vahima to'riga tushib qolib beomon,
Eng oliv niyatlaru orzudan qochar bo'lsa
Shu orzuni bir qayta porlatolsak o'sha kun;
Belanchakda go'daklar faryod chekib qo'rquvda,
Qandaydir ko'kraklarga o'zlarini otishsa;
Qichqirib va dod solib, orom topmay uyquda,
Himoyasiz qush misol sukunatda qotishsa;
Shunday payt panoh bo'lib ovutolsak o'sha kun;
Qizlar ko'ngil qo'yishsa lahzalik erki uchun,
Notanish erkaklarga, yetti yet begonaga.
Razillar tushib yelsa titrab-qaqshab kunu tun
Etaklarning ichiga issiq xilvatxonaga;
Imkon topib ularni itqitolsak o'sha kun;
Tangrining muxlislari, jaholatning qullari,
Mangu shonu shuhratni sotib olsa agarda.
Xuddi shu kun anglaymiz pokdir kimning qo'llari,
Kim o'zini soflikda tenglay olar saharga?
Faqat mardlik bilinar beshubha-shak o'sha kun!..

U Jim qoldi.

Bu qo'shiq Zoliyxon qalbini to'lqnantirib yubordi. Qo'shiqchining shuhratu shonga munosib mard yigit ekanini uning yuragi sezdi. Yigitning jarangli ovozi ham jozibali, ham g'olibona edi! Bunday qo'shiqni faqat haqiqiy qahramongina, har qanday xatarga, hatto o'limga tik qaray oladigan jasur odamgina shu zaylda ayta oladi.

Qizning qo'llari ishda, xayoli esa "Kim u?" degan savolga javob izlash bilan band.

Yigit ovqatlanib bo'ldi. Endi uning kimligini, qayerdanligini so'rab bilish mumkin. Zoliyxon unga qaradi:

- Sen kimsan, mehmon?

Yigit darrov javob qaytarmadi. Qizga sinov ko'zi bilan bir necha nafas qarab turgach, sekingina dedi:

- Men Urusxonman.

Bu so'zni eshitishi bilan qiz qo'rqqanidan seskanib ketdi. Qo'lidagi kamzul tog'oradagi suvga shalop etib tushdi. Zoliyxon unga hayrat ko'zi bilan tikilib qoldi: "Boshi besh ming rublga baholangan, qo'rqinchli, jasur, qo'lga tushmas mashhur abreki Urusxon shu ekanda, a?"

Urusxon qizning ko'zlaridagi hayratni, ayni choqda maftunlik uchqunlarini sezib, dedi:

- Mehmonni sotib qo'ymasligingga ishonaman.

Qiz unga qaradi:

- Zaur Tutsatning qizi Zoliyxon seni sotadimi? Oilamiz Tbau-uats-IIaga xizmat qila boshlaganidan beri ajdodimizdan sotqin chiqmagan!-Qiz ko'tarinki ruhda shunday degach, bir oz sukut saqladi-da, cho'chinqiragan ovozda qo'shib qo'ydi:-Biz farishtamiz Dzuardan qo'rquamiz...

Bu gapni eshitib, yigit zaxarxandalik bilan jilmaydi.

- Sen undan qo'rqmaysanmi?-deb ajablanib so'radi qiz.

- Men hech kimdan, hech narsadan qo'rqmayman,-dedi Urusxon sovuqqonlik va to'nglik bilan. Keyin bu ohangi qizga malol kelganini anglab, yumshoqroq ohangda qo'shib qo'ydi:

- Men shu paytga qadar ismimni birovga aytgan emasdim. Senga ishondim. Senga aytgim keldi.

Bu gapdan qalbi bir qalqib olgan Zoliyxonning yuzlariga qizillik yugurdi. Ko'z oldi tumanlashdi. Urusxonning ishonchi uning yuragiga so'ngsiz quvonch baxsh etgan edi.

Xuddi shu yerda, xuddi shu onda taqdir ularning qalblarini sevgi iplari bilan chirmab ketdi.

- Yana bitta qo'shiq aytib ber... Bu yerda men juda kam qo'shiq eshitaman,-deb iltimos qildi qiz.

Urusxon fandirni yana qo'liga oldi. Endi yolg'iz qolgan odamning alamli qo'shig'ini ayta boshladi:

Deydilarkim, ushbu moviy olis-olis osmonda,

Mungli yulduz miltillarkan allaqaysi zamonda.

Deydilarkim, baland-baland tosh qoyalar uzra bot,

Tanho burgut o'sgan emish behimoya, beqanot.

Deydilarkim, o'rmon aro o'sgan ekan bir archa,

Taqdiriga bitmabdi hech na yaprog'u na shoxcha.

Yulduz debdi xudosiga: "Yaratganim, ey tangrim,

Menga ziyo ato etgil, yoritgali tunni jim".

"Tangrim, qanot bergil menga,- deb yalimish burgut ham,-

Quyosh sari uchay yuksak, qanotlarim bilan man".

Archa sekin shivirlabdi: "Bersang shoxcha, barg sag'al,

Bo'ronlarda shovullayman, hayotim bo'lar go'zal".

Qo'shiq tugaganday bo'ldi. Fandir torlari titrab turaverdi. Urusxon xo'rsindi. So'ng... barmoqlar yana torlarni chertdi. Yana dardli ovoz yangradi:

...Bu g'amlarga toqatim yo'q, o'zimda ham qayg'u ko'p,

Xor etilgan quvg'indiman, o'lmoqdaman baxt kutib.

Yer yuzda tanho o'zim, hasratim mo'l, vatan yo'q,

Qaro tunda nasibam bo'l, qaylardasan, daydi o'q?...

Qo'shiq tugadi.

Qo'shiq sehridan o'yga tolgan Zoliyxon beixtiyor ravishda kamzul suvini siqa boshladi. O'ruxxon fandirni qo'yib o'midan turdi-da, qizga yaqinlashib, bilagini ushladi:

- Zoliyxon!

Qiz xuddi ilon chaqqanday sapchib tushdi, ko'zlaridan go'yo olov uchqunlari sachradi:

- Qanday jur'at etding! Nahotki nomus va adabni unutgan bo'l sang? Olijanob mehmonning mezbonga minnatdorchiligi shumi? Sen uuda otam bilan akamning yo'qligini, bir o'zim yolg'iz qolgananimni bila turib... Uyal! Men Urusxonidan bunday pastkashlikni kutmagan edim!

Yigit uning bilagidan qo'lini oldi. Zoliyxon kamzulni olovga yaqinroq joyga ildi. Shu topda uning vujudini g'azab qamrab olgan edi. Qarama-qarshi tuyg'ular og'ushida qolgan Urusxon boshini egdi:

- Sen haqsan... meni kechir,-dedi siniq ovozda.-Lekin sen mening qanday hayot kechirayotganimni bilmaysan. Men huddi quvilayotgan yovvoyi hayvondekman. Tanam haftalab, ba'zan oylab ko'rpa-to'shak ko'rmaydi. Boshpanasiz bir daydiman. Bugun o'rmonda, ertaga g'orda, hali u yerda, hali bu yerdaman. Doimiy quvg'indaman. Bo'ron bugun meni sening uyingga haydab olib keldi. Olovda bir pas isinib, kiyimlarimni quiritib olmoqchi edim. Boshqa niyatim ham, umidim ham yo'q edi. Seni... tiz cho'kib o'tirishingni ko'rib, vujudimni qandaydir sehr, qandaydir yengib bo'lmaydigan kuch egallab oldi... Kechalari uyga qaytganimda meni mehribonlik bilan kutib olib, erkalaydigan xotinga ega bo'l shingga mening haqqim yo'qmi? Nega endi men yolg'iz, tashlandiq bo'lib, birovlarining mehriqiga zor yashashim kerak? Nega?!

Zoliyxon javob bermadi. U kamzulga tikilganicha tek turaverdi. "Sening bu darbadar hayotining menga qo'l tekkizishing uchun haq

bermaydi", deb o'yadi u.

Urusxon qizga o'ychan va xafaqon tarzda qarab tura-tura iziga qaytdi-da, yana fandirni qo'lga olib qo'shiq aytayotganday edi:
Zoliyxon go'y qo'shiq eshitmasdi. Balki kimdir uning qulog'iga shivirlab arzi hol aytayotganday edi:

Aytgil, nechun tug'ilgan hamon,
Nafratga uchraydi haqiqat?
Benasiblik bo'ldi hayotim har on,
Va yolg'izlik hamisha qismat?
Nechun chappa aylanmas bu yer,
Mehvaridan chiqmas bu olam?
Hasratlardan qutulib axir,
O'zga hayot qurardik biz ham.
Zorlanolmas va lekin hech kim,
Zorlanganning o'yilar ko'zi...
Yolg'iz tangri ruhlarga hokim,
Taqdirlarni boshqarar o'zi.
Ota-onam o'tdi xoru zor,
Mening ham hayotim ko'p g'amgin.
Qayg'ularda benavo va xor,
Men yo'qotdim hayotim rangin.
Men o'larman... lekin tepamda,
Ko'z yosh to'kib ezilmas inim.
Osmon o'zi yig'laydi g'amda,
Yomg'ir bilan yuvilar tanim.
Singillar yo'q... inimga esa,
Borib yetmas pajmurda bu tan.
Dahshat, uni bo'rilar yesa,
Talashib och quzg'unlar bilan!
Qarshi olmas hatto vatanim,
Na do'stu yor qo'llimdan tutar.
Ammo zindon kutayotir jim,
Va asirlik yaktagi kutar.
Kutar meni mog'orada g'am,
Va sukutning uzun qishlari.
Zanjirlarning shaldirashi ham,
Qalbning og'ir xo'rsinislari...
Zoliyxonning qalbi titradi.

Urusxon qo'shiqni tugatishi bilan sapchib turdi-da, fandirni bor kuchi bilan yerga urdi. Fandir mayda-mayda bo'lakchalarga bo'linib ketdi.

- Sevgisiz hayotga ming la'nat!-Bu hayqiriq uning yurak-yuragidan vulqon kuchi-qudrati bilan portlab chiqdi. U haya jondan titraganicha tashqariga otildi. Nima gap bo'layotganini chuqurroq anglab yetmagan Zoliyxon ixtiyorsiz ravishda bir sakrab uning yonida paydo bo'ldi. Ursuxon tashqariga chiqaman deganida cherkasidan ushlab qoldi.

- To'xtang! Shu yerda qoling...-dedi xansiraganicha.

Bu muhabbat va shafqat bir-biri bilan olishayotgan qalbdan chiqqan qat'iy ovoz edi. Yigit to'xtab, o'girildi. Qiz uning qarashida hayronlikni ko'rib, mutelik bilan boshini egdi. Ursuxonning chehrasini quvonch nuri yoritdi. Qizni o'ziga tortdi.

Qo'noqxonadagi supa ularning sevgisiga, vafo haqidagi qasamlariga tilsiz guvoh bo'ldi.

Yoqimli og'riqdan qichqirish... so'ng erkalashlar... qaynoq minnatdorchilik...

Oh, Zoliyxon, nodon qiz-a! Nomussizlik sahrosiga qadam bosganini o'ylamadi-ya?! Bu sahroda ajal uni tashna bo'lib kutayotganini bilmadi-ya?! Pahlavoni bag'rida aldamchi lazzat bulog'idan suv ichayotganida g'olib nafs unga benomuslik libosini kiyordi, ajal esa beto'xtov ravishda unga go'r qaziy boshladidi.

Tashqarida esa bo'ron bo'ri galasi kabi quturadi. Bahaybat daraxtlarni ildizi bilan qo'porib, to'lqinli Qizildonga uloqtiradi.

Yarim tunda Zoliyxon qo'noqxonadan chiqib, uyi tomon yurdi. Quturgan bo'ron uni o'z quchog'iga olmoq istadi. Ammo yigitning haroratli bo'salaridan olov kabi yonayotgan yuzlariga shamolning achchiq nafasi o'z ta'sirini o'tkaza olmadi. Uyiga kirib, onasining uxbol qolganiga ishonch hosil qilgach, yana qo'noqxonaga, sevgan yori huzuriga qaytdi.

Urusxon supada yotardi.

Qiz kursini uning yaqiniga surib, o'z tizzasiga tirsagini tiraganicha o'tirdi.

Urusxon chalqancha tushganicha qo'lllarini yostiq qilib yotibdi. Asta-sekin o'chayotgan alanga nurlari qorong'ulik oldida kuchsiz bo'lib qoldi. Xona qorong'ulik hukmiga bo'yisindi. Yigit qaddini ko'tarib, Zoliyxonni mehr bilan quchdi.

- Nima uchun seni shunchalar sevib qoldim?-dedi qiz entikib.

- Sen avval birorta yigitni sevarmiding?-deb so'radi Ursuxon bir daqiqalik sukutdan so'ng.

Qiz "yo'q" deganday bosh chayqadi.

- Agar menga vafosizlik qilishni o'ylasang yoinki boshqa biror kimsa qalbingdan joy olar bo'lsa, u holda...-yigit xalqining odati bo'yicha bosh tomonda turguvchi xanjarini ushlatdi.

Qiz uning so'zini og'zidan oldi:

- Mening qalbimni ham, hayotimni ham sen egallagansan. Tbau-uats-Ila buning guvohi!

- Abrekning yo'doshi bo'lish og'ir,-dedi Ursuxon.

Qizning ko'zlari chaqnadi:

- Men seniki bo'lganim bilan faxlanaman, Urusxon! Ovuldagi qizlar bundan xabar topguday bo'lishsa qanchalar havas, nechog'li hasad qilishlarini tasavvur qila olsang edi!
- Buni hech kim bilmasligi kerak.
- Ha, albatta, xotirjam bo'laver, Zoliyxon tilini tiya oladi.
- U dag'al kafti bilan qizning mayin sochini siladi.
- Nima uchun abrek bo'lding?-deb so'radi qiz.
- O'sha kunga la'natlar bo'lsin!-Yigit shunday deb xo'rsindi.-Akamning to'yi edi. Biz o'yin-kulgi bilan band bo'lib turganimizda kelin rad etgan yigit kelib, uni qizlar xonasidan o'g'irlab qochibdi. Men yonimga yigitlarni olib, uni quvib yetdim-u, o'ldirdim. Shundan beri berkinib yashashga majburman. Yashirinadigan joylarim, panofiga oladigan do'stlarim ko'p. Ishonchli joyga xazina ham ko'mib qo'yanman. Endi uzoqqa ketmayman. Men shu yaqin orada qolishni, sen bilan tez-tez ko'rishi turishni istayman. Chunki men seni sevaman... Sen menga yordam berishing kerak.
- Bu atrofda qayerga yashirinmoqchisan? Hamma yoq tog'u tosh-ku?
- Yashirinadigan joy bor...-yigit bir oz o'ylangach, davom etdi: muqaddas o'rmondag'i buloqboshiga boraman.
- Urusxonning bu qarorini eshitgan qiz cho'chib tushdi:
- Shakkoklik qilmoqchimisan? Qadamjoni oyog'osti qilish gunoh-ku! Tbau-uats-Ila jazosiz qoldirmaydi.
- Bu gapni eshitgan Urusxon kului. Qiz esa uni ahdidan qaytarmoqchi bo'ldi:
- Menga ishon, jonim, u yerga kirishga hech kimning haqqi yo'q. Kirganlarni xudo albatta jazolaydi. Odam bir umrga kasal yoki aqlsiz bo'lib qoladi. Agar biror jonivor o'rmonga kirib ketguday bo'lsa ham u yerdan haydashga hech kim botinmaydi.
- Qo'yaver, menga balo ham urmaydi. Men Tbau-uats-Ilangdan qo'rqlayman. Bularning hammasi bo'limgan gap.
- Yo'q, yo'q, sevgilim,-dedi qiz xavotirli ovozda,-u rostdan ham jazo beradi. Bir kuni Daxsko degan chol u yerdan qo'yini haydab chiqqan edi. O'shandan beri unga iblislar tinchlik berishmaydi. U yerga dumalab shunday tipirchilaydi-ki, hatto og'zi ko'piklashib ketadi.
- Qo'limda qurolim bor ekan, hech qanday ruh, hech qanday odam meni yerga ko'tarib tashlamaydi, havotir olma,-dedi Urusxon yana kulib.
- Unday dema, Urusxon! Qo'rqlayman. Gaplarining farishtalar eshitib qolishsa nima qilamiz? Bilaman, sen botirsan. Lekin haligacha hech kim xudoga qarshi chiqib, jazosiz qolmagan.
- Bas qil! Bundan keyin faqat mendan qo'rqlayman.
- Yosh osetin go'zali bu amrga itoat etib, bosh egdi. U yorini bu ahddan qaytarish uchun ko'p yolborishi, urinishi mumkin edi.
- Ammo bunga botinmadid. U ayni damda o'z xojasini, o'z yo'lboshchisini topganiga ishongan, shuning o'ziyoq qalbiga g'urur baxsh etayotgan edi.
- Otang qachon qaytadi?-deb so'radi Urusxon, qizning itoatkorligidan mammun bo'lib.
- Peshindan keyin.
- Menga yegulik biron nima tayyorla. Tongda chiqib ketaman. Ertadan boshlab ovqatni o'rmonga o'zing olib borasan.
- Bu buyruqdan qiz bir seskanib tushdi:
- Urusxon!-dedi titroq ovozda.
- Zoliyxon!!-yigitning ovozida jahl, yengil bo'lsa-da, dag'dag'a ohangi zohir edi.
- Qiz xo'rsindi:
- Mayli, sen aytgancha bo'la qolsin,-dedi mutelik bilan.-Lekin meni o'rmondan chiqib, jar yoqasida kutib olasan. Men baribir o'rmon ichkarisiga qadam bosmayman.
- Yaxshi,-deb yon bosdi yigit.-Oy Tbau ustiga ko'tarilganda seni kutaman.
- Zoliyxon uyiga chiqib ketish maqsadida o'rnidan turdi. Lekin yigit yolg'iz qolishni istamadi. Devor tomon surilib, unga joy bo'shatdi. Qiz itoat bilan uning yoniga yotdi. Kamindagi o't o'chdi. Ahyon-ahyonda cho'g'dan ajragan uchqunlar bu yerda ikki qalbni birlashtirgan muhabbatning qadimi, umrbod, hayot yaratuvchi qo'shig'ini eshitishga mushtoqday qorong'ulik bag'riga sapchishadi. Bu qo'shiqdandan bahramand bo'lganlari evaziga xonaga yorug'lik in'om etmoqchi bo'ladilaru, ammo muddaolariga yetmay, zulmat quliga aylanadilar.

Tongda Urusxon hovliga chiqqanida yelkasiga sochiq tashlagan Zoliyxon o'ng qo'lida mis oftoba, chap qo'lida chilopchin ushlab, kutib turardi. Qiz suv quyib turdi, mehmon yuvindi. Keyin Zoliyxon qo'noqxonaga kirib, uning o'rmini yig'ishtirdi-da, nonushta tayyorladi. Urusxon tamaddi qilayotganida qaynatib pishirilgan go'sht bilan nonni ro'molga tugdi.

Xayrashish onida Urusxon Zoliyxonni belidan ushlagancha, o'ziga tortib, o'pdi. Zoliyxon yuzini uning ko'kragiga qo'yib, mahkam quchoqlab oldi. Urusxonning muqaddas o'rmonga kirmasligini so'rab, yana yolborgisi keldi-yu, botina olmadi yuragi dov bermadi. Dardini ichiga yutdi-yu, xo'rsinib qo'ysi. Abrek buni ajralish daqiqasining alamli iztirobi deb o'yaldi.

- Urusxonning xotini boshqa ayollar kabi yig'lab-xo'rsinmasligi kerak,-dedi u.-Xudo jonimizni so'rab oladigan onga qadar qahramonligimizcha qolishimiz shart.

- Men harakat qilaman, Urusxon.

U ketdi.

Yelkasiga miltiq osgan Urusxonning Nayfatdagi muqaddas qadamjoga olib boruvchi so'qmoqdan yuqoriga ko'tarilib borishiga qiz xavotir to'la ko'zlarini qadab qoldi. U yoriga qo'l silkishni yoki "xayr, jonim!" deb qichqirishni istardi. Ammo bunday qilishdan hayiqdi.

Tong quyoshining nuriga cho'mib yotgan ovul asta uyg'onmoqda edi. Istagini yenga olmasa sirining oshkor bo'lishi hech gapmas. U yorini nigohi bilan kuzatish, uning jar yoqalab dadil qadam tashlashiga mehr bilan boqish bilan cheklandi.

Qiz yigitga butun qalbini berdi. Urusxonning bir kechalik erkalashlari bu go'zal qizni yori uchun jonini ham berishga rozi bo'lgan sevuchi xotinga aylantirdi.

Nayfat xarobalariga yaqinlashgan Urusxon yon-atrofga sinchkov nazar tashladi: hech kim yo'q....

Hov pastda, ko'm-ko'k o'tloq o'rtasini irmoq kesib o'tgan. Soqov qoyalar esa gerdayganlaricha ko'kka bo'y cho'zganlar. So'qmoq adog'i muqaddas o'rmonga taqaladi. U to'g'ri yo'l qolib, pastga, irmoq sohiliga tushdi. Suv oqimi bo'ylab borib, o'rmon etagiga yetdi.

Qadimiy chinorlar tomon qadam qo'yishi bilan uning vujudiga beixtiyor vahima oraladi.

"Shakkoklik!" deb visiraldi qandaydir ichki ovoz. Lekin bu ovozga bandi bo'lmadi. O'ng qo'li bilan xanjari dastasini siqib, qoshlarini chimirdi-da, dadil yurib ketdi. Shu alpozda yurib, bahaybat chinorlar orasidagi buloq boshiga yetdi. Bayram kunlari ruhoniylar bu yerga kelib pivo qaynatish uchun shu buloq suvidan olardilar. Qurigan daraxt shoxlarini ham shu atrofdan to'plashardi. Bu tomon otlangunlariga qadar avval ro'za tutib, ruhlarini poklab olgan g'arib kiyimli odamlar badanlariga ilohiy suvdan yetkazib, jisman ham poklangach, duolarni o'qiganlaricha ehtiyotlik bilan qadam bosib, muqaddas o'rmon ichkarisiga asta-asta yurib kirib borardilar.

Buloq boshidagi mayin ko'kat mehribon mezbon singari Urusxonni dam olishga chorladi. Hech kimning nigohi tushmaydigan bu yer uning uchun havfsiz edi. Qadamjoga kelishga jur'at qiluvchi jasur odam bu atrofda topilmaydi. U behisob tunlarni mozoriston sag'analarida murdalar bilan o'tkazgani uchun har qanday qo'rquv va vahimani yengishga odatlangan edi.

Urusxon taom o'ralgan tugunni, qurollarini xarsang ustiga qo'ydi-da, ko'kat ustiga bo'rkin to'shab yotdi. U yotganicha, o'z xayollariga band bo'lib chekardi.

Kun bilintirmasdan tez qaridi. U tunni, sevgilisi keladigan paytni oy chiqishini intiq kutardi.

Sovchi

Zaur Tutsat uyiga soqov o'g'li hamrohligida peshin chog'i qaytdi. Otdan chaqqonlik bilan sakrab tushgan Qo'rg'ok otasi egardan imillab siljigunicha jilovdan ushlab turdi. Uzoq yo'l yurganidan ruhoniy otaning a'zoyi badani toliqqan edi. Uning vazmin qadam tovushlarini eshitgan ojiza kampir o'rnidan qo'zg'oldi.

Zoliyxon esa eshik kesakisiga suyanganicha qimirlay olmaydi. Uning yuragi nima uchun bunchalar qattiq tepyapti?

Qo'rg'ok otasiga ergashmay, egarlarni olib, otlarni o'tloqqa haydadi.

Xotini bilan qizining salomiga alik olgan Zaur og'ir-o'g'ir qadamlar bilan yurib kelib, o'choq oldidagi kursiga o'tirdi. Bir oz davom etgan sukutdan so'ng vazmin ovozda gap boshladи:

- Xitsada Temir To'tarayevni ko'rdim. Yaqin kunlari ichi u suruvini bu yerlarga haydab keladi. Qo'ylarini yoz ichi shu yerlarda boqmoqchi. U biznikida yashab turadi. Kelgan kuni qo'y so'yib, izzatini joyiga qo'yish kerak.

Zaur qaysi bir mehmonni alohida izzat-hurmat bilan kutib olishni istagan taqdirdagina uning tashrifini avvaldan ma'lum qilardi. Ona-bola uning bu odatini yaxshi bilishadi. Temir deganlari Zaurning qalin do'sti. Bu uyda ko'p mehmon bo'lgan. Biroq shu paytgacha uni alohida tayyorgarlik bilan kutishmagan edi. Endi uning poyi qadamiga qo'y ham so'yish kerak emish. Bunday izzatning tagida bir gap bor...

Zoliyxon bu yangilikning tagiga yetishga urinmadi ham, aksincha buni o'ziga aloqasi yo'q bir xabar deb bilib, indamaygina chiqib ketdi. Qiz uyida bo'layotgan voqealarga e'tiborsiz qarashga ko'nikib qolgan. U Temir To'tarayevning tashrifi o'zining taqdiriga taaluqli ekanini o'ylab ham ko'rmadi. Uning butun fikru zikri hozir muqaddas o'rmondan panoh topgan, xudo va barcha odamlarga qarshi chiqishga jur'at etgan jasur yigitda edi!

Qizining chiqib ketganini sharpasidan sezgan ojiza eriga murojaat qildi:

- Zaur, sendan bir narsani so'rasam maylimi?

- So'rayver.

- Temir bekorga kelmayotgandir? Maqsadi nima uning?

- Nimagaligini aytdim-ku? Gapimga tushunmadingmi?-Zaur shunday deb xotiniga norozi qiyofda qarab qo'ysa-da, izoh berishga majbur bo'ldi:-Qo'ylarini boqqani keladi.

- Zaur, sen nimanidir yashirmoqchi bo'lyapsan. Temirning maqsadi faqat qo'ylarini boqish emasdир?-Ojiza shunday deb o'rnidan turdi-da, xassasi bilan yerni paypaslab, eriga yaqinlashgach, uning qo'lini ushlab, yolborgan odamning tovushi bilan so'radi:-Menga to'g'risini aytaqol...

Zaur avvaliga indamadi. Bir oz sukutdan so'ng mujmal ravishda javob qaytardi:

- Sendan yashiradigan gap yo'q, tashvishlanma. Temir o'g'li uchun biznikidan bir nimani olmoqchi.

Tashqaridan kelgan kishi bu gapni eshitsa, "Temir biron buyum ilinjida ekan-da", deb o'ylashi mumkin. Biroq onaning ko'ngli bu mujmallik ortida qanday niyat yotganini darhol ilg'adi.

- Zoliyxonnimi?-dedi ovozini balandlatib.

Bu faqat bo'lajak ayriliq dahshatiga tushgan ona qalbining faryodi emasdi. Uning ovozida qizidan ayrilgach, tun qa'rida yolg'iz qolishdan qo'rqish ohangi ham bor edi. U eridan qo'rqadi. Zoliyxon esa uning birdan-bir quvonchi. Shuning uchun ham bo'lajak ayriliq xabari vujudini tilka-tilka qilib tashladi.

- Kerim qizimizdan rozilik so'rabdimi?[4] Zoliyxon bu haqda menga hech narsa demadi-ku?

- Ichidan pishgan qizing sovchi yuborilishiga rozi bo'lgandir-u, lekin senga aytmagandir. Senlar bunaqa ishlarni mendan yashirib yurishga ustanaslar.

Ojiza eriga e'tiroz bildirishga jur'at etmasa-da, "yo'q, qizim mendan hech nimani yashirmaydi", deganday bosh chayqadi.

Zaur xotiniga boshqa gapirmadi. Jimgina o'tirib, o'yga botganicha Tbau-uats-Ila o'rmoniga tikilib qoldi.

Bu paytda Kerim To'tarayevning tutingan akasi Zurab Kodat ovul tomondan otini gijinglatib, ularning uylari tomon yaqinlashib kelardi. U cherkascha oq kamzul bilan oq papoq kiygan, dastasi bilan qiniga kumush suvi yuritilgan xanjar va kumush halli kamar taqib olgan edi. U hovlida turgan Zoliyxonga yaqin kelib, Qofqaz odaticha salom berdi: o'ng qo'lini bir nafas ko'kragiga qo'yib, keyin tushirdi.

- Zaur qaytdimi?-deb so'radi.

Qiz muloyimgina, ayni damda o'zini kiborlarcha tutgani holda javob qaytardi:

- Ha...

Zoliyxonning o'zini kiborlarcha tutishi bejiz emas. Tutsatlarning urf-odatlari uning qon-qoniga singib ketgan. U Kodatlarning bir vaqtlar Tutsatlar xonadoniga qaram bo'lganini unutmagan. Epchil, ayni damda zehni o'tkir bo'lgan Zurab qizning o'zini tutishidan maqsadini anglasa-da, hech nima sezmaganday olijanoblik ohangida suhbat boshladи. U g'oyat baodob edi. Har bir so'zi, har bir harakatida erlik g'ururi bilan birga hilm ham mavjud edi. Mana shu xulqi bilan u martaba jihatdan yuqori sanaluvchi xonodon qizining kibr-g'ururini bosib olishga erishdi.

Yigit ovul yangiliklaridan so'z ochdi-da, bayramning yaqinlashib qolganini gapira turib, do'sti Kerim To'tarayevni maqtashga tushdi. Kerimning jasurligi, sofkilligini, oilasining badavlatligini va obro'-e'tiborining maqtovini keltirdi.

Xayoli Urusxon sog'inchi bilan band bo'lgan qiz avvaliga bu ta'rifu tavsiflarni e'tiborsiz tingladi. Keyin uning maqsadini anglab, titrab ketdi.

- Zoliyxon, Kerimga borib nima deyin? Sovchi yuboraversinmi?

Bu savol qizning jonini sug'urib olganday bo'ldi. Zurabning javob istab tikilib turgan o'tkir nigohi yuragiga o'q kabi qadalganday bo'ldi. Qani edi, bu nigoh chindan ham o'qqa aylansa-yu, yurak qonini oqizsa... Shunday bo'lsa Zoliyxon ayni damda mingdan-ming rozi bo'lib tashlab ketardi bu dunyon... O'tkir nigohini qardashga qanoat qilmagan Zurab savolini yana takrorladi. Endi uning ovozi go'yo momaguldirak kabi guldirab, qizning boshi ustidagi osmonni mayda-mayda qilib yuborganday tuyuldi. Qani edi, chindan ham shunday bo'lsa-yu, osmon parchalari uning jonini ola qolsa... Zurab savolni uchinchiligi marta takrorlash o'rniga "javob kutyapman", degan ma'noda tomoq qirib qo'ydi. Zoliyxon shundagina o'ziga keldi. Shoshilganicha:

- Yo'q, yo'q! Hech qachon, hech qachon!-dedi-yu, boshqa so'z aytishga qurbi yetmadi. Shart burilib, uyiga oshiqdi.

Qizning harakatidan ajablanib qarab qolgan Zurab o'sha kuniyoq Kadgaronga yo'l olib, do'stiga noxush xabarni yetkazdi.

Uzoq davom etgan tanish-bilishlikdan so'ng Zurab bilan Kerim aka-uka tutinishga qaror berib, qasam qadahidagi mayni ichish bilan bu ahddarini qalblariga muhrlagan edilar. O'shanda Kerim Zaurning go'zal qiziga oshig'u beqaror ekanini aytgan, Zurab esa uning og'irini yengil qilishga bel bog'lagan edi. Agar sovchilik bilan ish bitmasa ayyorlik va jasurlik bilan bo'lsa-da, qizni o'g'irlashga ham tayyor ekanini bildirgandi. O'sha yillari bu rejani amalga oshirish mumkin bo'limgani uchun to shu kunga qadar toqat bilan kutishga to'g'ri keldi. Kerim garchi ishq o'tida yonib yursa-da, akasi uylanmagani uchun Zoliyxonga og'iz sola olmasdi. Qaysi osetin yigit akasidan oldin uylanibdi-ki, Kerim bunga jur'at qila olsa!? Akasiga insof kirishi qiyin bo'lib oylarni emas, yillarni sovurdi. Nihoyat ota-onasining gapiga kirib uylangach, Kerimning yo'li ochilib, Zaurning qiziga uylanish niyati borligini otasiga aytdi.

Temirga o'g'lining tanlagani ma'qul keldi. U Zaurga qarindosh bo'lismi orqali oilasining obro'-e'tibori oshajagini bilardi. Qolaversa, ko'p yillik do'stliklari hurmati Zaur qalin puli so'rashda insof qilar, degan niyatda edi.

Ko'zlarli soddalik bilan beg'ubor boquvchi, to'ladan kelgan, yuzlari chiroyli Kerim qizning rad etganini eshitib, avvaliga ko'ngli o'ksidi. So'ng "yaxshilik bilan rizolik bermasa, uni o'g'irlayman!" degan qarorga keldi. U yillar bo'yи muhabbat alangasida yonib, endi go'zal qizga tezroq yetishishni xohlardi. Shu ahdiga mast bo'lib, qiz olib qochilgan taqdirda qalin puli bir necha barobar oshib ketishini o'ylab ham ko'rmayotgan edi. Niyatiga tezroq yetishni istayotgan oshiq yigitning ko'zlariga qalin puli emas, faqatgina qizning go'zal chehrasi ko'rinyotgan bo'lsa ne ajab! Biroq jasurlikda tengsiz hisoblangan Zurab bu safar do'stining ahdini ma'qullamadi. Kerim botir birodarining gaplaridan ajablandi. Havfli vaziyatga duch kelsa, olishishni sevadigan yigitning bunday ehtiyyotkorligi uning uchun tushunarsiz bo'ldi.

Bu tog'larda Zurab o'tmagan so'qmoqlar qolmagan. Cho'ldan o'g'irlagan otlarini faqat o'zingga biladigan so'qmoqlardan nechanecha marotabalab olib o'tgani uchun ham unga har bir daraxtgina emas, har bir buta ham tanish, deyilsa lof bo'lmas. Uning doimiy hamrohi - xanjar yuzidagi dog'lar dahshatli fojialarning tilsiz guvohi. Xanjaridagi dog'larni ko'rsatib g'ururlanishni xushlovchi Zurab bu on qurol bilan ish bitirib bo'lmashagini bilib turardi. Tutingan ukasining bezovta yuragini tinchitish uchun tushuntirishga harakat qildi:

- Sen har qanday og'ir ishda menga bermalol suyanishing mumkin,-dedi u.-Faqat Zaurning emas, tutsatlardan qay birining bo'lsa ham qizini olib qochib, bu gerdayganlarning bo'ynini egib, ezib qo'yishni o'zim ham xohlardim. O'zlarini bizlardan ustun qo'yib yurgan bu ruhoniylarni bir tuzlasam o'zim ham xumordan chiqardim. Lekin hozir buning vaqtি emas, ozgina kutishga to'g'ri keladi. Zoliyxonni ko'ndirishga yana bir marta urinib ko'raylik. Ko'p qizlar birinchi safar og'iz ochilganda shunaqa noz-firoq qilib turishadi. Keyin rozi bo'lganini o'zi ham bilmay qoladi. Sen bayramga borasanmi?

Kerim "ha, boraman", deganday bosh irg'adi.

- Mana bu ishing to'g'ri bo'ladi. Sen unga yaqinlashib, raqsga taklif qilasan. Keyin men yana gaplashaman.

- Xo'p, sen aytganday bo'la qolsan-dedi Kerim. Keyin bir oz o'ylanib turib, xavotir bilan so'radi:-Boshqa biror yigitni sevib qolgan bo'lsa-chi?

- Bo'lishi mumkin emas!

- Nega?-dedi gumon pardasiga o'ralgan Kerim, unga najot ko'zlarini bilan qarab.

- Agar birortasiga ishq qilgan bo'lsa, tanlaganingga ko'z olaytirgan o'sha mal'unning yuragini mening xanjarim allaqachon tilkappa qilib yuborgan bo'lardi. Men kimman? Axir akangman-a! Xudo shohid, biron bir yigit shu niyatda bu hovliga yaqin yo'lamagan. Yo'lagan bo'lsa men albatta bilardim. Niyatidagi xabar topganimdan beri nigohim ertayu kech shu xonadonda bo'ldi. Soqov bilan oshnaligimni bilasan-ku? Go'zal Zoliyxonning yuragini o'ziga qaram qilgan yigit yo'q bu olamda. Bu xonadonga ruhoni otaning muridlardan boshqa kimsa yo'lamaydi.

Do'stining tushuntirishlarini bee'tibor tinglayotgan Kerim uning gapini bo'ldi:

- Zurab!

- Nima deysan?

- Sen borgin-da, Zaurdan iltimos qil: u ilohiy yog'ochlaridan so'rab ko'rsin. Faqat... mening ismimni aytma. Do'stim ko'ngil qo'ygan qiziga yetishadimi yo yo'qmi, degin, shuni so'rab bilib bersa bas menga.

- Yaxshi, albatta so'rayman, sen bu tomonidan hotirjam bo'laver.

- Rahmat, Zurab.

Do'star xayrashishdi. Biri alam olovida qovrilib qoldi. Biri qiz qalbiga qanday yo'l topish muammozi bilan garang holda qaytdi.

Avliyoning Bashorati

Ertasiga Zurab yaxshilab kiyinib-taranib, Zaurning uyi tomon yurdi. Oshnasining hovliga kirib kelayotganini ko'rgan Qo'rg'ok shodon qichqiriq bilan uni qarshiladi. Zurab unga bir o'ram tamaki berdi. Qo'rg'ok tamakini olib, shosha-pisha berkitti-a, unga savol nazari bilan qaradi.

Zurab imo-ishora bilan ruhoni otada zarur yumushi borligini bildirdi. Soqov qo'noqxona tomonda turgan kursiga ishora qilib "o'tira tur", deganday bo'ldi-yu, otasiga Zurabning niyatini ma'lum qilish uchun ichkariga kirib ketdi.

Zaurning xonasida ortiqcha jihozlar yo'q edi: xonaning bir tomoniga jo'ngina so'ri qo'yilgan. Hafsalan bilan bezak berilgan miltiq shu so'ri tepasiga osilgan. Ikkinci tomonni Illa xudosini turli ko'rinishlarda tasvirlovchi suratlar egallagan. To'rdagi eng katta surat oldida mo'b hujaz chiroq lipillab yonib turibdi. Uncha katta bo'limgan dumaloq kursi ustida oq qayindan kesib olingan, yo'g'onligi barmoqdek keladigan to'rtta tayoqcha ko'zga tashlanadi.

Qo'rg'ok ichkariga qaragan mahalda Zaur ibodat bilan band edi. U Ilaning surati qarshisida tiz cho'kkancha pichirlab, dam-badam sajdaga bosh qo'yardi. Ibodati nihoyasiga yetganda cho'qinib oldi-da, o'nidan turdi. Otasining ibodatdan turishini sabr bilan kutgan Qo'rg'ok ovoz chiqarib, eshik tomonni ko'tardi. Zaur muridlaridan biri kelganini anglab, tashqariga yo'naldi. Ostonada ko'rinishi bilan Zurab unga ehtirom ko'rsatib, ta'zim qildi. Bu ehtirom Zurabning qariligi yoki ruhoni yota ekanligi uchungina emas, balki bularning urug'iga uzoq yillar davomida xizmat qilgan o'z ajdodlarining hurmati uchun ham edi.

Keksa Zaur Zurabning kelishdan maqsadi nima ekanini muloyimik bilan so'radi. Zurab farishtalardan muhim bir ishning oqibatini so'rab berishni iltimos qildi. Bu kun hali tuz totmagani sababli ruhoni yota Zurabning iltimosini bajo etishi mumkin edi. U Zoliyxonni chaqirib, suv keltirishni buyurdi. Otasining amrini bajarayotgan qiz Zurabga savol nazari bilan qarab-qarab qo'ydi. Otasining qo'liga suv quyayotgan damda ham ko'zi chaqirilmagan mehmonda edi. Xayoli esa "rad javobini olgandan keyin surbetlarcha yana kelishidan maqsadi nima ekan?" degan savolga javob izlardi. Zurab bir martagina qiz bilan ko'z urishtirdi. Keyin xuddi avvalgi kuni sovchilik qilmagandek, bugun Zaurni ziyorat etmoqdan o'zga niyati yo'qdek Qo'rg'okka qarab, imlashganicha "gaplashaverdi". Zaur qo'l-betini yuvib bo'lgach, sochiqqa artindi-da, Zurabga "orqamdan yur", deb ishora qilib ichkariga kirdi.

- Nimalarni bilish istagidasan?-deb so'radi u Zurabga o'girilib ham qaramay.

- Men do'stinning sevganiga yetishishi yo yetisha olmasligini bilmuoqchi edim.

Zaur bu gapni eshitib, o'girildi. Kodatning o'g'liga qarab oldi. Keyin ikki deraza orasidagi tokchada turgan kichkinagina yog'och kosachaga ko'z tashlab qo'ydi. Zurab bu nigohning ma'nosini tushundi.

Avliyo Ilaning tasviri tomon o'girilgan ruhoni yota kumush tanganing tanish va yoqimli jarangini eshitgach, tiz cho'kdi-da, duo o'qiy boshladidi. Ora-sira sajdaga bosh qo'yib turdi. Nihoyat cho'qinib olgach, o'nidan turdi. Uning harakatlarini diqqat bilan kuzatayotgan Zurab ham beixtiyor cho'qinib oldi. Zaur shoshilmasdan, tantanavor qadam tashlab kursiga yaqinlashdi-da, bir ta'zimni bajo keltirib, tayoqchalarni qo'liga oldi. So'ng qo'llarini oldinga cho'zganicha Ilaning eng katta tasviriga yaqinlashdi-da, pichirlab duo o'qiy boshladidi.

Ruhoni otadan ko'z uzmayotgan Zurab huddi ilohiy bir dahshat chimmatica o'ralib borayotganday his qildi o'zini. Zaur zo'r berib duo o'qiyotgan paytda tayoqchalar go'yo jonlanganday qimirlashdi. Ular qandaydir kuch ta'sirida yuqoriga ko'tarildilaru, so'ng yana Zaurning kaftlariga qo'ndilar. Shu alpozda osetinchalari harfni yasadilar.

Zaur ibodatini to'xtatmay, balki yanada berilibroq duo o'qiy ketdi.

Tayoqchalar yana ko'tarildilar. Yana joylariga qaytdilar. Yana avvalgi harf hosil qilindi.

Zaur ibodatini nihoyasiga yetkazib, ilohi Ila haqiga pichirlaganicha shukrona ayta-ayta ta'zim qilgach, tayoqchalarni joyiga qo'yida, Zurabga yuzlandi:

- Tbau-uats-Ila savolingga javob qaytardi. Do'stingning baxti kulgay, umidiga yetgay, sevganiga yetishgay. Endi tutungan ukang nomidan Tbau-uats-IIaga shukr qil!

Ruhoni otaning "tutingan ukang nomidan" deb ta'kid ohangida gapirishi Zurabni lol qoldirdi. Zaur uning ajablanishini sezmaganday muloyimlik bilan dedi:

- Kimning nomidan kelganing menga oshkor etildi.

Bu gapdan keyin Zurab Ilaning tasviriga yuzlanib tiz cho'kdi, shukrona duosini o'qib, to'xtovsiz ravishda cho'qinib, behisob ravishda sajda qila ketdi.

Shu kuniyoq u Kadgaronga chopar jo'natib, xushxabarni Kerimga yetkazdi.

* * *

Oradan kunlar, haftalar o'tdi. May oyi vodiya tantanavor va g'olibona qadam tashladi. Hamma yoqni nafis gullarga, iliq quyosh nuriga cho'mirdi. Zoliyxon ba'zan qiyin ahvol bandiligidan qiyalsasa hamki, Urusxonni och-nahor qoldirmadi. Buning uchun u bir necha marotaba ayyorlik va aldov ko'chalariga kirib chiqishdan ham or qilmadi. Avvaliga u o'rmon yoqasigagina kelar, o'zini Urusxonning bag'rige otar edi. Mana shu sharqirab oqayotgan irmoq sonsiz bo'salar va erkalashlarning tilsiz guvohi. Totli kechalarning birida Urusxon unga shunday dedi:

- Yur, men senga o'zimning shohona ko'shkimni ko'rsatay. Momiq o'tlar mening ko'rpa-to'shagim, ildizlar - yumshoq yostig'im.

Bu taklifdan Zoliyxon qo'rqib ketib, orqasiga tisarildi:

- Yo'q, yo'q,-dedi u titroq ovozda,-Urusxon, zo'rlama, men jur'at qila olmayman.

Bu o'jarlik Urusxonning g'azabini uyg'otdi:

- Amrimga itoat etasanmi yo yo'qmi?!-dedi u ovozini balandlatib.-Qachondan beri xotin erga bo'ysunmaydigan bo'lib qolgan? Urusxon sevgilisining nimadan qo'rqayotganini anglamay nojoiz ranjigan edi. "Yorim xudoning qahr-g'azabiga uchramasini", degan havotirdagi Zoliyxon ochig'ini aytishga jur'at etdi:

- Urusxon, senga itoat etish mening burchim, lekin... men... senga biron falokat yopishib qolishidan qo'rquyapman.

Urusxon uning ko'zlarini mehr bilan o'pdi-da, so'ng dast ko'tarib oldi:

- Qo'rqlama, hamma gunohni o'z gardanimga olaman. Urusxon xotinini qanday seva olishini Tbau-uats-Ila bir ko'rib qo'ysin!

U Zoliyxonni ko'tarib borar, qo'rquv changalidagi qiz esa uning bo'yinini mahkam quchoqlab, ko'zlarini yumib olgan edi. Ularning yo'llarini to'sish uchun shoxlarini osiltirib turgan qari eman daraxtiga ham e'tibor bermay o'tdilar. Urusxon mammun kulganicha nozik-niholini yerga qo'ydi. So'ng buloq labiga bo'rkin to'shadi.

Zoliyxon uning harakatlariga monelik qilmadi. Bularning hammasi unga shirin tush kabi yoqimli tuyulayotgan edi.

U mard yigitning sevgan yori muqaddas o'rmonda yotibdi. Bu ne sir-sinoatki, dahshatli Tbau-uats-Ila unga jazo bermayapti! Uni chaqmoq ham urgani yo'q, xudo unga jazo yuborib, ko'zlarini ko'r ham qilmadi, aqlini ham olmadi. Nahotki Tbau-uats-Ila haqidagi gaplar shunchaki uydirma bo'lса?

Urusxon bo'rк ustida nozlanib yotgan qiz tomon egildi. Lablaridan bo'sa oldi. Haqiqiy baxtli hayot kechirishga, muhabbat lazzatidan doimo bahramand bo'lib yurishga da'vat etdi.

Keyin faqat o'zigagina ma'lum bo'lgan tog' cho'qqisida joylashgan eski saroy haqida gapirib berdi.

...Qalin o'rmonlar bag'ridan go'yo yulqinib chiqqanday tuyuluvchi tog' cho'qqilari ko'kda, bulutlar saltanatidan o'ren olgan. Unga olib chiquvchi na biron yo'l, na biron so'qmoq bor.

- U yerga o'zing qanday chiqib borasan?-deb ajablanib so'radi Zoliyxon.

- Qoyalarga qoqilgan halqalar saqlangan. Saroya chiqib olgach, unda faqat o'zim erkin hoqonman. U yerga tirik jonning oyogi

yetolmaydi. Men seni o'sha yerga olib ketaman.

- Jonim. qahramonim, sen meni qayerga boshlasang, izingdan boraveraman,-dedi qiz erkalanib.

Irmoq asta shildirab, go'yishq savdosidan qo'shiq kuylaydi. Tbau osmonida hukmronlik qilayotgan oy nurlari sokin o'rmonni kumush nur chodiriga o'raydi...

Chorasiz Qiz

Oy Tbau tog'i cho'qqilari ortiga yashiringan pallada Zoliyxon jar yoqasidagi so'qmoq bo'ylab shoshganicha uyiga qaytar edi. Eshik oldida akasi bilan Zurabni ko'rdi-yu, qo'rquvdan yuragi orqasiga tortib ketdi. Tong saharlab ikki do'stning yo'lga ko'z tutib turishi bejiz emas Zoliyxonni kutishayotgani shak-shubhasiz edi.

"Tbau-uats-Ilaning qahri kelibdi! Endi meni jazolaydi!" Zoliyxonning xayolidan shu fikr o'tib, titrab ketdi. Sevgilisi quchog'iga kirganda uni tark etgan qo'rquv yana qaytdi-yu, temir omburlari bilan vujudini siquvgaga oldi.

Qiz siri fosh bo'lganini, kuni bitganini sezdi.

U tunda uyidan chiqdi bu haqiqatni berkitib ham bo'lmaydi, rad etib ham. Biroq uning qayerda bo'lgani noma'lum, buni hech kim, hech qachon bila olmaydi.

Nazarida akasi uni mayna qilib o'kirkanday bo'ldi. Aslida-ku, Qo'rg'okning bunday qarshilashi ahamiyatsiz bir narsa, chunki bu uyda uning sariq chaqalik e'tibori yo'q, hatto odam qatoriga qo'shishmaydi. Hatto uning tirikchiligi hisoblangan taom qoldiqlari ham keyingi paytda sezilarli darajada kamayib qoldi. Bir kuni u singlisining harakatlarini ziyraklik bilan kuzatib, qolgan ovqatni tokchaga ehtiyyotlab olib qo'yanini ko'rdi. Ertalab tura solib tokchaga qaraganda taom ko'rinnadi. Bu holat bir necha marta takrorlangach, otasiga irillaganacha singlisining sirini fosh etmoqchi bo'ldi. Ammo Zaur unga e'tibor bermadi.

Kunlarning birida go'shti shilib olingen suyakni g'ajib o'tirganida Zurab kelib qoldi-yu, dardini unga aytish istagi tug'ilди. Suyakni Zurabga ko'rsatib, zorlanib o'kirdi. Zurab uning dardini tushunganday bo'ldi. Paytdan foydalaniib, uni uyiga boshlab ketdi. Uyda suzmali somsa pishirtirib, bir kosa pivo bilan mehmonini siyladi. Qo'rg'ok do'stining bu marhamatidan quvonib, pishqirdi-da, bu tansiq taomni ishtaha bilan yedi. So'ng telbarcha kulib, minnatdorlik bildirganday Zurabga qo'l uzatdi.

Zurab imo-ishora bilan unga maqsadini anglatdi. Uning istagi bo'yicha Qo'rg'ok singlisidan ko'z uzmay har qadamini kuzatishi, uylari atrofida biron begona yigit paydo bo'lib qolsa darhol xabar qilishi kerak edi. Bu xizmati uchun Zurab o'n rubuning bahridan o'tishi mumkinligini ham tushuntirdi.

Soqov "Zurab singlimga uylanmoqchi ekan-da", deb o'ylab quvonib ketdi. Bu xursandchilik bejiz emas, Zurab sovg'alari va shirin muomalasi bilan uning ko'nglini ovlagan edi. Shunday yigitning kuyov bo'lishi Qo'rg'ok uchun ayni muddao edi. U quvonchini ichiga sig'dirolmay, Zurabni quchoqlab, o'pib qo'ydi. Keyin kir kafti bilan uning yuzini siladi. Bu erkalashlaridan Zurabning g'ashi kelsa-da, maqsadini amalga oshirish yo'lida o'ziga kerakli yo'losh topganidan ko'ngli to'lgani uchun chidab o'tirdi.

Kechni ovqatdan so'ng singlisining ro'molga non bilan pishgan go'sht o'rav qo'yanini ko'rgan Qo'rg'ok otxonaga yashirinib, mijja qoqmay o'tirdi. Ovluyquga berilgan onda Zoliyxonning astalik bilan uydan chiqib, o'rmon tomon ketganini ko'rdi-yu, Zurabni bundan ogoh qilishga oshiqdi. Lekin Zurab uyida yo'q edi, uning qayoqqa ketganini uyidagilar tushuntirib bera olishmadni.

Qo'shnilar bilan yarim tungacha laqillab o'tirgan Zurab uyga qaytgunicha Qo'rg'ok uning ostonasidan nari jilmadi. U singlisining tuguncha ko'tarib, oy chiqishi oldidan qayoqqadir ketganimi imo-ishora bilan anglatdi.

- Qayoqqa ketdi?-deb so'radi Zurab.

Soqov savolga javoban "bilmayman" degan ma'noda yelka qisdi.

Qizning chakki qadam bosayotganini Zurab sezgan edi. Lekin shu topda uni qayerdan izlashni bilmay garang bo'ldi. Oxiri Zoliyxonni qaytishini uning eshigi ostonasida kutishga qaror qildi. Qarorini ma'lum qilmasa-da, Qo'rg'ok uning yonidan joy oldi.

Tong qorong'uligida Zoliyxon paydo bo'lguniga qadar Zurab xayolan ming ko'chaga kirib chiqdi. Qizning boshini aylantirgan kim ekan, deb o'zi bilgan yigitlarni bir-bir ko'z oldiga keltirdi. Gumanidagi nechta yigitning ko'kragiga xayolan xanjar urdi, qanchasining qizga termulgan ko'zlarini o'yib oldi, qanchasining kallasini uzib tashladi Ichki bir g'azab o'tida qovurilayotgan damda Zoliyxon ko'rindi. Zurab martabasi baland oilaning qizini daf'atan savolga tutishga jur'at qilmadi. Qiz yaqinlashgach, o'zini qo'lga olib, olijanoblik bilan salom berdi:

- Tonging xayrli bo'lsin, Zoliyxon,-dedi u.- Tongning ajoyibligini qara-ya! Shunday bo'lsa ham qiz bolaning bir o'zi yuradigan payt emas hozir. Har holda xatar ham bor-da.

Zoliyxon salomga javob qaytarmay to'xtadi-da, boshini ko'tarib unga mag'rur ravishda tikildi:

- Qandaydir kodat qachonlardan beri tutsatlar qizi uchun tartib-qoida belgilaydigan bo'lib qolgan?

Zurab bunday gapni sira kutmagandi. Zoliyxon unga donolik bilan zarba bergan edi. Lekin Zurab ham bir cho'qishda qochadigan anoyi kodatlardan emasdi. Shu paytgacha eng gapga chechan qiz ham uni mot qila olgan emas. Urug'-aymog'i martabasining nisbatan pastroq ekaniga shama' qilingan onda ham Zurab dovdirab qolmagan. Shuning uchun ham u javobga kelganda gap izlab taraddudlanmadni:

- Kodatlar hamisha tutsatlarga sodiq xizmat qilib kelganlar. Kerak bo'lganida ularning nomus-ori uchun o'z yurak qonlarini ham to'kkalar. Ha, men kodatman! Agar zarur bo'lsa, Zaur Tutsat xonadonini sharmandalikdan asrash uchun jonimni berishga ham tayyorman.

Bu dadil gapni eshitib, Zoliyxon cho'chib tushdi.

"Sharmandalikdan asrash uchun Zurab nimani nazarda tutyapti? Guman ni bormi?"

Qiz shu havotir bilan unga yaqin keldi. Avvalgi g'ururidan asar ham qolmadi.

- Zurab, sendan o'tinib iltimos qilaman,-deb yolbordi u,-kechasi ko'chada yurganimni birovga aytib qo'yma. Agar oilamizga chindan ham do'st bo'lsang, meni tunda ko'rganiningni boshqalarga aytmaslikka so'z ber.

Endi mag'rurlik martabasi Zurabga ko'chdi. Qizdan ko'z uzmagan holda sovuqqonlik bilan so'radi:

- Qayerda eding?

- Zurab, buni senga ayta olmayman.

- Agar bu qilig'ingdan otangni xabardor qilib qo'ysam-chi?

- Baribir ayta olmayman.

Zurab nochor ahvolga tushgan qiz tomon bir qadam qo'ydi. Hech nimaga tushunmayotgan Qo'rg'ok esa bir Zurabga, bir singlisiga mo'llillaganicha qarab turaverdi.

- Zoliyxon, Kerim To'tarayevning tutingan akasi ekanimni bilasan-a, -deb vazminlik bilan so'z boshladi Zurab.-Shuning uchun

qayerda bo'lganiningni so'rab, tergashga haqqim bor.

- Qanaqasiga haqqing bo'lар ekan?-deb yubordi qiz o'zini bosolmay.-Kerim To'tarayevning bilan mening nima ishim bor? Unga arziyidigan javobimni aytib bo'lganman.

- Sen gapiraverasan. Sening gaping emas, xudoning buyurgani amalga oshadi. Sen Kerimga tegasan.

- Hech qachon!

Zoliyxon shunday deb hayqirdi-yu, najot izlab atrofiga alangladi. Najot yo'q edi. Soqov akasiga ko'zi tushib, nochor ravishda bo'shashdi.

- Tbau-uats-Ila aytdi: taqdiring shu ekan, bo'y sunishga majbursan,-dedi Zurab sovuq ohangni o'zgartirmay.

- Nima? Bekor aytibsan!

- O'zing bekor aytibsan. Ishonmasang otangdan so'ra. Men fol ochib berishini iltimos qilgan edim.

Bu yangilikdan so'ng o'zini tamoman yo'qotgan Zoliyxon yuzini kaftlari bilan to'sdi.

Bu qanaqasi axir?! Qalbi, muhabbat faqatgina Urusxonga atalgan bo'lsa-yu, xudo uni boshqa birovga ravo ko'rsa?!

Bu qanday ko'rgilik? Qadamjoni bulg'agani uchun xudo jazolamoqchimi? Axir u allaqachondan beri Urusxonning xotini-ku?

Zurab buni xayoliga ham keltira olmaydi. Ammo Tbau-uats-Ilaning bexabar bo'lishi mumkinmas-ku? Axir bu ish ham uning irodasi bilan bo'lgan-ku? Endi boshqa yigitga ravo ko'ryaptimi?

Kodat o'g'li oliy tabaqali tutsat qizining bu nochor ahvolini kuzatib, lazzatlanadi.

- Ana, ko'rdingmi, boshqa ilojing yo'q sening. Taqdirdan xabar beruvchi farishtaning aytgani albatta bo'ladi.

Zurab bu gapni g'olib odam ovozi bilan aytgan edi. Uning nazarida chorasiz qiz mag'lublikni tan olmog'i lozim edi. Ammo Zurab kutganday bo'lindi. Zoliyxondagi mag'rurlik yana bosh ko'tardi. Tutsatning mag'rur qizi amalga oshishi muqarrar qilib belgilab qo'yilgan taqdir yozug'iga ham qarshi bosh ko'tardi:

- Hech qachon, hech qachon! Eshityapsanmi, Zurab Kodat! Men hech qachon Kerimga tegmayman!

Zurab qalb nidosini o'zining keskir gapi bilan maydalamoqchi bo'ldi:

- Baribir sen Kerimniki bo'lasan, Zoliyxon Tutsat! Boshqa chorang yo'q!

Ko'ngli cho'kkani qiz bu odam bilan aytishib turishni istamay, hovlisiga kirib ketmoqchi bo'ldi. Ammo yigitning baquvvat gavdasi yo'lini to'sdi:

- Agar bironta yigitga ko'ngil qo'ygan bo'lsang, yaxshi qiz, bilib qo'y, uni sening nafasing emas, o'lim farishtalarining quchog'i kutyapti.

- Yo'lidan qoch. Meni holi-jonimga qo'y,-dedi Zoliyxon yalingansimon ohangda.

Qizni qiyash ortiqchaligini sezgan Zurab chetlanib, unga yo'l bo'shatdi. Qiz shoshganicha ichkari kirdi. Ortidan Zurabning qahrlı ovozi keldi:

- Nimagadir xanjarim qonsirab qoldi-ya!

Zurab bu gapni shunchaki tahdid uchun aytgani yo'q. Agar Zoliyxonning qayerdan, kimning oldidan kelayotganini bilsa edi, qonsiragan xanjarini tong otmay turib qonga to'ydirdi. Bu bevosh qizning kimnidir sevib qolgani Zurabga ayon. Tunda daydib yurishi bekorgamas. Birinchi marta Kerimning istagini aytganda o'ylab ham o'tirmay shosha-pisha rad etgani ham bejizmas. Ammo kimni? Qizning aqlini o'g'irlagan yigit kelgindilaridanmi yo shu ovuldag'i esi pastlardan birimi? Zurabga shunisi noma'lum. "Men buni bilishim shart. Kerak bo'lsa bir haftami, bir oymi izini poyleyman. Bilmasdan qo'ymayman", deb ahd qildi u. Uyga qaytib, otni egarladi. Uyqusirab chiqqan ukasiga ovga otlanganini aytdi. O'tkiz zehni bilan tengdoshlaridan ajralib turuvchi o'n to'rt yoshli Fidor akasining maqsadi bo'lak ekanini anglagan bo'lsa-da, uning gapiga ishonganday bo'lib, qarashib yubordi. Birin-ketin uyg'ongan onasi bilan singlisiga ham Zurab ovga ketayotganini, besh-o'n kun uyda bo'lmasligini ma'lum qildi.

Ov Ilinjida

Zaurning uyi orqasidan tog' tikkasiga ko'tarilib ketgan. Biroz balandlikdagi yalang'och xarsanglar bilan o'rangan yalanglik bahor va kuzda qo'ylar uchun boshpana qo'ra vazifasini o'taydi. Undan sal balandroqda toshlardan tiklangan bostirma bor. Sovuq tushgan mahali qo'ychivonlar shu bostirma ichida jon saqlashadi. Hozir ular suruvarlarini cho'qqilar ortidagi yalangliklarga haydar ketishgan. U tomonlarda o't serob bo'lishidan tashqari qo'ychivonlarni bu yerlardagi issiqlik va chivinlar behalovat qilmaydi. Ovga ketayotganini bahona qilib uyidan chiqqan Zurab so'qmoq orqali shu bostirma tomon yurdi. Ukasi Fidor uni kuzatib keldi. Zurab bu bostirmani bekorga tanlamagan edi. Bundan turib Zaur Tutsatning uyini, hovlisini bemalol kuzatishi mumkin. Ruhoniy otaning uyini ovul bilan bog'lab turuvchi ikki yo'l ham, Nayfatga olib boruvchi so'qmoq ham, yuqoriga, Sagat-Lamardonga qarab ketgan yo'l ham kaftdek ko'rinish turadi.

Zurab bostirmaga joylashib olgach, bu yerdaligini birov bilmasligi shart ekanini ukasiga qayta-qayta tayinladi. Fidor og'zida gap turmaydigan mishqi bolalardan emas, shu bois akasining ta'kidlari malol keldi. Akasi ovga ketgan boshqa gapga o'ren yo'q. Yigit yoshiga yaqinlashib qolgan o'smir uchun bu siri saqlash og'ir masala ekanmi? Fidor akasining niyatini bilmasa-da, yonida qolib xizmatini qilishni xohlaydi. Ammo akasi unga boshqa vazifa topshirdi: har kuni birovga bildirmasdan bu yerga suv va taom keltirib turishi kerak. Akasining yonida qolish uning uchun qiziqarliq bo'lsa-da, yalinishga jur'at etmaydi.

Fidor ketishi bilan Zurab ikki xarsang orasiga joylashib olib, Zaur Tutsat xonadoniga ko'z tikdi. Bir ozdan so'ng ko'za ko'targan Zoliyxon ko'rindi. Qizildonga tushib, soydan suv olib chiqdi. Uning hotirjam yurishi, havotir bilan atrofga alanglamasligi Zurabning diqqatidan chetda qolmadi. Keyin Zaurning muridlari paydo bo'lishdi. Ruhoniy ota ularni kutib olib, ichkari boshladi. Bir oz vaqt o'tgach, kuzatib qo'ydi.

Quyosh mag'ribga bosh qo'ydi. Salqin tushdi. Shom qorong'ulik chodirini yoya boshlagach, Zurab kunduzgi oshyonini tark etib, pastroqqa tushdi. Zaurning darvozasi aniq ko'rinish turadigan joyni tanlab, o'tirdi.

Uning tun bo'yij mijja qoqmay o'tirishi zoye ketdi Zaurning darvozasi atrofida tirik jon ko'rinnadi. Kun yoyilmay turib Fidor suv bilan taom keltirdi. Zurab unga tutsatlarning uyini diqqat bilan kuzatishni, Zoliyxon tashqariga chiqdi deguncha uyg'otib qo'yishni tayinlab, dam olgani cho'zildi. Bu maxsus topshiriqdan mamnun bo'lgan yigitcha akasining joyini egalladi.

Zurab uyg'onganida kun tikkaga kelgan edi. Ukasini jo'natib yuborgach, yana joyini egallab, kuzata boshladi. Kun kutish azobi bilan o'tdi. Zurabni quvontiradigan biron yangilik bo'lindi. Kech kirishi bilan u yana pastroqdag'i joyiga tushdi.

Hali oy ko'tarilgani yo'q. Atrof qorong'u.

Ovul uyquda.

Birdan u sergaklandi.

Zaurning darvozasi sassiz ochilib, ko'chada ayol qorasi ko'rindi. Kecha qorong'uligida ayolning kimligini ajratish mushkul bo'lsa-da, pistirmadagi ziyrak Zurab uning Zoliyxon ekaniga amin edi. Qo'lida tuguncha ko'tarib olgan ayol bir zum to'xtadi-da, nimadandir xavotirlanib, atrofga quloq tutdi. Keyin, xatar yo'qligiga ishonch hosil qilgach, Nayfat tomon tez-tez yurib ketdi. Buni ko'rgan Zurab vaqtini boy bermay o'rnidan turdi-yu, bamisoli yo'lbarsdek chaqqonlik bilan pastga sakradi. Toshlarni panalab, so'qmoq bo'ylab Zoliyxonning izidan tushdi.

"Yarim kechasi Nayfatda unga nima bor ekan?"-deb o'ziga-o'zi savol bergan Zurab qancha o'ylanmasin ma'niliroq javob topa olmadni.

Irmoqqa yetib kelgach, Zurab uchun hech kutilmaganda Zoliyxon chapga burilib, jar yoqalab muqaddas o'rmon tomon yurdi. Bundan hayratda qolgan Zurab o'z ko'zlariga ishonmay bir zum to'xtab qoldi. So'ng pusib, sharpa chiqarmay Zoliyxonning izidan soya kabi ergashdi.

Tbauning tishsimon cho'qqilari tepasiga oy balqib ko'tarildi. Shunda Zurab o'rmon etagida turgan baland bo'yli odam qorasini ko'rди-yu, so'qmoqdan chetga chiqib, o'zini butalar panasiga oldi. O'rmonidan, zulmat qa'ridan chiqib kutib turgan odam qorasini Zoliyxon yaqinlashgach, uni quchog'iga oldi.

Buni ko'rib turgan Zurabning ko'zlaridan olov uchqunlari sachraganday bo'ldi. Qo'llari beixtiyor miltiq sari yugurgiladi. Ikkovini baravariga qulatish maqsadida nishonga oldi. Ammo bu yerning muqadas joy ekani yodiga tushib, bunda qon to'kishdan qo'rqi.

"Baribir u Kerimning xotini bo'ladi!-deb o'yladi u.-Bu odamni esa arzimas xas kabi yo'ldan supurib tashlayman!"

U Zoliyxonning notanish odamga tuguncha uzyatganin aniq ko'rdi. Notanish odam uni quchib, o'rmon ichkarisiga olib kirmoqchi bo'ldi. Shunda Zoliyxon o'zini chetga olishga urindi. Notanish odamning yolborishini rad etib, uyg'a tezroq qaytishi zarurligini, avvalgi safar qo'shnisining sezib qolganidan xavotirda ekanini aytib, yalinganlarini Zurab eshitdi. Zoliyxon boshqa gaplardan so'z ochmadi. O'rmon ichkarisiga kirish iltimosi rad etilgan yigit endi qizni bag'riga bosib erkalyay boshladi. Zurab esa Kerimning bo'lajak rafiqasini quchib, bo'sa olayotgan yigitga tashlanib, mayda-mayda qilib tashlashdan o'zini zo'rg'a tiyib turdi. Tutingan ukasining raqibi qonini albatta to'kish fikri uni hozirgi qasosdan ushlab turardi. Qasos olishga uni faqat nomus-or haqqigina emas, balki bu muqaddas o'rmon xudosiga bo'lgan e'tiqodi ham da'vat etayotgan edi.

Sevishganlar bir-birlariga to'ymay, ajralishdi. Noma'lum kishi emanlar ortida g'oyib bo'ldi. Zoliyxon uyiga shoshildi. O'nga tolgan Zurab unga ergashdi. Kerimning yo'liga g'ov bo'lismaga jur'at etgan odamni daf etish uning uchun suv va havoday zarurat kasb etgan edi. Agar o'sha noma'lum kishi ovulda ot o'ynatib yurgan eng dovqur yigit bo'lganida ham paysalga solmay chang solib, kallasini shart uzib tashlagan bo'lardi. Lekin Tbau-uats-Ilaning muqaddas o'rmoniga yashiringan, bu muqaddas o'rmoniga ayolni, yana ruhoni ota qizini chorlab, oyog'osti qilishdan tap tortmagan odamga qanday hujum qilsin? Ko'rgan-bilganlarini shu kechning o'zidayoq Zaurga so'zlab berishni xayol qildi. Nazarida o'rmondag'i shakkokni yo'q qilishda ruhoni ota unga zabardast ittifoqchi bo'la olardi. Bu iblis ko'rinishidagi yigitni jazolash Zurabdan ko'ra unga zarurroq edi.

Zurab o'ylab-o'ylab, Zaurga bu kech emas, erta tongda xabar berishni lozim topdi. U Zoliyxonning havfsirab qolishidan qo'rqi. Agar u hoziroq Zaurning huzuriga kirsa, qiz sezib qolib, sevgilisini ogohlantirib qo'yishga ulgurishi mumkin edi. Shu to'xtamga kelgan Zurab Zaurning qo'rg'oniga qarab yurmay, o'z uyi tomon yo'l oldi. Kufroniya raqibini o'rmonidan aldab chiqarib olish rejasini tuzish fikri uni bir zum ham holi qo'yamadi.

Ziyrak yotgan Fidor akasining sharpasini sezdi-yu, irg'ib o'rnidan turganicha qarshi oldi:

- Ish bitdimi?-deb so'radi u.

- Ha,-dedi Zurab.-O'lja qurshovda turibdi, ertaga ov boshlanadi.

Zurab boshqa gap aytmadni. Fidorga o'ljaning kimligi, ov qay tartibda boshlanishini bilish g'oyat qiziqarli bo'lsa-da, akasidan so'rashga botinmadni.

Mahbusa

Ertalab Zaur hovliga chiqqanda Zurab unga yaqinlashib, zarur gapi borligini ma'lum qildi. Zaur unga norozi qiyofada boqdi. Yigit qarashidagi qat'iyatni ko'rib, uni noiloj uyga boshladi. Tashqariga chiqish umidida kelayotgan Zoliyxon Zurabni ko'rди-yu, ostonada taqqa to'xtab, unga xavotir bilan boqdi. Zurab unga qarab, ko'zlaridagi qo'rquvni ko'rib quvondi. Barmog'in labiga bosib, "hech nima aytmayman, ont ichaman", degan ishora qildi. Bu onda qizni hurkitib yubormaslik uchun u har qanday yolg'oni ishlatib, ont ichishga tayyor edi.

Xonaga kirishlari bilan Zurab eshikni zichlab yopdi-da, tashqarida qiz qulqoq tutib turgandir, degan havotirda past ovozda gap boshladi:

- Zaur, men senga xunuk bir haqiqatni aytishim kerak.

- Aytadiganingni aytaver, mujmallik qilma.

- Muqaddas o'rmonda Zoliyxonning o'ynashi yashirinib yotibdi. Qizing kechasi uning yoniga borib turadi.

Qariyb pichirlab aytilgan bu gaplar ruhoni otaning nazarida momaguldirakdek jaranglab, olamga jar solganday bo'ldi. Zurab buni "xunuk haqiqat" deb atagan edi. Aslida "dahshatli" deb sifat bergani durust edi. Zurab bunday deya olmasdi. Haqiqatning bu darajada dahshatlari ekanini faqat otagina his qilishi mumkin. Bu gap g'irt tuhmat bo'lganda ham otaga osonmas. Agar bu xabar chindan ham haqiqat bo'lsa-chi?!

Zaur avvaliga xuddi gapga tushunmaganday Zurabga hayrat ko'zlarini qadab jim qoldi. Keyin vujudini qamray boshlagan vulqon kuchga to'lib, portladi xanjarini yalang'ochladi-yu, tig'ni Zurabning kekirdagiga tirab hayqirdi:

- Sen, it, qulvachcha! Tutsat qizining pok nomusiga tuhmat qilib, haqoratlashga qanday jur'at etding?!

Kodat bunday hamla bo'lismeni avvaldan hisobga olgani sababli qo'rquvni ham, talvasaga tushmadi ham. O'zini hotirjam tutdi. Hatto kiprik qoqmadni. Nimadan qo'rqsin? U birov larga tuhmat qiluvchi yigitlardan emas. Unda inkor etib bo'lmaydigan dalil bor. Zaur oldida ham, xudo oldida ham uning yuzi yorug'. Aksincha, bu talvasaga tushgan cholning yuzi qora bo'lib turibdi. Agar Zurab xohlasa "it, qulvachcha!" deb haqoratlayotgan bu odamning o'zinigina emas, butun urug'-avlodining or-nomusini yer bilan teng qilib, sharmandalik botqog'iga botirishi mumkin edi. Lekin uning bunday niyati yo'q. Uning maqsadi butunlay bo'lakcha.

Zurab tim qora ko'zlarini qariyaga tikdi, mijja ham qoqmay burgutqarash qildi:

- Tbau-uats-Ila nomi va uning qasosi haqqi qasam ichaman: aytganlarimning hammasi rost! Kecha tunda men ularni o'z ko'zim bilan ko'rib, faqat o'zinggagina ma'lum qilib qo'yay, deb keldim huzuringga. Tutsatlar sha'niga isnod tushishiga yo'l qo'yemaslikni men er yigitlik burchim, deb bilaman.

Zurabning qasami va "faqat o'zinggagina" deb ta'kidlashi Zaurga ta'sir qilib, xanjarini tushirdi. Endi u vulqon otashida yonayotgan

odam emas, olovda kuyib kul bo'lgan bechora ota holatida edi.

- Huzurimga kelib to'g'ri qilibsan,-dedi u titroq ovozda,- gapir...

Shu topda Zaurning ko'zi deraza tomonga tushdi. Deraza ortida soya harakatini ko'rdi-yu, yoshiga yarashmagan chaqqonlik bilan bir sakrab, eshik yonida paydo bo'ldi. Eshikni shasht bilan ochdi ostonada turgan Zoliyxon o'zini panaga olishga ham ulgurmadi.

- Bu yoqqa kir!-otaning so'zlarini bo'g'iq momaguldirak kabi eshitildi.-Zurabning gaplari o'zing ham eshit!

- Dadajon,-deb yolbordi ostona hatlashga hadiksiragan qiz,- uning hamma gaplari yolg'on. Kerim To'tarayevga tegmayman, deganim uchun alamini olyapti.

Zaur qizining yolborishiga qulq solmadi:

- Agar yolg'on so'zlayotgan bo'lsa, bu xonadan tirik chiqmaydi. Qani, kir!

Qo'rquv sirtmog'i bo'yning tashlangan qiz otasining amriga bo'y sunishga majbur edi. Zoliyxon ichkari kirgach, Zaur eshikni zinchlab berkitib, qulfladi-da, kalitni cho'ntagiga soldi. So'ng xansiraganicha yurib borib, deraza poyidagi kursiga o'tirdi.

Zurab bilan Zoliyxon tik turganlaricha undan sado kutishdi.

Zaur bu topda xudosining g'azabini qo'zg'otishga sabab bo'luvchi qanday gunoh ish qilib qo'yanini o'ylab topishga urinardi. Islomni ham, nasaroni ham inkor etgan adashgan qavm o'ylab topgan xudo emas, Yaratgan jazo yuborayotganini uning noqis aqli tushunib yetmasdi. Ajodolariga Tangri ajib ne'mat berib edi yuz o'girdilar. Agar asrlar muqaddam hidoyatni tanlaganlarida edi, hayo libosida ulg'aygan qizlar nomusning qadriga yetgan holda ulg'ayar edilar. Zaur kabi otalar begona yigitdan mash'um xabarni eshitib boshlarini egmas edilar.

Devorlardagi oltin suvi yuritilgan tasvirlar moychiroqning lipillaryotgan nurida jilo tarqatadi. Ammo bu jilo xonadagilarning birontasiga ta'sir qilmaydi. Uch odam uch olam, har biri o'z tashvishi bilan band. Nihoyat, ruhoniy ota tilga kirdi:

- Zurab, Tbau-uats-Ilaning nigohi senga qadalib turibdi, faqat to'g'risini so'zla!

- Men faqatgina haq gapni aytaman, Zaur!-dedi Zurab dadillik bilan. So'ng gapidan adashmay, hammasini bir boshdan boshladi: avval Kerimning Zoliyxonga bo'lgan muhabbatidan xabar topganini ma'lum qildi, keyin tutingan ukasining iltimosi bilan qizga sovchi yuborish borasida murojaat qilgani va qizning o'ylab ham o'tirmay rad javobi bergenini, do'sti bundan iztirob chekavergach, Zaurga fol ochirganini, fol Kerimning ismini oshkor etgach, qizning harakatini kuzata boshlaganini, nihoyat yarim kechasi qayerdandir qaytayotgan Zoliyxonni uchratganini aytib berdi. U qasamiga sodiq qolib, gapiga yolg'on aralashfirmasa-da, ishga Qo'rg'okning aralashganini yashirdi. Biroq tepadagi qoyalar panasida qanday poyloqchilik qilganini, qizning bu kech eshik og'zida paydo bo'lganini aniq bayon qildi. Zoliyxonning izidan pusib borgani, muqaddas o'rmondan noma'lum erkakning chiqib kelishi, qizning unga tuguncha uzatishini aytgach, bir zum sukut saqladi. Go'yo voqeanean davomini aytishga andisha qilgandek tuyuldi. Bu sukut chog'ida Zoliyxonning yuragi qo'rquvdan yorilib ketayozdi. Andisha degan fazilatga begona Zurabga aslida aynan shu kerak edi. Qizning qo'rquv og'ushida titray boshlaganidan mammun bo'lgan Zurab endi uning yigit quchog'iga kirgani, erkalash va o'pichlardan mast bo'lganini batafsil tasvirlab berdi. U tasvir o'qlarining ota va qiz qalbini poralayotganini sezib turar va bundan lazzat olardi. Zurab shakkokni otishga ahd qilgani ammo muqaddas joyga qon to'kib gunohkor bo'lishdan qo'rqqanini aytgach, nafas rostladi.

Zoliyxon Zurabning hikoyasini o'lim to'riga chirmashib qolgan qush hadigi bilan tingladi. Qadamjoda gunohga botgani uchun Tbau-uats-Ila jazo berish maqsadida go'yo boshi uzra o'lim bulutlarini to'playotganday edi. Kutilmagan bu baxtsizlik uni shu darajada larzaga soldi-ki, u hatto tayinli javob qaytarishga ham qodir bo'lmay qoldi. Zoliyxon jazodan qo'rqtyapti, o'lim oldida chorasis qiz talvasaga tushdi, deyilsa uning sha'niga isnod bo'lар. Tog'ning qaysi mag'rur qizi o'limdan qo'rqbcdiki, Zoliyxon talvasaga tushsa? Bu onda Zoliyxon o'zi haqida o'ylamasdi. Uning butun fikru xayoli Urusxonda edi. Ular notanish kishining kimligi bilan qiziqadilar, ammo tirk ekan, lablaridan bu nom uchmaydi! Qani edi, qanot chiqarsa-yu, sevgilisi yoniga uchib borib, uni xatardan ogoh qila olsa!

Zurabning xotirjam ohangdagi hikoyasi Zaurning qalbiga olovli qo'rg'oshin bo'lib quyilib borib, ko'kragini kuydirdi. Kimdir ketma ket boshiga og'ir gurzi bilan uraverqanday bo'lib, oxiri gangib ham qoldi. Xonaga jimmilik cho'kkach, u xayolini jamlashga urindi.

Zurab kirib kelib, gap boshlaganida uni nohaq haqoratlaganini angladi. Ammo uzr so'ramadi. Chunki Tutsatlar hech qachon kodatlar oldida past ketib, uzr so'rashmagan. Zaurning g'azab o'qlari endi qizi tomon otilishi kutilayotgan edi. Chindan ham Zaur bu on qizini bo'g'ib o'ldirishga ham tayyor edi. Ammo o'zini bosdi. Ichki olovni tashiga chiqarmadi. Bosiq ovozda qizidan so'radi:

- Shu gaplar rostmi?

Qiz yuzini kaftlari bilan to'sdi, ammo javob qaytarmadi. Zaur o'sha sovuq ohangda savolini takrorladi:

- Zoliyxon, shu gaplar rostmi?

Savolni xonadagi o'lik sukunat yutdi. Moychiroq atrofidagi xira pashshaning g'ing'illashiga uchchovlari ham e'tibor berishmadi.

Sukunatni yana Zaurning ovozi poraladi:

- Tbau-uats-Ilaning qasosi haqqi, aytigan gaplarning barchasi rost ekan!-dedi u iztirob bilan. Keyin qiziga o'girilib so'radi:

- Uning kimligini ayt!

Zoliyxon tilini tishladi.

- Otangga javob berasanmi yo yo'qmi!- u shunday deb qizining bilagini bor kuchi bilan siqdi.-Kim u, ayt, sharmanda!

- Ota, meni o'ldirishing mumkin, lekin men uning kimligini aytmayman!

- Aytasan! Men seni gapirishga majbur qilaman.

Zoliyxon qat'iylik bilan bosh chayqadi:

- Majbur qila olmaysan, ota. Tutsatlar orasidan shu paytgacha sotqin chiqmagan.

Bu gapni eshitgan Zaur qizining qo'lini beixtiyor qo'yib yubordi: "Qizim haq! Tutsatlar hech qachon sotqinlik qilishmagan!.."

- U bilan qayerda topishding?-deb so'radi Zaur savolni boshqa tomonga burib.

- Bo'ron turgan tunda qo'noq bo'lib keldi. Bir kecha yotdi,-deb qiz gapni qisqa qildi.

Bu iqror otani qanoatlantirishi mumkin emasdi. Zaur gapning davomini kutdi. Qizi jim turavergach, so'radi:

- Keyin-chi?

- Keyin...-Zoliyxon "aytsammi yo aytmasammi?" deb ikkilanib turdi-da, so'ng dadil gapira boshladi:- o'rmonda yashirinishini aytib, taom keltirib turishimni iltimos qildi.

- Sen... iltimosini qabul qildingmi?

- Darrov rozi bo'lmadim, bu yo'ldan qaytarishga urindim. Lekin u meni mazax qilib, farishta Dzuardan qo'rmasligini aytib, baribir o'sha o'rmonga ketdi.

- Sen-chi?.. Uni sevib qoldingmi?

Otaning bunday savoliga eng behayo qiz ham darrov javob qaytara olmasa kerak. Zoliyxon garchi o'zini Urusxonga baxsh etib qo'yan bo'lsa-da, hayo chegarasidan butkul chiqib ulgurmagan edi. Shu bois savolni yana sukunat yutdi.

- Senlar...

Zaur "qo'shildilaringmi?" deb so'ramoqchi edi. Ammo tili bu gapga aylanmadı. Bu dahshatli savol berilmagan bo'lsa-da, Zoliyxon otasining muddaosini anglab, jim turaverdi.

Zaur qovog'ini uygancha jim qoldi. So'ng devordagi eng katta tasvir tomon yuzlandi-da, amr etdi:

- Yonimga kelib, tiz cho'kinglar!

Zurab ham, Zoliyxon ham unga so'zsiz itoat etishib, muqaddas hisoblangan tasvir qarshisida tiz cho'kdilar.

Zuar qo'llarini ikki tomon yoyganicha tasvir tomon yo'naltirib sig'ina boshladi:

- Tbau-uats-Ila! Sen momaqaldiriq va yashin hukmroni, rizq-nasibani mo'l qiladigan yomg'irlar yog'diruvchi vodiylar homiysisan!

Mening ajdodlarim asrlar osha senga toat-ibodatda bo'lib, e'tiqod bilan xizmat qilib keldi. Men ham bir qiling sifatida xizmatingdamen. Ammo hozir sen sharmandalik tufayli abgor bo'ilgan bandangni ko'rib turibsan. O'zimning qizim mening ornomusimni bulg'adi, boshimni isnod balchig'iga botirdi. Lekin bu boshimga yog'ilgan balolarning hammasi emas. Oh, Tbau-uats-Ila! Tog'larimiz panohi farishta Dzuar! Bir badkirdorning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan shakkokligi tufayli men sizlarning bandai xizmatkoringiz gunohga botib, qahringizga uchrab turibman. Men muqaddas o'rmonni himoya qila olmadim. Xotin kishining oyog'i ziyyoratgohni bulg'adi. Qadam bosishga mutlaq haqqi bo'lмаган куфрони о'rmoningga kirishga jur'at etibdi. Bu gunohimiz uchun bizlardan g'azablanma, Tbau-uats-Ila. Tavbalarimizni qabul et, Tbau-uats-Ila! Bizni ayovsiz jazoingga mubtalbo etma! Senga sig'inib, iltijo etaman: o'zinggagina sodiq xizmatkoringni emas, oilalarimizni, molu-holimizni emas, vodiy ahlini ham emas, faqat va faqat aybdorlarning o'zlarini jazola, g'azabingni ulargagina soch! Bu xudosiz ko'rnamakka, senga qarshi chiqishga botingan shakkokka rahm etma, jazola uni! Yana... yana... o'z ota-onasining nomusini, urf-odatini unutgan, aziz-avliyolar rad etsa hamki, u badkirdor bilan ahdu paymon qilgan qizga ham jazo ber! Ha, jazo ber unga! Endi boshimizga qanday kulfatlar yog'iladi, Tbau-uats-Ila? Endi nima bo'ladi? Meni va inilarimni gunohlarni yuvish yo'liga yo'lla! Jinoyatchini mahv etib, qadamjoni poklashimizni nasib et! Vodiy ahlini g'amdan forig' qil!

Duo paytida Zaur bir necha marotaba peshonasini sajdaga qo'ydi. Ibodatni tugallab, qaddini ko'targanida uning chehrasida mahzun qat'iylik zohir edi.

- Zurab!-dedi u siniq ovozda.

- Xizmatingga shayman, Zaur!

- Bugun sen Tbau-uats-Ilaning ruhoni xizmatkorlarigina biladigan bir sirdan voqif bo'lasan.

- Eshityapman, Zaur.

- Sen hozir "bu sirmi hech kimga, hech qachon aytmayman", deb qasam ichishing kerak.

- Qasamyod etaman, Zaur!

- Tbau-uats-Ilaning qasosi haqqi qasam ich!

- Tbau-uats-Ilaning nomi bilan qasamyod etaman!

- Yaxshi, endi deraza oldiga borib tur, yana bu beor qiz qochib ketmasin.

Zurab buyruqqa so'zsiz itoat etdi: huiddi kutilmagan hujumga shaylanganday xanjarining sopini ushlab turdi.

Zaur qalin taxtadan ishlangan og'ir so'rini surdi. Polning bir yerini bosgan edi, ikki enli taxta o'z-o'zidan ko'tarildi. Zulmat o'raga olib tushuvchi zina ko'rindi. U o'zini bir qadam chetga oldi-da, barmog'i bilan o'rani ko'rsatib, qiziga: "Pastga tush!" deb buyurdi. Zoliyxon o'raga qo'rquv ko'zi bilan qarab olib, otasiga iltijo bilan:

- Ota, sen bunday qila olmaysan,-dedi.

- O'z ixtiyorning bilan tushasanmi, yo oyoq-qo'lingdan ko'tarib tashlab yuboraylikmi?-dedi Zaur, qiziga qaramaslikka tirishib. Qo'rquv dahshat iskanjasidagi qiz tiz cho'kib, otasining cherkascha uzun kamzuli etagini yuzlariga surtdi-da, kutilmaganda o'krab yig'lab yubordi. Tashqarida turib bu o'kirikni eshitgan kishiga "shirali ovoz sohibasi yig'layapti", deyilsa ishonmay, "biron bir hayvonni bo'g'izlashayotgandir" deyishi aniq edi.

- Ota, ota! Rahming kelsin, bechora qizingni kechir!

Bechora qiz... Qani edi, bechora qiz bo'lsa... Zaur o'ylab ham o'tirmay kechirardi. Ammo yolborayotgan bu qiz bechora emas, u - benomus... nomussizni esa kechirish mumkin emas...

Zaur etagini siltab tortib, qizining changalidan chiqardi:

- Baqirma, esi yo'q!-qahr bilan shunday deb bir oz jim bo'ldi. So'ng ancha bosiq, hatto bir oz muloyim ohangga ko'chdi:-Zoliyxon, men seni bu yerdan tezda chiqaraman... Qo'rhma, men senga o'limni ravo ko'rmayman. Men Tbau-uats-Ilaning qaroriga qarshi borolmayman: sen Kerimning xotini bo'lushing kerak! Sen shu yerda jon saqlaysan. Badkirdorga xabar yetkazib, ogohlantirishingga yo'l qo'ymayman. Qani, tush pastga!

Qaltrab o'tirgan Zoliyxon qaddini ko'tarib, otasining amriga bo'yisindi. Zaur moychiroqni ko'tarib uning izidan yurdi. Qoya toshlarini o'yib xona shakliga keltirilgan to'laning u yer-bu yerida turli hajmdagi qutilar betartib yotar edi. Qizidan keyin pastga tushgan Zaur qutilardan birini chetga surib, qopqoqni ko'targach, qorong'u yerto'la ko'rindi. Xona burchagida titraganicha dahshat va savol nazari bilan qarab turgan qiziga Zaur moychiroqni uzatdi-da:

- Pastga tush!-deb buyurdi.

Zoliyxon bu safar talvasaga ham tushmadi, otasiga yolvormadi ham. Otasi huiddi arzimagan ishni buyurgandek itoat etib, moychiroqni oldi-da, narvon povasiga oyoq qo'ydi. Narvonning o'n ikki povasini bosib pastga tushgach, tepadagi qopqoq yopildi, qulfining "shirq" etgani ham eshitildi. Zoliyxon yerto'la deb o'ylagan joy anchagina keng g'or edi. Moychiroqning ojiz nuri g'orning hamma yerini yorita olmasdi. Tosh devorlar tomonga emandan ishlangan og'ir o'rindiqlar qo'yilgan. O'z dardiga bandi Zoliyxon buncha o'rindiqlarning vazifasi nimadan iborat ekanini o'ylab ham ko'rmadi. Qo'lidagi moychiroqni toshdevor tokchasiga qo'ydi. Bir oz harakatsiz turgach, o'rindiqla omonat o'tirdi. Boshiga yopirilgan balo bulutining qay holda paydo bo'lganining sababini o'ylay boshladi. O'ylay-o'ylay "Tbau-uats-Ila! Qahring shunchalar qattiqmi? Bilib turibman... menin shakkokligim uchun bu jazoing ham kam", degan fikrga keldi. Chorasizlik zanjiriga bandi qilingan qiz nimqorong'ulik bag'ridan najot kutganday qo'llarini baland ko'tardi-da:

- Mening pahlavonim! Mening Urusxonim!-deb pichirladi. Keyin birdaniga dahshat bilan chinqirib yubordi-da, hushidan ketib yiqlidi.

Bu onda Zaur tepaga ko'tarilib, to'la qopqog'ini yopib, so'rini joyiga surib qo'ydi.

- Endi sen bu to'laning sirini bilasan. Notiinch kunlarda jon saqlash uchun bobokalonlarim qoyani o'yib o'zlariga boshpana qilishgan ekan,-dedi Zurabga qarab.

- Men bu sirni o'zim bilan qabrga olib ketaman,-dedi hanuz derazani pana qilib turgan Zurab.

- Bunga shubham yo'q, Zurab. Lekin yana bir sirni saqlashga ont ichishing kerak. Zoliyxonning ...-Zaur "benomusligini" demoqchi edi, ammo bu so'zga tili aylanmadı. Qiynalib bo'lса-da, o'zgacharoq tarzda bayon qildi: - qilig'ini birov bilmasligi kerak.

Zaur Zurabdan yigit so'zini olishga ishongan edi. Ammo ishonchi puch bo'lib chiqdi. Zurab u tomon yaqinlashdi-da, ko'zlariga tik qarab dedi:

- Ont icholmayman, Zaur. Kerim To'tarayevdan mening yashiradigan sirim yo'q. Buni unga aytishga majburman.

Zaur yigitning ko'zlaridagi qat'iylikni ko'rib, boshini egdi.

- Sen haqsan,-deb chuqar xo'rsindi. Keyin unga iltijo bilan boqdi:-Faqat boshqalarga ayta ko'rma... sendan o'tinib so'rayman, ayniqsa bu ovuldagilar bilishmasin.

- Albatta shunday bo'ladi. Men do'stimning xotini nomusiga gard yuqishini istamayman. Sen u ablaxni nima qilmoqchisan, o'ylab ko'rdingmi?

- Unga Tbau-uats-Ilaning o'zi jazo beradi!

- Shunday deb kutib o'tirmoqchimisan? Yo'q! Uni qo'lga tushirish kerak!

- Qo'lga tushirish kerak, deysanmi? Qachon? Qanday qilib? Bir haftadan keyin oy to'lishadi. Biz shundan keyingina o'tin terish uchun o'rmonga kira olamiz. Unga qadar hatto mening ham o'rmonga kirishga haqqim yo'q. Kirgan taqdirimizda ham qadamjoda olishish mumkin emas. O'ylab ko'r: birdan bir chora uni aldab, o'rmondan chiqishiga majbur qilishimiz kerak. Ammo ehtiyyot shart! U makkoring o'rmondan chiqib qochib qolishga urinishi aniq.

- Qayoqqa qochadi? U shakkok hali siri oshkor bo'lganini bilmaydi-ku? Zoliyxon uning oldiga kun ora qatnardi. Demak, ertaga kechqurun qizingizni kutadi.

- Bu gaping ham to'g'ri. Men ukalarimni huzurimga chorlay. Sen ularga rejangni aytasan.

- Zoliyxon haqidagi sirni oshkor qilmay turaymi?

- Qarindoshlarimdan yashiradigan sirim yo'q. Ular bor haqiqatni bilishlari shart. Sen hoziroq bu yerdan chiqqinu Tambi bilan ularning o'g'illarini chaqir. Keyin Inaldko, Motsko va Xsinlarni top. "Muhim ish bor", deb tayinla. Hammalar darhol yetib kelishsin. O'zing yo'lida u-bu ishga aralashib qolib ketma, birga kel.

Zurab buyurilgan vazifani bajarish uchun tashqariga chiqqach, Zaur ichkari uyg'a kirib "Zoliyxonni shoshqich bir ish bilan Dargovga yuborganini" xotiniga ma'lum qilib qo'ydi.

Qurshov

Martaba jihatidan ikkinchi darajada hisoblanuvchi ruhoniylar Zauring qarindoshlari birin-sirin to'planishdi. Ular Zauring tashvishli chehrasiga qarab boshiga mushkulot tushganini sezishsa-da, sababni so'rashdan o'zlarini tiyishdi. Taomili shunaqa kattalar lozim bo'lgan gaplarni aytishadi, zarurati bo'lmasa sir sirligicha qolaveradi. Tug'ishgan ukasi - Tambi birinchi bo'lib xonaga kirgan bo'lса-da, amakivachchalarining kelishlarini tik turgan holda kutdi. Yurt qonuniga ko'ra, amakivachchalarini Zaur "uka" deb atab, shunga yarasha ularga lutf ko'rsatardi. Barcha jamul-jam bo'lgach, kattalar Zauring taklifiga ko'ra o'rindiqlarga o'tirdilar. Zurab yosh tutsatlar bilan bir qatorda devor tomonda tik turardi. Hammalarining qo'llari xanjar dastasida go'yo jangovor holatda kattalarning amrini ado etishga shay edilar.

Zaur muddaoga o'tishdan avval bobo kalonlarining asrlar osha farishta Dzuarga sodiq xizmatda bo'lganlarini eslatdi. O'zlarining ajdodlari vasiyatiga sodiq ravishda xizmat qilayotganlarini ham alohida ta'kidlagach, qarindoshlarni shoshqich tarzda chorlashi sababini ma'lum qildi. Muqaddas o'rmonda kufroni hodisa sodir bo'lganini, endi munkirga qarshi chora ko'rmoq uchun birgalikda reja ishlab chiqmoqliklari zarurligini bildirdi. Zurab Zauring iltimosi bilan hikoyasini boshlagach, bu yangilikdan hayratlangan qarindoshlar faqat bir ozgina jim o'tirdilar. Keyin Zurabning gapi o'tirganlarning g'azabli xitoblari va luqmalari bilan bo'linib turdi. Zurab aytadiganlarini bayon qilgach, xona bir necha nafas sukonat ixtiyorida qoldi. So'ng Tambi Tutsat vazminlik bilan oyoqqa qalqdi-da, eshitganlardan qattiq tashvishga tushganini, bunday badkirdorlikning yuz berishi yetti uxbab bir tushiga kirmaganini gapirdi.

- Nasl-nasabimizga ko'z ko'rib, qulq eshitmagan sharmandalik dahshat solib turibdi. Agar Xudo zehnimizni ohib, bu xodisani yashirish yo'llarini bizlarga o'rgatmasa, bu yorug' olamda bosh ko'tarib yurishimiz mumkin bo'lmay qoladi. Hech kim,-shunday deb u qator turgan yoshlarga qarab oldi,-bu haqda og'iz ochmasligi shart. Hatto uydagi xotinlar ham sezmaligi zarur,-endi u Zaurga qaradi. Zaur bu qarashning ma'nosini uqdi:

- Uyimdagilar bilishmaydi. Qizimni yashirin yerto'laga qamab qo'yanman, badkirdorga xabar yetkaza olmaydi.

- To'g'ri ish qilbsan, Zaur,-deb davom etdi Tambi.-Hozirgi vaziyatda oilamizning sharmandali holatiga chora topishdan ham muhimroq vazifa bor: Tbau-uats-Ila xizmatida bo'lgan biz ruhoniylarning qaroriga vodiying farovonligigina emas, taqdiri ham bog'liqligini unutmasligimiz shart.

- Buning naqadar qabih jinoyat ekanini tasavvurimga sig'dira olmayapman,-dedi Inaldko.-Hammamizni ham xudo urmasaydi, deb qo'rqaman. Axir dunyo yaralganidan beri to shu kunga qadar muqaddas o'rmonimizga xotin zotining qadami yaqin yo'lamagan edi-ya! To'g'ri, ayrim erkaklar orasidan chiqqan shakkoklar qadamjoni oyog'osti qilganlar. Lekin farishta Dzuar ularni o'sha zahotiyoyq ayovsiz jazolagan. Kufrdan qo'rwmagan bu badkirdorning hali ham muqaddas o'rmonda yashashi-yu, hali ham jazosini olmagani boshimizga yog'iladigan balolarga ishora emasmikan? Uning bir o'zinigina jazolash Tbau-uats-IIaga kamlik qilayotgan bo'lса-chi? Balki bizlarni ham gunohkor jinoyatchi qatorida ko'rayotgandir? Akalar, sizlar donosizlar, aytinlar, qanday qilsak gunohimizni yuvamiz, qaysi yaxshi ishlarimiz evaziga xudoning qahridan qutula olamiz?

Inaldko o'tirganlarning barchasiga murojaat qilgan bo'lsa ham, javobni Zaurdan kutdilar.

- Biz o'sha munkirni qo'lga olib, qadamjoni yana oyog'osti qilinishiga bundan buyon yo'l qo'ymasligimiz kerak,-dedi Zaur o'ychan tarzda.

- Men ham shuni o'layotgan edim,-dedi Tambi.-Lekin o'rmonga kirmay turib uni qo'lga ololmaymiz-ku? O'rmonga kirish uchun bir hafta kutamizmi?

- Biz uni aldab chiqaramiz o'rmondan,-dedi Inaldko.

- Chiqmasa-chi?-deb so'radi Zaur.

- Unda birgina choramiz bor: o'rmonni qurshab olamiz-u, ochlikdan sillasini quritamiz. Qani, chiqmay ko'rsin-chi!-dedi Tambi.
- Menga ham shu chora ma'qul tuyulyapti,-dedi Zaur past ovozda.-Qadamjoni o'rab olish uchun aholini jalb qilishimiz kerak. Bu gapdan Tambi ham, boshqalar ham ajablanishdi. Tambi masalani oydinlashtirish uchun akasiga murojaat qildi:
- Zoliyxon voqeasini-chi? Ularga aytmassan, a?
- Albatta aytmayman. Zoliyxonning u mal'un bilan hech qanday aloqasi yo'q. U kadkaronlik Kerim To'tarayevga turmushga chiqadi. Kerim qizimni sevadi. Tbau-uats-Ila Zoliyxonni unga taqdir qildi. Qalin puli arzimagan darajaga tushib qolsa ham, ulardan to'g'ri gapni yashira olmaymiz.
- Bundan boshqa choramiz ham yo'q,-dedi Tambi.-Bunaqa mashmashalardan keyin...
- Tambi gapining davomini aytmasa ham tushunarli bo'ldi. Boshqalar ham tagdor qilib: "Ha... bu mashmashadan keyin...", deb qo'yishdi.
- Mashmasha o'z yo'li bilan,-dedi Matsko,-lekin u odam kim, oti nima ekan?
- Kimligi noma'lum,-dedi Inaldko,-hukumat ta'qibidagi abrekdir yoki qasoskorlardan yashirinib yurgan biron nomarddir.
- Hukumat ta'qib etib yurganlardanmi?-kenja o'g'il Xsin bu savolni o'taga tashlab, o'zicha javob izladi:- Ehtimol qo'rinchli mashhur Urusxon bo'lsa-chi?-Bu savolni berib, akalariga bir-bir qarab qo'ydi. Uning bu gumoniga hech kim ahamiyat bermagach, gapini davom qildi:-Agar rostdanam Urusxon bo'lsa, ovimiz rosa baroridan kelardi-da! Uning boshi uchun oz emas, ko'p emas naq besh ming rubl va'da qilingan-a! Bu pullarni qo'lga kiritsak, kam-ko'stimiz to'lib qolardi.
- Xomtama bo'lma,-dedi Tambi unga qarab.-Gapingdan hech nimani bilmaydigan go'dakka o'xshaysan. Bu hukumat odamlarni laqillatishdan boshqa narsani bilmaydi. Esinglardami, Dog'istondagi Baboning boshi uchun ham hazilakam pul va'da qilinmovdi. Uni tutib, o'ldirgan cho'ponga sariq chaqa ham berishmadni. Agar o'sha shakkok Urusxon bo'lgan taqdirda ham biz uni hukumatning puli uchun emas, xudoning roziligi uchun o'ldiramiz. Shuni unutmaslik kerak!
- Hukumatning va'dasini hozircha qo'ya turinglar,-deb ularni tinchlantirdi Zaur.-Hozirgi asosiy masala bu tashvishlardan bayramgacha qutulib olish chorasini topish.

Yig'in ahli kengasha-kengasha oxiri bir qarorga keldi. Qarorga ko'ra, ular har bir daradagi ovulga borib, jinoyatchi qo'lga olinmagunicha har yigirma to'rt soatda o'rinalarini almashtirib turish sharti bilan yigirma beshtadan odam talab qiladigan bo'lischdi. Ovullarga borganda nima deb da'vat qilish lozimligini Zaur ukalariga bir boshdan tushuntirdi. Zaurning talabiga ko'ra, ular shunchaki yordam so'ramay, balki shu dara xudosining vakili sifatida borishlari va qadamjonig oyog'osti qilinganiga befarq qaraganlari uchun gunohkor bo'lganlarini anglatishlari hamda xudoning g'azabidan qo'rqishga chaqirishlari zarur edi. Yana aytishlari joiz edikim, Tbau-uats-Ila o'zining sodiq quli Zaurga namoyon bo'lib, notanish kimsani shakkoklikda aybladi va bandalarini qadamjoni poklashga undadi. Shunda Zaur bilan Zurab kufroni yodamning payiga tushib, o'rmon etagida uni poylaydilar.

Vazifa aniq bo'lgach, Tambi notanish yodamning ko'rinishi qandayligi bilan qiziqib, Zurabga murojaat etdi.

- Baland bo'yli, yelkalari keng odam edi, ammo qorong'ida yuzini aniq ko'rolmadim,-dedi Zurab.
- Ana, men aytganim rostga o'xshayapti,-dedi Xsin jonlaib.-Urusxonni ham baland bo'yli, kelishgan, baquvvat, deyishadi.
- Balki shundaydir...-dedi Zaur o'ychan tarzda, keyin ukalariga bir-bir qarab chiqdi:-ovullarga borganlaringga buni ham aytinlar. Shakkokning yaxshigina o'lja ekanini Tbau-uats-Ila ma'lum qildi, denglar. Shuning uchun hech kim cho'chimasin. Xudo kufroniyni jazolaydi, unga hujum qilishga jur'at etgan mardni esa, dunyoviy ne'matlar bilan mukofotlaydi. Shunday desanglar ularning oyoqqa qalqishlari osonroq bo'ladi. Endi beto'xtov ravishda yo'lga otlaninglar. Bugun qosh qoraygunicha muqaddas o'rmonimiz bir yuz ellik nafar qurollangan botirlar bilan o'rab olinishi shart.

Yig'ilganlar tarqalishga shaylanishganda Zaur yana bir marta ularga, ayniqsa, Zurabga Zoliyxonga taaluqli masalalarda og'iz ochmasliklarini uqtirdi. Shundan so'ng hammalari hovliga shoshildilar, otlariga minib, belgilangan ovullar sari yo'l oldilar.

Peshindan so'ng butun vodiyya jonlanish sezildi. Sagat lamardonliklar uylarining yassi tomlariga chiqib olib har tomonidan oqib kelayotgan oqliqlarni qiziqish va bir oz tashvish bilan kuzatdilar. Yengsiz bosma chakmonlariga o'ranib olgan chavandozlar tog' so'qmoqlarida avval nuqta kabi ko'zga tashlanib, so'ng aniq ravshan ko'rinaridilar.

Qadamjoda shakkokning paydo bo'lgani haqidagi xabar ayniqsa, tsagat lamardonliklarni junbushga keltirdi. Barcha diniy mrosimlar shu ovul yaqinida o'tkazilgani uchunmi ular mutaassiblikda boshqalardan ajralib turardilar. Ular ruhoniylarning deyarli barcha gaplariga ishonadilar, chizgan chiziqlaridan chiqmaydilarkim, bu sohada qolganlarga o'rnakdirlar.

Bunday bo'lishi bejiz emas, o'ziga yarasha sabablari ham bor. Shulardan biri bayram kunlari ovul yaxshigina daromad oladi. Ziyoratga keluvchi xudojo'ylarning aksari aynan shu ovulga joylashadilar. Mehmondan haq olish odatga xilof bo'lsa hamki, ziyoratchilar mezbonlarga "esdalik uchun sovg'alar" yoki "xudoyi"lar berib ketishadi. Bundan tashqari ziyoratchilar xudo uchun so'yiladigan qora qo'zichoqlarni g'oyat qimmat narxlarda sotib oladilar. Ibotat maqsadida ziyoratgohga kelgan hech bir osetin Tbau-uats-Ila bayramida so'yilajak qo'zichoqni sotib olish chog'ida savdolashib o'tirmaydi. U mana shu qurbanlik evaziga ibodati xudoga ma'qul kelishiga va buning oqibatida xo'jaligiga farovonlik oqib kirib, xarajatlarining qoplanib ketishiga ishonadi.

Uyi oldidagi maydonchada viqor bilan turgan Zaur o'rmonni qurshab, shakkokka jazo berish qasida kelayotgan mard o'g'lolnarni duolar bilan qarshi olardi. Ilohiy burchini ado etish uchun yetib kelgan chavandoz otdan sakrab tushgani hamon, ovulning o'smirlari egarni yechib olib, tayinli joyga qo'ygach, jonivorlarni o'tloqqa haydardilar.

Ruhoni ota o'g'lolnarni ikki guruuga ajratdi. Yetmish besh kishidan iborat birinchi guruh tog' qoyalarini aylanib o'tib, o'rmonning orqa tomonidan qurshab olishi kerak edi. Qolgan yetmish besh o'g'lonnini Zaurning o'zi tikkasiga Nayfat yo'li bilan boshladi. Yarim yo'lga yetganda u yigitlarni jar yoqalab ketgan so'qmoqqa yo'naltirdi. Quyosh yotog'iga bosh qo'ymay turib, har ikki guruh halqa bo'lib birlashishga ulgurdii. Urusxon har tomonidan qurshab olindi.

Zaur Zurabni halqa bo'ylab yo'llab, o'g'lolnarga o'rmon sari qadam bosmasliklarini, kufroni tashqariga chiqsagina hujum qilishlari mumkinligini qayta eslatdi.

Bugun Zoliyxoning kelishini kutmayotgan Urusxon atrofida nimalar sodir bo'layotganidan mutlaqo bexabar edi. U buloq yaqinidagi maysa ustda yotib, kelgusi hayoti xususidagi shirin orzularga bandi bo'lib yotardi.

O'rmonning ishonchli halqa bilan qurshab olinganiga qanoat hosil qilan Zaur uyiga qaytib, Zoliyxoni yerto'ladan chiqardi. Tashqariga chiqish, bo'lib o'tgan gaplardan birovni ogoh qilishni qat'iy ta'qilagach, o'zi yana o'rmon tomonga qaytdi.

* * *

Tun tog' va vodiyni o'z og'ushiga oldi. Bunday kezlarda kunduzgi ishlardan horigan Sagat Lamardon ahli dam olib yotgan bo'lardi.

Bugun qorong'ulik bostirib kelganini sezmaganday hech kim mijja qoqmadni. Har bir oiladan hech bo'limganda bir yoki ikki odam qo'lida quroq bilan o'rmonni qurshab turgan kezlarda uyda xotirjam yotish mumkin ekanmi? Ovuldagilarning vujudi uyda bo'lgani bilan o'y-xayollar xatar bilan yuzma-yuz turgan yaqinlarida edi. Shakkokning qonini to'kish xudoga ma'qul ish bo'lgani bilan, bu vazifaning osonlik bilan bajarilmasligini, o'rmondan panoh topishga jur'at etgan munkirning xanjari ham kimlarningdir jonini olishi mumkinligini har bir odam anglab turardi.

Bu tahlikali onlarda birgina Urusxongina xotirjam edi. Tamakisini tutatib, chinor ostida shirin xayollar og'ushida yotgan abreki o'rmondan chiqdi deguncha yuzlab merganlarning o'qlariga nishon bo'lajagini xayoliga ham keltirmaydi.

Yosh tutsatlar mard o'g'lolar qatorida qurshov halqasidan joy olishgan. Zaurning ukalari esa xudo yo'lida qurollangan odamlar orasida yurishib, ziyrak bo'lishga da'vat qilishadi.

Ayollar tun qorong'uligida erlarni taom bilan ta'minlab turishadi.

Tun bekorchi kutish bilan o'tdi.

Zog' ham ko'rinnadi.

O'g'lolnarning nigohlari sokin va sirli o'rmon sari qadalgan. Shoxlari tarvaqaylab ketgan chinor va eman daraxtlariga xavotir bilan qarashadi. Butalar orasiga yashiringan azamatlar shakkokning kutilmagan onda paydo bo'lismiga shay turishadi.

Nihoyat quyosh ko'tarildi. Huddi yaqindagina bu yerlarga tun hukmini o'tkazmaganday, hamma yoq charog'on bo'lib ketdi.

Peshin chog'i qurshovdag'i odamlar o'rinxarlariga bo'shatib, dam olgani Zaurning uyiga qaytishdi. Qo'rg'ok bilan Zoliyxon mehmonlar tashvishi bilan band bo'lib qolishdi. Tun bo'yi mijja qoqmay toliqqan bir yuz ellik odamni kutib olish, qornini to'ydirish oson ekanmi! Zoliyxon mezbonlik vazifasini alam va nafrat bilan bajaradi. Sevgilisining jonini olish qasdida tuni bilan shay turgan odamlarga xizmat qilish naqadar og'ir! Uning qo'li ishda, xayoli esa Urusxonda edi. U sevgilisining bu qurshovdan qutlib chiqishiga jonusi dili bilan umid qilar, uning gunohini kechirib, panohiga olishni Tbau-uats-IIadan so'rashga esa botina olmas edi.

Bu xudo kechirish nimaligini bilmaydi, u qo'rqinchli, qasoskor va jazolovchidir. Tbau-uats-Ila haqida bilganlari faqat shu. Esini tanibdi-ki, undan qo'rqish lozimligini uqtirib kelishadi. U g'azablanmasligi uchun ibodat qilishadi, ro'za tutishadi, jazosidan qochish maqsadida uning uchun qurbanliklar qilishadi. Ularning dini shunday, rahm-shafqat, gunohni kechirish, muhabbat tushunchalari bu din uchun yet.

Zaur Tambi bilan maslahatlashib, abreki o'rmondan aldab chiqarish rejasini tuzdi. Rejaga ko'ra, Tambining kichik o'g'li Muldor qizlarning kiyimini kiyishi, oy o'rmon uzra ko'tarilishi bilan Zaurning uyidan tuguncha ko'tarib chiqib, irmoq bo'ylab yurishi kerak. O'rmon etagidan yuz qadamcha beridagi so'qmoqda yiqilib, ingrab ovoz beradi-yu, lat yeganday yotaveradi. Ana shunda abreki qo'nog'ini tashlab chiqishga majbur bo'ladi. Chiqadi-yu, merganlar o'qiga nishon bo'ladi.

Xiyonat

Atrofini o'rab turgan havf-xatardan bexabar Urusxonga kecha qorong'uligining osoyishta sukunati rohat va'da qilganday edi. Kechaning bevafo, osoyishta sukunatning esa aldamchi ekanini u seza olmadi. Rohatli damlarga yetish maqsadida buloq boshidagi maskanini tark etib, irmoqning o'rmon bag'ridan ajralib chiqadigan yeriga borib turdi. Kichik xarsang ustiga o'tirib, yoz tuniga mahliyo bo'ldi: tishsimon cho'qqi tepasi oqarinqiray boshlab, suygan yoriga yetish oni yaqinlashganidan darak berdi. Hademay oy ko'tariladi. Tabiatning bu ishorasini ko'rgan Zoliyxon uyidan chiqadi. Irmoq bo'ylab sassiz yurib kelib, unga taom va tamaki keltiradi.

Oy ko'tarilib, qorong'ulikda ezilayotgan vodiyo go'zalligini ochdi. Urusxon "odam qorasini ko'rinnadimikin, bu tomon qayrilmadimikin?" degan ilinjida vodiyo tomondan ko'z uzmay o'tirdi.

Nihoyat kutgani ro'yo bo'ldi:

"Ana, u!"

Urusxonning yuragi hayajondan tez-tez tepadi.

Irmoq bo'ylab yurib kelayotgan odam qorasini kutilmaganda yiqildi. Urusxon sevgilisining chinqirig'ini eshitib, qulog'ini ding qildi. Endi sevgilisi ojiz ingradi. Miltig'i o'rmon ichkarisida qolganini ham unutib, jar yoqalab ketgan so'qmoq sari yugurdi.

Tbau ustida xotirjam ravishda balqsan to'lin oy nuri makrni oshkor qilmoqchi bo'lganday har bir xarsang, har bir buta qatorida yerda yotgan odamni ham yoritdi.

Yerda yotgan odam qorasini aniq ko'rmasa ham Urusxonning yuragi uning Zoliyxon emasligini sezdi. Garchi yashin tezligida fikrlasa-da, aniq xulosaga kelishga ulgurmay, o'q uzgan miltiq jarangi sukunatni poralab tashladi. Urusxonning qulog'i ostidan o'q hushtak chalib o'tdi.

"Nima bu? Sotqinlikmi?"

Yerda yotgan odamni endi aniq ko'rdi: mo'yiali sabza urgan yigitchaning ko'zlar "Qalay, boplab aldadimmi?" deganday kulib turibdi.

Yana miltiq otildi. Bu safar ham o'q qulog'i ostidan o'tib ketdi. O'rnidan turib qochib qolish fursati yetganini anglab, qaddini ko'tarishga uringan yigitchaning ko'kragiga Urusxon xanjarini to dastasiga qadar botirdi.

- Sotqinliging mukofoti shu bo'ladi senga!

Shunday dedi-yu, toshdan toshga sakrab, o'zi uchun panoh hisoblangan o'rmon sari qocha boshladidi. Qonga belangan Muldor og'zidan ko'pik chiqarib, jon talvasasida qolaverdi.

Pistirmadagilar tim may miltiq tepkisini bosadilar, o'qlar esa nishonni chetlab o'tadi.

Yana ozgina qoldi. So'ng o'rmon... unda birov daf qila olmaydi.

Yetay deganda, so'nggi qadamlarini bosa olmay yiqildi, lablaridan la'nat so'zlari uchdi.

Zurab otgan o'q uning o'ng o'pkasini teshib o'tgan edi. Shakkokning yiqilganini ko'rgan yigitlar uni o'ldi, deb gumon qilishib, g'oliblik qiyqirig'i bilan o'rinxaridan turib ketdilar. Yiqilib yotgan O'ruxsonga qarata otilgan yana bir o'q yonboshiga sanchildi.

Pistirmadagilarning shodon hayqirig'i tezgina so'ndi: Urusxon qaddini ko'tardi-yu, so'nggi kuchini to'plab panohkor daraxtlar sari intildi. U dastlabki bahaybat chinorga yetib kelganida majoli qolmagan edi. U daraxtni xuddi onasini quchganday quchoqladi-yu, hushsiz yiqildi.

Uni ushslash uchun ta'qib eta boshlaganlar beixtiyor ravishda to'xtab qoldilar. Urusxon muqaddas o'rmon hududiga o'tishga ulgurgen, masofa uch-to'rt qadamni tashkil etsa-da, endi o'g'lolnarning birontasi o'ljaga yaqinlashishga jur'at eta olmas edi.

Otishma ovozi naridagilarning ham diqqatini tortdi. Ular pistirmadagi joylarini tark etib, shu tomon kela boshladilar. Ovulda ham

jonlanish sezilib, Nayfat yo'lida shoshilib kelayotgan odamlar ko'rinishdi. Ko'p o'tmay o'rmon etagi odamlar bilan to'ldi.

Tomoshatalablar boshqalarni surib, suqilib, oldinga o'tmoqchi, muqaddas chinor panasida yotgan shakkokni ko'rmoqchi bo'lardilar. Qisqa fursatda bo'lib o'tgan voqeа og'izdan-og'izga ko'chardi.

Muldorning o'limi qadamjoni asray olmaganlari uchun ruhoniy otaxonlarga Tbau-uats-Ila tomonidan yuborilgan jazo sifatida qabul qilindi. Tbau-uats-IIani so'roqlamoq huquqi yolg'iz Zaurga berilgani sababl u qadamjoning oyog'osti qilinganidan avvalroq ogoh bo'lismga majbur edi.

Tambi g'am-alamini ichiga yutadi. Dardidan birovning ogoh bo'lismini istamaydi. Boshqalar qatori yetib kelgan o'z urug'inining ayollarini atrofiga chorlaydi-da, barchaga suyukli bo'lgan, quvnoq Muldorga aza ochishni tayinlaydi. So'ng xaloyiqni tinchlantirishga urinayotgan tutsatlar safiga qo'shiladi. Birovlar ularning da'vatlariga quloq solishadi, betoqat va qoni qaynoqlar esa muqaddas chinor ostida yotgan munkirni bu yoqqa sudrab chiqib, burda-burda qilib tashlashni istashadi. G'azablarini jilovlay olmayotganlarga chinorga yaqinlashish muqaddas o'rmonni oyog'osti qilmoqlik ekanini tushuntirish oson emasdi.

Shu zaylda soatlар o'tdi.

To'plangan yuragidagi g'azab olovi dam so'nganday bo'ladi, dam yana katta kuch bilan alanga oladi.

Urusxon esa hamon hushsiz yotibdi.

Bekordan bekorga kutaverishning oxiri ko'rinas edi. Toqati toq bo'lgan besabrlar izlariga asta qayta boshlashdi. Daraxt ostida hushsiz yotgan kufroniymi qo'riqlashga yetarli odamlargina qoldi.

Ko'p qon yo'qotganidan madorsizlangan Urusxon erta tongda hushiga kelib, ko'zlarini ochdi. Boshini sal ko'tarib atrofga qaradiyu, poyloqchilarni ko'rdi. Uning harakatga kelganini ko'rgan qurolli odam sal narida o'tirgan Zaurni chaqirdi. Zaur odamlariga o'rmonni qurshab olishni buyurib, daraxtga yaqin keldi.

- Notanish odam, sen kimsan?-deb so'radi u Urusxon dan ko'z uzmay.-Sen bizning vodiya kelib, qadamjoni tahqirlading.

Munkirlik senga kamlik qilibdimiki, yana qotillik ham qilding. Sen nobakor, xudoning g'azabidan qo'rqmaysanmi?

Urusxon xuddi uning gaplarini eshitmaganday javob qaytarishga urinmadi ham. Qaddini sal ko'tarib, yengining bir parchasini yirtib oldi-da, yarasini bog'lay boshladi. Zaur esa toqat bilan undan javob kutdi. Javob bo'lmasdi. Urusxon yarasini bog'lab bo'Igach, arang o'rnidan turdi-da, mast odam kabi gandiraklaganicha o'rmon ichkarisiga qarab yurdi.

Uning bu qiliq'idan g'azablangan poyloqchilar miltiqlarini otishga shaylab, izn olish ilinjida ruhoniy otaga umid bilan qaradilar.

Zaur ularning shashtini qaytarish uchun bosh chayqadi.

- Qadamjoda qon to'kish sira ham mumkin emas. Tbau-uats-Ila uning jazosini berish uchun sizlarning o'qlaringizga muhtoj emas. U shakkokni bizga o'zi tutib beradi.

Zaurning ishonch bilan bunday deyishi bejiz emas, u yakshanba kuni o'rmonga kiruvchi ruhoniylarning shakkokni qo'lga olishlariga umid qilayotgan edi.

Alamzada o'g'onlар ruhoniy otalari chizgan chiziqdан chiqmay, chorasisiz qoldilar.

Bu paytda Urusxon yara azobidan baqirib yubormaslik uchun tishini tishiga bosganicha buloqboshiga yetib keldi. U badanini kuydirayotgan yara qiyogniga chidardi, ammo g'azab olovi uni batarroq azobga solardi. U qanday qilib allov to'riga ilinib qoldi? Ziyarakligini qayda yo'qotdi? O'rab olgunlaricha lallayib yotaverdimi? Miltiqni olmay o'rmon tashqarisiga chiqqani-chi? Eng laqma odam ham bunday ehtiotsizlik qilmas?

Bu yerdaligini u odamlar qayerdan bilishdi?

"Zoliyxon xiyonat qildi", degan fikr xayoliga ham kelmaydi. Arzimas tuyulgan har qanday tasodif sirni oshkor qilgani aniq. U tashvishlarga va sarguzashtlarga to'la hayotida tasodiflar bilan hisoblashishga o'rganib qolgani uchun shu to'xtamga keldi.

Urusxon buloq suvida yaralarini yuvib, qon oqishini to'xtatish uchun mahkam bog'ladi. So'ng bu yerdan tezroq qochish rejasini o'lay boshladi. Tik qoyalarga sinchiklab razm solib, bu yerda qolish xatarli ekanini angladi. Tanga darmon berishi mumkin bo'lgan ovqat yo'q. Qolgan-qutgan taom qoringa yuq ham bo'lmaydi. Qanday bo'lmasin bu yerdan tezroq chiqib ketishi shart.

Kechagina har hil balolardan asrashi mumkin bo'lgan bu muqaddas o'rmon endi unga o'lim zindoni bo'lib tuyuldi. Toki tanasida joni bor ekan, taslim bo'lmaydi, harakat qiladi. Uning aniq rejasi yo'q, ammo omadiga ishonadi.

Kunduzi dam olgani ma'qul. Kechasi bularga sezdirmay yo'l yurish mumkin. Shu qarorga kelgan Urusxon maysa ustiga cho'zilib, ko'zlarini yumdi. Uyqusi notinch bo'ldi. Isitmasi ko'tarilib, azob chekayotgan qalbini qo'rqinchli tush dahshati bilan larzaga solib turdi: bir qarasa, och bo'rilar qurshovida turibdi, o'zini himoya qilay desa miltig'i yo'q. Bir qarasa, g'azablangan Tbau-uats-Ila unga qiyomat jazosini berish maqsadida ustiga bostirib kelyapti. Bir qarasa, tog' cho'qqisini qoplab turgan qora bulutdan bir parchasi ajralib tushib, uni o'rab-chirmab, beayovlik bilan siqa boshlaydi. Nazarida Tbau-uats-IIanling g'azabnok nighohi faqat unggaina qadalgan, qasos onlari yaqinligini sezgan jasur Urusxonni endi dahshat chodiri bo'g'a boshlaydi. Birdaniga tog' cho'qqilari, hatto vodiy chir-chir aylana ketdi. Go'yo yer yuzi telba quyun ixtiyoriga berildi. Tog'larni huddi yengil xas kabi girdikapalak qilayotgan quyun Urusxonni ham unutmadi: u arzimas zarranining zarrasi singari aylanaverdi. Quyun bahaybat cho'qqilarni o'rnidan sug'urib, uning ustiga otti. Toshlar qo'llarini sindirdi, xarsanglar oyoqlarini majaqladi. Tbau-uats-Ila uni shakkokligi uchun shunday jazolab, chuvalchangday qimirlashga urinayotgan Urusxonni mazax qilgan kabi mammun kuladi.

Tbau-Uas-IIanling Ino'mi

Urusxon poyloqchilarini dog'da qoldirib, gandiraklaganicha o'rmon ichkarisiga kirib ketgach, Zaur bilan Tambi ruhoniylar oиласига mansub barcha qarindoshlarini to'plab mashvarat qildilar. Oy to'lishgach, ular o'rmon hududini bosib ichkari kirish huquqiga ega bo'ladi. Hozir esa sabr qilmoqlikdan o'zga chora yo'q. Noma'lum odamning noplak qadami bilan o'rmonni tahqirlashi shakkoklik bo'lsa, o'zlarining oy to'lishgunga qadar o'rmonga kirishlari kuff ustiga battar kuff sanalmog'i aniqligini ular yaxshi bilishadi. Unga qadar esa o'rmon zikh halqa bilan o'rab olinishi kerakkim, toki undan bir qumursqa ham o'rmalab chiqib keta olmasin. Ularning har bir harakatlarini ziyraklik bilan kuzatib turgan Tbau-uats-Ila ruhoniy bandalarining o'z vazifalarini qanday sodiqlik bilan ado etayotganlarini nazardan qochirmaydi.

Maslahat chog'iда yana "Bu odam kim bo'ldi ekan?" degan savol takrorlandi. Xsin "bu shakkok aynan Urusxonning o'zi", degan avvalgi gumonini endi isbot qilmoqchi bo'ldi. Bu munkirning o'ldirilishi uchun tutsatlarning besh ming rubl miqdorida mukofot puli olishlarini yana bir eslatadi.

- Muhimi bu emas,-deb uni qayirib tashlaydi Tambi.

Poyloqchilar joy-joylariga jo'natilgach, Tambi o'g'lining dafn marosimiga tayyorgarlik ko'rish uchun uyiga otlandi. Inilari esa qasos onini qo'lidan chiqarmaslik uchun joylarida qoldilar.

Zaur ham uyiga qaytdi. U jinoyatchini qo'lga olish nasib etadimi yo yo'qmi, deb fol ochuvchi tayoqchalaridan so'radi. Tayoqchalar uning ko'ngliga taskin beruvchi ijobiy javobni berdilar.
 Inilari va jiyanlarining o'rmon poyida sergak turganlari unga dalda berib, bir oz dam olishni ixtiyor qildi.
 Ertalab qizini qayg'uli ahvolda ko'rdi. Qiz qalbidagi muhabbat olovining zabti unga ham ta'sirini o'tkazdimi, har nechuk g'azabini yumshatdi. Kufroni bir erkakni deb asriy qonunni buzishga jur'at etgan, endi uning hajrida kuyayotgan qiziga Zaurning rahmi keldi.

- Zoliyxon!

- Labbay, ota?

- Qayg'urayapsanmi?

Bir og'iz gap gapirishga holi ham qolmagan qiz otasiga nima deb javob qilsin? Zoliyxon indamaydi, boshini egadi.

- U nobakorni xayolingdan chiqarib tashla!-deb amr qiladi Zaur.

Ota amri so'zsiz ado etilishi kerak. Ammo muhabbatning baquvvat zanjiri bilan ikki yurak bog'langan damda bunday amrni bajara oluvchi oshiq bormi bu dunyoda?

Qiz itoatsizlik bilan bosh chayqadi:

- Ota, men bunday qilishga ojizman.

- O, baxti qaro qiz, nega tushuning kelmaydi? U yaralanib yotibdi. Balki joni allaqachon jahannamga ketgandir?

Qizning g'amga limmo-lim to'lal qalbi azobini titroq ovozi oshkor qildi:

- Bilaman...

Ota g'amning bu sadosiga e'tibor qilmaydi:

- Tbau-uats-Ila Kerimning xotini bo'lishingni menga ayon qildi.

Zoliyxon boshini egganicha pichirladi:

- Bu ham dzuarning jazosi menga...

- Ha, bu Tbau-uats-Ilaning jazosi!-deb qat'iylilik bilan takrorladi Zaur.-Sen kufroniya yordam berib, gunohga botding. Endi tavba qilib, gunohingni yuvishing kerak. Qizim, ishon, senga rahmim kelyapti. Men otaman! Taqdiringga befarq qaray olmayman. Seni hali oldinda og'ir qismatlar kutyapti. Azoblarga chidasga majbursan...

Zaur ota sifatidagi aybiga iqror bo'lib, boshini egdi. Qiz "otam yana biror nima dermikin?" degan fikrda jim turdi. Zaurdan sado chiqavermagach, qayrilib nari ketdi.

"Bundan battarroq yana qanday azobga duch kelishim mumkin?-deb o'yaldi u.-Sarlochinim yaralanib yotibdi, men yarasiga malham qo'ya olmayman. Balki otam aytganiday, tiriklar dunyosini tashlab ham ketgandir, men - notavon esam unga aza ochib, bir tomchi ko'z yoshi ham to'ka olmayman. Men sevmagan, bundan keyin ham hech qachon seva olmaydigan Kerimga tegamanmi? Tbau-uats-Ila menga shu taqdirmi ravo ko'ryaptimi? Bu qanday ko'rgilik!

Zoliyxon qalbini zabt etgan paxlavonining buloqboshida qoniga belanib yotganini xayolan ko'z oldiga keltirdi. Ichki bir qudrat uni o'rmon tomon borishga da'vat etdi.

Ammo...

Tbau-uats-Ilaning qasosi-chi?

U qurshovdagi poyloqchilar orasidan sezdirmay o'tib olishi mumkin edi. Odamlar sezmay qolishar, ammo shu o'rmon, shu tog' xudosi-chi? Battar g'azablanmaydimi? Uning jazosi-chi? U o'zining emas, sevgilisining boshiga bundan battar balolar yog'ilishidan qo'rqqani uchun ham o'rmon sari borishga jur'at etolmaydi.

Qurshovda o'tirganlar nazarida juma va shanba juda imillab o'tdi. Urusxon esa isitma otashida alaxsirab o'tkazdi bu kunlarni.

Kunni zerikish bilan o'tkazgan poyloqchilar o'niga yangilari kelishdi. Balog'at yoshiga yetgan tutsatlar shanba kuni ro'za tutdilar. Cho'milib, pokiza bo'lismgach, ibodat qilishdi. So'ng oppoq kamzullarini kiydilar-da, o'rmonga otlandilar. Quro bilan ichkari kirish mumkin bo'limgani sababli qo'llariga faqat tayoq va o'tin kesgali bolta oldilar. Ular shakkokni buloqboshida yotgandir, deb taxmin qildilar. Uni uxlab yotganida qo'lga olish rejasini tuzdilar.

Zaur "Tbau-uats-Ila bizga madad berishga va'da qildi", degani uchun, g'alabaga hammaning ishonchi komil edi. Zaur badkirdorni Tbau-uats-Ila hukmiga ro'para qilmoq maqsadida tiriklayin qo'lga olishni amr etdi. Agar abreknii behos o'ldirib qo'yishsa, ishga hukumat vakillari aralashadilar. Ruhoniylar esa ularning aralashishlari u yoqda tursin, bu yerlarga yaqinlashishlarini ham xohlamaydilar.

Ular muqaddas o'rmon etagiga yaqinlashib, tun og'ishini kutdilar. So'ng bir necha guruhgaga bo'linib, o'rmonning turli tomonlaridan ichkari kirdilar.

Vodiyan ko'tarilib kelgan qora bulut to'lin oyni ham, osmonga sachragan yulduzlarni ham yutdi.

O'rmonni qurshab yotgan o'g'lonlar xarsanglar va butalar panasida miltiqlarini mahkam siqqanlaricha ziyrak yotibdilar. Ularning ko'zlarini ichkariga yo'l olganlarda. Oq kamzulli tutsatlar bayabat daraxtlar ostida huddi o'rmalayotgan arvohlar kabi ko'rindilar. Zaur to'g'ri buloqboshiga bormay, avval o'rmonning hamma tomonini qarab chiqishni buyurgan edi. Topshiriqni bajargan tutsatlar Zaurning atrofida birin-ketin to'plandilar. U boltadan faqat himoya vositasi sifatidagina foydalanish mumkinligini ta'kidlagach, buloqboshi tomon sharpasiz yura boshladilar. Oldinda borayotgan Zaur shakkokning nima qilayotganini o'z ko'zlarini bilan ko'rishni istayotgan edi. Agar uxlayotgan bo'lsa orqadagilarga ishora qiladi. Tutsatlar esa unga tashlanib, qo'l-oyog'ini bog'lashadi. Pusib, sas chiqarmay belgilangan joyga yetdilar. Ana, kufroni maysa ustida harakatsiz yotibdi. Zaur uni huddi shu ahvolda, shu joyda ko'rishni tahmin qilgan edi.

Sokinlik...

Zaur unga asta yaqinlashdi.

Tbau-uats-Ila jinoyatchini uning qo'liga osonlik bilan topshirdi.

Hushsiz Urusxonning ko'zlarini yumuq. Alaxsirab, nimalardir deydi.

Zaur qaddini g'oliblik bilan ko'tarib, inilariga ishora qildi.

- Bog'langlar!

Urusxonning hushsiz ekanidan bexabar tutsatlar unga baravar tashlanib, qo'l-oyog'ini bog'ladilar.

Urusxon ularni ajablantirib, qarshilik ko'rsatmadni, uyg'onmadni, hatto nimalar bo'layotganini sezmadni ham.

Urusxonni o'zining bo'rkiqa yotqizishdi. To'rt yigit uni ko'tardi. Tambi sal narida yotgan miltiqni ko'rib, qo'liga oldi.

- Uni uyimga olib boringlar, Tbau-uats-Ila bizga marhamatini yog'dirdi. Bugun qasidalar aytamiz. O'tinni ertaga kessak ham

bo'ladi.

Zaur shunday deb Tbau-uats-IIani ulug'lovchi qadimiy qasidani kuylay boshladı. Hazin ohangda bo'lsa-da, kishi qalbini larzaga soluvchi bu qo'shiq tun sukunatini poralab tashladi. Marosim ishtirokchilari shoshilmay so'qmoq tomon borishdi. Pistirmadagilar qo'shiqni eshitishlari hamon o'rinalardan turdilar-da, ehtirom yuzasidan bosh kiyimlarini yechib, qo'lga oldilar.

Ruhoniylar o'rmon etagiga yaqinlashganlarida bulut choki so'kilib, to'lin oy ko'rindi. Harakatsiz qora bir narsani ko'tarib kelayotgan oppoq kiyimlilar oy nurida aniq ko'zga tashlandilar.

G'olibona qadamlar bilan o'rmondan chiqib kelgan ruhoniylarni ko'rgan poyloqchi yigitlardan biri shodonlik bilan:

- U qo'lga olindi!-deb qichqirdi.

- Shakkok qo'lga tushdi!-boshqalar shunday deb qichqirishib, quvonchlarini ichlariga sig'dirolmay miltiqlarini baland ko'targanlaricha tantana qildilar.

- Ushlandi! Ushlandi!-degan shodiyona xabar og'izdan og'izga ko'chdi.

To'planganlar ruhoniylar safiga shoshilib, jo'rovozda qo'shiqqa qo'shildilar.

Jar yoqasida ajib bir manzara namoyon bo'ldi: oldinda oppoq libosililar, ularning izidan qora kiyimli o'g'lonlar tizilib borishadi. Qoyalardan qoyalarga urilib jaranglayotgan qo'shiq Sagat Lamardon aholisini uylarini tark etib chiqishga majbur etdi. Zaurning uyi oldidagi maydoncha bir pasda odamlarga to'ldi. G'olibona va tantanali yurish ishtirokchilari maydonchaga yaqinlashishganda qasida ham niyoyasiga yetdi.

Yaradorni ko'tarib kelgan tutsatlarning yosh o'g'lonlari uni asta yerga qo'yidilar. Odamlar to'dasi qiziqsinib, o'ljaga yaqinlashdilar. Bir bola chiroq olib kelib, uning yuzini yoritdi. Hech kim uni tanimadi.

- Uning menin qo'noqxonamga olib kiringlar. Tepasida ikki kishi qo'riqlab tursin,-deb buyurdi Zaur.

Ular yaradorni ko'tarib, hovliga qadam bosishlari bilan Zoliyxon ichkariga, ayollar xonasiga qochib kirib ketdi. Qizning vujudini junbushga keltirayotgan qandaydir kuch uni yorining yaralarini bog'lashga, tasalli berishga undaydi. Ammo nochorlik hissi g'oliblik qilib, xonada berkinib o'tirishga majbur etadi. Nima qilsin, u bechora, erkaklar tarqalishini kutishdan o'zga iloji yo'q.

Tomoshatalablar tarqalishdi. G'ala-g'ovur ham tindi. Urusxon qo'noqxonadagi to'shak ustida hamon harakatsiz yotibdi.

Qurollangan ikki yigit uning ikki yonida ziyrak turibdi. Zaur xudoning g'azabini keltirgan, tutsatlarni esa behalovat qilgan bu nobakorga uzoq tikilib turdi-da, yigitlarga buyurdi:

- Qaranglar, balki yarasini bog'lash kerakdir.

Soqchilar amrni bajarishni paysalga solmadilar. Zaur chiqib ketmay turiboq, Urusxonning qo'llarini mahkam siqib turgan arqonni bo'shatdilar. Keyin ustidagi kiyimlarni ham yechgach, yaraga yopishib, qotib qolgan qonli lattani bemehrlik bilan yulib oldilar.

Og'riq zo'ridan yarador ingrab yubordi. Soqchilar endi nima qilarlarini bilmay hayron turganlarida eshik ochilib, Zoliyxon shoshilganicha kirib keldi. Zaur bu yerdan chiqib yaradorga qarash lozim ekanini aytganida Zoliyxon go'yo qanot chiqarib uchganday bo'lgan edi. U keltirgan malham, toza mato, iliq suvni yerga qo'ygach, sevgilisi yoniga cho'kkaladi. Bularning qalb sirlaridan bexabar soqchilar sal naridagi kursiga borib o'tirdilar.

Zoliyxon nozik va mayin barmoqlari bilan yaraga malham qo'yib, avaylab bog'ladi. Yonboshni yaralagan o'q havfli emas, suyakka tegmabdi. Ammo ko'krakka tekkani... Zoliyxon shunisidan xavotirda.

"O'q o'pkasida qolganga o'xshaydi,-deb o'yaldi u.-isitmalashi shundan".

Zoliyxon yaradordan xabar olib turish uchun qo'noqxonada qolajagini bildirdi. Soqchilar unga qarshilik qilishmadi.

Ertasi kuni yosh ruhoniylar o'tin kesib kelgani o'rmonga yo'l olganlarida kattalar yaradorning qismatini hal qilish uchun Tambining uyida maslahatga to'plandilar. Ular o'zlaricha hukm chiqarib, ijro etishga botina olmaydilar. Qadamjoning xorlangani, jinoyatchining qo'lga olingenini butun vodiylah qo'ygan. Shu sababli eng ma'qul chora yaradorning tuzalishi va Tbau-uats-IIanening qarorini kutish.

Hatto Tbau-uats-IIa ham jinoyatchining jonini olmay, o'z xizmatchilarining qo'liga topshirdi. Zaurning fikricha, xudo bu kufroniyya o'limdan ko'ra yanada azobliroq va dahshatliroq jazoni tayyorlab qo'yan. Shu sababli eng ma'qul chora yaradorning tuzalishi va Tbau-uats-IIanening qarorini kutish.

Shu kuniyoq Temir To'tarayev o'g'li hamrohligida Sagat Lamardonga yetib keldi. Ularning izidan ikki bahaybat it ko'magida suruvni haydar kelayotgan xizmatkor ovulda to'xtamay, qo'ylarni o'tloq sari haydadi. Zaur ardoqli mehmonlarni hovlida kutib olib, o'zining xos xonasiga boshladi. Qariyalar so'ridan joy oldilar, Kerim eshik yonida qoldi. Do'stining tashrifidan xabar topgan Zurab ham xonaga kirib, Kerimning yonidan joy oldi. Mezbondan amr kutayotganday xanjari dastasini mahkam ushlab, qaddini g'oz tutgancha turdi.

Ruhoniylar ota mehmonini keyingi kunlarda yuz bergan voqealardan ogoh qildi. Ammo qizining jinoyatchiga taom olib borganini aytishga tili bormadi. Bu gap sirligacha qolmasligini, Zurab hademay do'stiga oshkor qilishini bilardi. Shunday bo'lsa-da, bu haqiqatni aytish unga o'lim azobi kabi tuyuldi. Mezbon gapini tugatib, tin olgach, Temir jinoyatchini ko'rishga izn so'radi.

Zaur unga monelik qilmay, hovli orqali qo'noqxonaga boshladi.

Temir yarador asirni ko'rdi-yu, beixtiyor bir seskandi. O'zini o'sha zahoti qo'lga ololgan bo'lsa-da, sinchkov Zaur undagi o'zgarishni sezdi. Temir orqasiga o'girilib hovliga chiqquniga qadar Zaur undan sado kutdi. Ammo mezbon muqaddas o'rmon tomon tikilganicha jum qoldi. Zaur mehmonni tirsagidan ushlab, uyg'a boshladi-da:

- Uni taniysanmi?-deb so'radi.

Agar rus jandarmi shunday deb so'riganida Temir rad javobini berar, qochoqni hech qachon sotmagan bo'lardi. Ammo hozirgi sharoitda qiyomatli do'stiga to'g'risini aytishi mumkin. U chuqur xo'rsindi-da, Zurga qarab:

- Taniyman,-dedi.

Zaur gapning davomini kutib, mehmoniga savol nazarini qadab turaverdi.

- Men uni abrek bo'lmasidan ilgari ham yaxshi tanirdim. Uning kindik qoni bizning ovulda to'kilgan.

- Demak?..-Zaur shunday deb jim qoldi. Temir ham gapirmadi. Javobni ruhoniyt otaning o'zi aytdi:-Urusxonligi aniqmi?

Temir javob o'rniga bosh irg'adi.

- Endi hammasiga tushundim! Endi hammasi menga ayon bo'ldi! Tbau-uats-IIa menga, o'zining sodiq quliga marhamat qilibdi!

Xudoyim Urusxonning boshi besh ming rublga baholanganini biladi-ku, axir? Bu boylikni xudo menga nasib etibdi!

Zaur hayajon bilan shunday degach, jimbib, o'ylanib qoldi: "Ammo men uni jandarmga o'z qo'limgan bilan topshiranmanmi? Besh ming rubl evaziga "sotqin" degan tavqi la'natga erishamanmi? Yo'q. Bunisi to'g'ri kelmaydi!"

Zaur "chorasini sen top" deganday do'stiga qarab qoldi. Temir "buning chorasini topishga men ojizman", deganday nigohini olib

qochdi. Bir oz o'ylangach, Zaurning o'zi topdi bu chorani: u asirini jinoyatchi qochoq Urusxon deb topshirmaydi, hukumat qo'liga. Balki hujjatsiz, noma'lum kimsa deb beradi. Hukumatdigalarning o'zlarini boshlarini qotirib uning kimligini aniqlab olishsin-u, mukofot pulini cho'zishsin. Zarur bo'lib qolsa ularga ozgina yordam berishar. Lekin hozircha hech kim asirning kimligini bilmasligi shart. Zaur bu qarorini yana bir marta fikr tarozusiga solib ko'rgach, qochoqning nomini sir saqlab turishini do'stidan iltimos qildi.

Temir bu iltimosni hech bir shartsiz qabul etdi.

Otasining imo-ishora orqali bergan amrini ado etish uchun Qo'rg'ok tezlik bilan otni egarladi-da, tog' tepasidagi yaylovga qarab yo'l oldi. Oradan yarim soat ham o'tmay egarida qora qo'zi bilan qaytdi. Hovliga kira solib, otdan chaqqon sakrab tushdi. Zorlanib ma'rayotgan qo'zini egardan oldi-yu, uni o'nglanishiga ham qo'y may, bo'g'ziga xanjar tortib yubordi. Keyin yengini shimarib, cho'kkalab oldi-da, jonivorning terisini shildi, ichak-chavog'ini ag'darib tashladi. Amr etilgan ondan ikki soat o'tmay, mehmonning sharafiga so'yilgan qo'zi go'shtidan kabob tayyor bo'ldi.

O'g'il

Shomga yaqin Urusxon hushiga keldi, ko'zlarini ochib, atrofga hayrat bilan boqdi. Eshik yonida o'tirgan qurolli ikki yigitni ko'rди. O'rnidan turmoqchi edi, oyoqlari bog'langanini sezib, ortiqcha harakat qilmadi. Yana ko'zlarini yumdi-da, o'zini uxlaganga soldi. Ammo ongi uyg'oq edi. U bo'lib o'tgan voqealarni eslashga urindi: to'g'ri, u ehtiyyotsizlik qilib, o'rmondan chiqdi, unga o'q uzdilar... lekin, uni aldagan bola...

Urusxon bolaga xanjar urganini eslab, mammun jilmaydi. "Sotqinlik uchun jon bilan haq to'laydilar... Qiziq, bu yerga qanday kelib qoldim? Muqaddas o'rmonga kirib meni olib chiqishga kim jur'at etdi? Kim meni bog'lab tashladi? Uyquda edimmi yo hushsizmidim? Qanchadan beri yotibman? Chanqadim, og'zimda tupuk ham qolmabdi..."

- Suv... menga suv bering,-dedi u beihtiyor.

Uning xirildoq ovozi juda past edi. Shunga qaramasdan qo'shni xonada o'tirgan Zoliyxon paxlavonining iltijosini eshitdi, shoshilganicha chiqib, yaradorga qaramoqchi bo'lgan soqchining qo'lidan istakonni olib, mis qumg'ondan suv quydi-da, bir qo'li bilan Urusxonning boshini ko'tardi. Zoliyxonni ko'rgan Urusxonning ko'zlarini chaqnab ketdi. Suvni yutoqib-yutoqib ichdi-da, baland ovozda:

- Rahmat!-dedi, keyin ovozini pastlatib so'radi:-Men qayerdaman?

- Otamning qo'noqxonasida,-dedi qiz ham past ovozda, so'ngra yanada shivirlab:-Keyin, keyinroq gaplashamiz...-deb qo'ydi. Bu onda Zaur o'zining xos xonasida Tambi va Inaldko bilan maslahatlashib o'tirardi. U boshi besh ming rublga baholangan mashhur abreknii Temir To'tarayev taniganini ukalariga ma'lum qildi-da, "Tbau-uats-Ila marhamat ko'rgazib, sodiq xizmatlarim evaziga bu mukofot pulini menga lozim ko'rdi. Agar xudoyim shuni xohlamaganida jinoyatchini mening qo'limga topshirmay, o'zi jazolagan bo'lardi", deb izoh berdi. Ukalarga bu izoh ma'qul kelmadi. Garchi "Xudo jinoyatchini o'zi mahv etmay qo'limizga topshirdi", degan fikrga qo'shilsalar-da, qochoqni qo'lga olishda barcha tutsatlar ishtirok etganlari sababli olinajak pul mukofoti teng taqsimlanishi kerak, degan talabni o'rtaqa qo'ydilar.

Ukalarining talabi Zaurga ma'qul kelmay, bahs boshlanib ketdi.

Zaur abreknii birinchi bo'lib ko'rganini qayta-qayta takrorlayverdi. Ukalari esa unga javoban: "yoningda biz bo'lmasak, yolg'iz o'zing unga yaqinlashishga jur'at eta olmagan bo'larding, uni kim ushlab, kim bog'lab, kim ko'tarib keldi, buni hisobga olmaysanmi?" deb qattiq e'tiroz bildirishdi.

Zaur yon bosishga majbur bo'ldi olinajak pul mukofotini teppa-teng taqsimlashga qaror qildilar.

Deraza yonida turgan Zoliyxon ularning bu bahsini eshitib, g'ashlandi.

Hali qo'lga olinmagan pul haqidagi bahs hal etilgach, Tambi "Biz hali yo'q narsani talashib o'tiribmiz. Hukumat va'dasini bajarib, pulni beradimi yo yo'qmi?", degan gumonni o'rtaqa qo'ydi.

- Men bilan pul talashmay, gapni shundan boshlasang durustroq bo'lardi,-dedi Zaur norozi ohangda.-Sen shaharga tushib, o'sha yerdagi katta-kichik amaldorlar orqali bu haqda aniq ma'lumot to'pla. Biz shunga qarab ish ko'ramiz. Agar jinoyatchini hukumatga abrek sifatida topshirib yuborsak, ta'na toshlari ostida qolamiz. Pul unishi aniq bo'lsagina, biz uni harbiylar kasalxonasiga olib boramiz, shunda ham abreklar Urusxonni emas, muqaddas o'rmonimizni oyog'osti qilib toptagan shakkokni, ruhoniyalar tabaqasiga mansub yigitchan ni o'dirgan qotilni hukumat ixtiyoriga topshiramiz. Shundan keyin hukumat vakillari Urusxonni tanib qolsalar, oilamizning aybi emas.

Bu fikr Inaldkoga ham ma'qul kelib, Tambining ertagayoq shaharga borishini so'radi. Zaur esa abreknii birov topa olmaydigan joyga yashirib qo'yishini aytdi. Shunday ittifoqqa kelgan og'a-inilar hotirjam ravishda qo'noqxonaga chiqdilar. Bu yerda Motsko tutsatlarning aziz mehmoni Temir suhbatlashib o'tirardi. Kerim bilan Zurab esa kattalarning gaplariga aralashmay, devor tomonda, xanjarlari dastasini omonat ushlaganlari holda tik turardilar.

Zaur Inaldko bilan kirib, Temirning yonida joy olgach, yoshlar yengil ta'zim qilganlaricha tashqariga chiqib, toqqa ko'tarildilar. Cho'ponlarning hujrasi yaqinidagi xarsangga o'tirib nafas rostlab olishgach, Zurab do'stiga bo'lib o'tgan gaplarni birma-bir bayon qildi.

Otasi bilan amakilarining bahsini o'g'rinchaligida eshitib turgan Zoliyxon dahshatdan qaltiray boshladı. Garchi gaplarni aniq-tiniq eshitia olmagan bo'lsa-da, bir narsani mukofot teppa-teng taqsimlanishini anglati. Demak, uning sevgilisini hukumat jallodlari qo'llariga topshirishmoqchi! Qo'shni xonadagi tortishuv barham topgach, Zoliyxon iziga qaytdi. Uning xayolida faqat bitta ahd charx urardi: Urusxonni qutqarish kerak! Kechgacha ot hozirlab qo'ysa, tunda bandilikdan bo'shatib qochirib yuboradi. Urusxonning Sibirga jo'natalishiga sira ham yo'l qo'ymaydi!

Sochilar Urusxonning yonida chekib o'tirishibdi. Bir qadam ham nari ketish yo'q. Qani edi, Zoliyxon sevgan yori bilan bir nafasgina bo'lsa-da, holi qololsa! Qiz huddi cho'g' ustida yalangoyoq turganday bezovtalanadi. Urusxon yarim yumuq ko'zlarini unga tikib, xavotirini, gapini aytishga fursat topolmay qynalayotganini sezdi. Urusxon qizning bezovta ko'zlariga qarab, maqsadini uqishga tirishdi. Sevgilisining xavotiri bejiz emasligini bilib, boshiga yog'lishi mumkin bo'lgan balo do'liga shay turishi shartligini anglati.

Tashqaridan taomlanish vaqt yetgani ma'lum qilinib, Zoliyxon amakisining qizi Salimat ko'magida soqchilarga dasturxon tuzadi.

- Ovqat tayyor,-dedi Zoliyxon soqchilarga qarab. Ularning imillab qo'zg'olishlari, dasturxon atrofidan joy olishlarini toqat bilan kutdi. Keyin ularning ijozati bilan yaradorga taom bilan suv keltirdi. Urusxonning boshini avaylab ko'tarib, suv ichirayotganda shivirlab, xataridan ogoh qildi.

Suv ichib bo'lgan Urusxon qalqib ketganday yo'taldi-da, sekingina shivirladi:

- Bahona topib bitta soqchini chiqarib yubor, menga pichoq ber.

Zoliyxon topshiriqni anglab, tashqariga chiqdi. Dam o'tmay junchoyshab ko'tarib kirdi.

- Kechasi sovuq bo'ladi,-dedi u soqchilarga izoh berib. Keyin junchoyshabni avaylabgina yarador ustiga yopdi. Junchoyshab qatiga yashirilgan pichoq Urusxonning yoniga tushdi.

Abrek joni qaytarib berilganday quvonib, pichoq dastasini mahkam siqdi. So'ng sezdirib qo'ymaslikka tirishib, oyog'ini siqib turgan arqonni asta qirqa boshladi. Zoliyxon esa kichkinagina xontaxta ustiga pishirilgan qo'y go'shti qo'ydi-da, qo'shni xonadagi mehmonlarga eltid berishni soqchilardan biriga iltimos qildi.

Urusxon xonadagi har bir harakatni ziyraklik bilan kuzatib yotdi. Hukumat odamlari qo'liga tushishni sira-sira istamayotgan Urusxon jonini saqlab qolishning ming bir yo'lini izlardi. Nihoyat topdi! Hech kimning xayoliga ham kelmaydigan dadil reja tuzdi: eng avvalo qanday qilib bo'lisa-da, ayollar bo'lmasiga kirib olishi shart. Ana shunda kavkazliklar odati bo'yicha o'g'llik huquqiga erishadi-yu, ruhoni yota uni hukumat odamlari qo'liga topshira olmaydi!

Ayollar bo'lmasiga o'tib olish aytishga oson. Aslida ustara tig'i bo'ylab yalangoyoq yurishday gap bu. Yo - o'lish, yo qolish!

Ayollar bo'lmasiga kirishga intilgan har qanday begona erkakning o'lim topishini u yaxshi biladi. Joni garovda, biroq boshqa chorasi ham yo'q. Fursat yetdi: arqon qirqildi, xonada soqchining bir o'zi qoldi. Zoliyxon fursat g'animatligini anglatuvchi ishora qildi. Soqchini ushlab qolishga harkat qilishini ko'z qarashi bilan bildirdi.

Urusxon fursatni qo'ldan boy beruvchi landovur yigitlardan emasdi. U yara azobini ham unutib, irg'ib o'rnidan turdi. Buni ko'rgan soqchi unga hamla qilay deganida Zoliyxon xuddi hushdan ketganday o'zini uning qo'llariga tashladi. Soqchi nima voqeа yuz bergenini anglashga ulgurmay, Urusxon uning ustiga junchoyshabni otib, Zoliyxon kutganday hovli tomon emas, xonadon bekasining xonasi tomon yugurdi.

Deraza yonidagi kursida o'tirgan ojiza beka sharpadan cho'chib tushdi. Ammo Urusxon uning turishiga yo'l qo'ymadidi. Bir qo'li bilan uni yelkasidan quchib, ikkinchi qo'li bilan ko'ylagi tugmalarini uzib tashlab, ko'kragini ochdi. Kampir unga qarshilik ko'rsatishga ojiz, baqirishdan bo'lak iloji yo'q edi. Hayoti qil ustida turganini bilgan Urusxon esa rejasini amalga oshirishga oshiqardi. Siynabandni yulqib uzib olgach, kampirning qurib ketgan, ajin bosgan ko'kragi ko'rindi. Urusxon ojizani ikki qo'li bilan mahkam quchdi-da, labini ko'krakka bosib, bir necha bor emdi. Rejasni amalga oshgach, hayajon va harakatdan holsizlanganicha kampirning tizzasiga bosh qo'ydi.

- Men seni emib oldim, endi men sening o'g'lingman!-dedi u zaif tovushda.

Urusxon buni aytmasa ham kampir qofqazliklar odati bo'yicha shunday bo'lishini bilardi. U dastlabki qo'rquvdan qutilib, o'zini bosishga harakat qildi. Ko'kragini berkitishga urinib:

- Sen kimsan? -deb so'radi.

- Men bir baxtsiz odamman, qochoqman,-dedi Urusxon g'amli ovozda.

- O'rmonda qo'lga olingen shakkok sen emasmisan?-dedi kampir, uni o'zidan nari itarib.

- Odatimiz bo'yicha men endi sening o'g'lingman,-deb takrorladi Urusxon,-endi mendan bunday gaplarni so'rama.

Shu onda xanjar yalang'ochlagan Zaur va uning ukalari xonaga bostirib kirishdi. Urusxon o'ng qo'li bilan kursi suyanchig'ini ushlab o'rnidan turdi. Qaltis harakat qilganidan ko'kragida yara ochilib ketgan edi. Badanidan iliq qon oqa boshlaganini sezsa-da, bunga ahamiyat bermay g'azab otashida ko'zlar chaqnayotgan Zaurga tikildi:

- Men uy egasining xotinini emib oldim,-dedi u dadil gapirishga intilib,-ilohiy qonunga ko'ra endi men sening o'g'lingman!

Zaurning nochor qalbi ikki to'lqin orasida qalqib qoldi: bu qanday bedodlik-ki, qadamjoni oyog'osti qilgan shakkok, qizini yo'lidan urgan ablax, jiyani o'ldirgan qotilning jazodan qutulishi kamlik qilib, enda o'g'llik da'vosini qilib tursa!? Bu ham yetmaganday hukumatdan umid qilingan besh ming rubl pul mukofoti ham somon xaslariday sovurilib ketyapti. Nahotki Tbau-uats-Ila bunday fojiaga yo'l qo'ysa?

Shu alam o'tida kuya boshlaganida xayoliga boshqa, nurliroq fikr keldi:

"Ha... Bu Tbau-uats-IIaning jazosi. Bu kufroni menga o'g'il bo'lish bahonasida jonini qutqarib olyapti. Lekin muhabbatining barbod bo'lganini o'ylamayapti. Shu ondan boshlab u menga o'g'il bo'lisa, qizimga aka! Aka bilan singilning qo'shilishi esa aqlga sig'maydi! Tbau-uats-IIaning hukmi shunday!" Bu hukmdan quvongan Zaur unga qo'l uzatdi:

- Sen o'g'llik huquqiga erisha olding. Endi sen menga o'g'il, bularga ukasan!

Boshqa tutsatlar bu "yangi qarindosh"ni bunchalik tez tan olishni istashmasa-da, bobokalonlaridan meros odatga qarshi chiqishga botina olishmadidi. Merosning muqaddasligi ulardag'i g'azabdan va qasos tashnaligidan ustunroq chiqdi. Ular birin-ketin Urusxonga yaqinlashib, aka-ukalik rishtasini bog'lash alomati hisoblangan odatni bajardilar bir necha nafas ilgari dushman hisoblangan yigitning o'ng qo'lini siqib ko'rishdilar. Eng oxirida Tamba qo'l uzatdi. Kichik o'g'liga xanjar sanchgan qo'lni do'st sifatida ushslashdan ko'ra o'lim azobiga chidash osonroq bo'lisa-da, muqaddas odatga bo'ysunish burchi ustunroq edi.

Zaur Urusxon bog'langan arqonning kesilganini ko'rgach, bu ishda qizining qo'li borligini sezdi. "Yoshlarning yuraklarini chirmab turgan muhabbat ipi qarindosh tutinish bilan osongina uzila qolmaydi", deb o'yladi Zaur. Bir necha daqiqa ilgari Tbau-uats-IIaning jazosidan mammun bo'lgan ruhoni yota endi hushyor tortdi. "Muqaddas odatimizga biz amal qildik. Qadamjoni xorlashdan qaytmagan badkirdor aka-singillik chegarasini tan olarmikin? Buni tezroq uzoq yerkarda jo'natib yuborish zarur", degan qarorga kelib, Urusxonga ahdini ma'lum qildi:

- Tbau-uats-Ila bu yerdan tezroq ketishingni xohlayapti. Sen sog'ayib, kuchga kirguningga qadar begonalarning ko'zi tushmaydigan joyda yota turasan.

Urusxon qarorni oxiriga qadar eshita olmay, hushdan ketdi. Uni Zaurning qo'noqxonasiga olib chiqib, joyiga yotqizdilar.

Boshqalar chiqib ketishgach, Zaur uning yarasini qaytadan bog'lab qo'ydi. Keyin ukalariga aravani hozirlashni buyurdi. So'ng yaradorni avaylab ko'tarib chiqdilar-da, aravaga yotqizdilar. Motsko hushsiz abreknning yoniga o'tirib, jilovni qo'liga oldi. Dori-darmon va yegulik taom ham aravaga qo'yilgach, ikki yosh tutsat qo'shimcha buyruqni kutmay, chaqqonlik bilan otlariga mindilar-da, ularga hamroh bo'lilar. Motsko boshqarayotgan arava avvaliga ilonizi yo'lidan pastga qarab yurdi, keyin esa shovqinli va asov Qizildon yoqalab ovuldan uzoqlashgach, Tbau cho'qqilarini mo'ljallab, yuqoriga ko'tarila boshladи.

Bir necha soatliz yo'l azobidan so'ng yon-atrofda o't-o'lan ko'rinnay qoldi. Go'yo toshu xarsangdan iborat o'lik saltanatga kirib qolganday bo'lilar. Ayrim xarsanglar ostida arang ko'rinnib turgan ko'katlargina bunda hayot borligidan darak berib qolardilar.

Taqir-tuqur aravaning silkinishi va tun salqini ta'sir etib, Urusxon hushiga kelib, to'lin oyning sutday nuriga cho'milgan o'lik tog'u toshlarga alanglab qaradi.

- Muqaddas tog'imirga yetib keldik,-dedi Motsko unga bir qarab olib.-Bu yerga kirishga faqat bizning avlodimizgina haqli. Sen Zaurga o'g'il bo'lding, endi bizning avlodimizdansan. To sog'ayguningcha shu yerda yashaysan.

Yana biroz yurishgach, yo'l dara tomon burildi. Tik qoyalar naq osmonga qadalib qolganday tuyuladi. Bahaybat xarsanglar shu joyda yo'lni shartta to'sgan. Jilov tortilmasa ham ot o'z-o'zidan to'xtadi. Motsko aravadan sakrab tushib, dori-darmon va taom o'rallan tugunni qo'liga oldi. Jiyanlari ham otlaridan chaqqon sakrab tushib, unga yaqinlashdilar.

- Uni otga mindiringlar,-deb buyurdi u, Urusxonga qarab olib.-Bittang otning jilovidan tut. Bittang yaradorni ushlab ketasan, yana yiqilib tushmasin, ehtirot bo'llaring. Men oldinda boraman.

Jiyanlar churq etmay, amrni bajarishga kirishdilar: otlardan birini aravaga bog'ladilar-da, ikkinchi otga Urusxonni mindirib yo'lga tushdilar. Xarsanglar orasidagi so'qmoqdan yuqorilash oson bo'lmadidi. Yulduzlar saltanatiga sanchilib qolganday turgan mag'rur cho'qqilar oy nurini ham to'sdi-yu, atrofni qorong'ulik bosdi. Ular yakkatovon yo'l azobiga bardosh berib, do'nglikni aylanib o'tdilar-da, yassi maydonga chiqdilar. Bu yerdan vodiy kaftdagidek ko'rinish turardi.

Urusxonni otdan tushirib, katta g'or og'zi yonidagi xarsangga suyab o'tqazishdi.

- Ro'zador ruhoniyalar bu yerda ilohiy kechani toat-ibodatda o'tkazadilar,-deb tushuntirdi Motsko.-Bu yerda sen bexavotir yashashing mumkin. Bu joyni faqat tutsatlargina bilishadi. Kuchga kirib olguningcha shu yerda qolasan.

Urusxonni ko'tarib, g'or ichkarisiga olib kirdilar.

- Endi mana shu xazonu xashak senga yumshoq to'shak bo'ladi,-dedi Motsko, uni suyab, keyin jiyanlariga buyurdi:- bo'rkni to'shanglar.

Topshiriq bajarilgach, Urusxonni yotqizdilar.

- Ana endi damingni olaver,-dedi Motsko.-Tugunda taom bilan dori-darmon bor. Shishadagi suv bir kunga yetadi. Kunduzi quyosh ko'tarilganda tashqariga chiqib yot. Bu yerning havosida tez kunda quvvatga qirasan. Bu yigitlar har kuni non-suvingdan xabar olib turishadi.

Motsko "gap tamom" deganday tashqariga yo'naldi. Ammo g'or og'zida to'xtab, orqasiga o'girildi:

- Biz tutsatlarmiz! Bobokalonlarimizning qonunini biz uchun muqaddas!- dedi u g'urur bilan.

Urusxon ularga minnatdorlik bildirdi, yigitlar g'ordan uzoqlashmay turib yana hushidan ketdi.

Rozilik

Bu xonadonga alamu tashvishlar keltirgan yarador Urusxon ortilgan arava hovlidan chiqqach, Zaurning ko'ngli sal joyiga tushdi. Qizining abreksa bo'lgan muhabbatiga chek qo'yilganiga ishonch hosil qilib, yengil tin oldi-da, Temir bilan Inaldko o'tirgan xos xonasiga kirdi.

- Temir,-dedi Zaur, afsus bilan,- eshitgandirsan?

- Ha, hozirgina Inaldko aytdi,-dedi Temir noroziligini yashirmay, keyin piching bilan qo'shib qo'ydi:-O'g'ling ko'payibdimi?

Zaurga bu piching malol kelsa ham e'tibor bermaslikka harakat qildi. Ko'zini yerdan uzmay:

- Bu Tbau-uats-Ilaning xohishi, uning hukmi oldida bizlar nochormiz,-dedi.

- Endi uni nima qilmoqchisan?

- Uni... bexatar joyga jo'hatdim. Xabar olib turamiz. Tez kunda quvvatga kirib olgach, boshi oqqan tomonga ketaveradi.

Qo'rg'ok mo'b Tjajzgina xontaxta ko'tarib kirdi. Xontaxta o'rtasiga qo'yning qaynatilgan kallasi, atrofiga esa yog'och sixga terilgan kabob, butunicha pishirilgan son go'shti, istakon va non qo'yilgan edi.

Tog'dan qaytib tushgan Zurab bilan Kerim xos xonaga kirib, dasturxonga yaqinlashmay, yana devor tomonda xanjarlari dastasini ushlaganlaricha tik turdilar.

Zaur chap qo'liga istakon olishi bilan sergak turgan Qo'rg'ok shisha po'kagini ochib, uyda tayyorlangan qo'l bola aroqdan quydi. Ruhoni ota o'ng qo'liga bir six kabobni olgach, osetinlarga xos duolarni o'qiy boshladi. Devor tomonda turgan yoshlar "Ömiyn!" deb uni quvvatlاب turishdi.

Shundan so'nggina mehmondorchilik boshlandi. Xanjarlar qindan sug'urlib, har bir kishi o'zi uchun go'sht bo'laklarini kesib oldi. Xanjar taomlanayotganlar uchun bu safar sanchiq vazifasini bajardi.

Kattalarning mehmondorchiligi yakun topgach, yoshlar ovqatlanish uchun qo'shni xonaga chiqishdi. Zaur Zoliyxonning jinoymatchiga yordam berganini, ovqat bilan ta'minlab turganini Temirga aytasammi yo aytmasammi, deb uzoq mulohaza qildi. O'ylyay-o'ylyay oxiri qisqa tarzda ma'lum qilib qo'yishni lozim topdi. Noxush xabarni qiynalib aytgan Zaur gapini: "Bo'lar ish bo'lib o'tdi. Agar bevoshlilik qilib ko'ngil qo'ygan bo'lsa ham, endi ular aka-singil. Ko'ngil xohishi shu bilan o'ldi",-deb yakunladi. Bu xabardan keyin ikkovi ham jim qolishdi. Temirning jimgildidan foydalangan Zaur yana tilga kirib, yaqin kunlarda sovchi kelguday bo'lsa, endi quruq qaytmasliklarini bildirib qo'ydi.

Temirga bu xabar yoqmagan bo'lsa-da, Zaurning keyingi xulosasi ma'qul kelib, o'z qarorini ma'lum qildi:

- Men Kerimga aytaman, bu ishni endi kechiktirib bo'lmaydi. Ertaga tong otishi bilan Zurab yana qizingga uchraydi.

Bu ahdni eshitgach, Zaurning yelkasini bosib turgan g'am qoyasi ag'anaganday bo'lib, yengil tortdi. Shu qaror aytishini kutib turganday, qariyalarga o'rinni to'shash maqsadida xonaga Zoliyxon bilan Salimat kirib keldilar. Temir bo'lajak kelinining harakatlariga zimdan razm solib turdi. Unda ko'ngilni xira qiladigan unsur yoki ota rizoligiga qarshi isyon o'tini ko'rmagach, ko'ngli xotirjam topdi. Qizlar vazifalarini bajarib chiqib ketishgandan so'ng Zaur mehmonining yechinishiga ko'maklashdi. Bu orada Qo'rg'ok kirib otasining etigini tortib qo'ydi. Zaur mehmonni ko'rpgaga o'rabit, unga xayrlı tun tiladi.

Qariyalarga o'rinni to'shab chiqqan Salimat qo'shni xonada ovqatlanib o'tirgan Kerim bilan Zurabga eng oxirgi yangilikni abrekning o'g'il huquqiga ega bo'lib qolganini, uni bu yerdan noma'lum tomonga olib ketishganini bildirdi. Kerim "Bu qanaqasi bo'ldi?" degen ma'hoda do'stiga ajablanib qaradi. Bu yangilikdan mammun bo'lgan Zurab "yo'llimizdagi eng asosiy to'siq olib tashlanibdi!" deganday miyig'ida kulib qo'ydi.

Tong otishi bilan Kerim otasiga uchrab, hoziroq Kadgaronga borib, mo'b Tjatabar qarindoshlaridan bir nechtasini Sagat Lamardonga sovchilikka yo'llashini iltimos qildi. Zoliyxonning Urusxonga munosabati Temirni bir oz havotirga solib turgan bo'lsa-da, o'g'lining ra'yini qaytarmadi. Ammo odatga muvofiq avval qizdan rizolik olishni talab qildi.

Ota-o'g'il sovchilik masalasini hal qilayotgan paytda ichkari uyda Zaur qizi bilan huddi shu mavzuda gaplashayotgan edi. Salimat uyiga chiqib ketgan, ojiza kampir esa deraza yonidagi kursisida ularning gaplariga qulq solib, jimgina o'tirardi.

- Zoliyxon,-dedi ota bosiq ohangda,-sen abreksa yana yordam berding. Arqonni kim kesganini bilmaydi, deb o'ylayapsanmi?

Zoliyxon javob bermaydi. Qaysar qizning ko'zlar qat'iyilik bilan yonadi. U o'z muhabbatini himoya qilish uchun kurashmog'i

lozimligini biladi. Sevgilisidan faqat o'limgina ayirishi mumkinligini otasiga aytgisi keladi. Biroq farzandlik burchimi yo qizlik hayosimi, gapirishga yo'l qo'ymaydi.

- Zoliyxon, men seni ayblamoqchi emasman,-dedi Zaur og'ir tin olib,-seni Tbau-uats-Ilaning o'zi jazolaydi. Seni bu jazodan asrab qolishga men ham ojizman.

"Ha, bu turgan gap, jazo olishim tayin", deb o'laydi nodon qiz.

- Shakkokka ko'ngil qo'yaning uchun, u mal'unga yordam berganining uchun jazolaydi,-deb ilova qildi Zaur.

"Gunohim shuning o'zigina bo'lsa qaniydi, men qadamjoga ham kirishga jur'at etdim", deb o'laydi gunohkor qiz.

- Ko'zlarining aytib turibdi: uni hali ham sevasan. Sen muhabbatning nechog'li telba ekanini his qilmayapsan. Esingni yig', tentak sevgining olovidan ehtiyyot bo'l, kuyib qolma! Hozirdanoq xudoning qahriga uchrading. Seni deb butun urug'-aymog'imiz sharmandai sharmsor bo'lidi. Agar shu nafasdan boshlab u kufroniyan voz kechmasang, uni endi akam demasang, bilib qo'y, xudoning qahri seni izma-iz ta'qib etaveradi. Ko'rguliging faqat va faqat g'am-qayg'u bo'lib qoladi!

Bu ogohlantirishdan so'ng Zoliyxon otasiga itoat etganday boshini egdi. Ammo u bu onda otasi huzurida emas, o'zining alamli taqdiri oldida taslim bo'lgan edi. Uning lablariidan Zaur kutmagan so'zlar uchdi:

- Taqdirim yozug'idan qochib qutula olmayman, hayot rohati endi menga begona, qolgan umrimni azob-uqubatda o'tkazishimni bilib turibman,-dedi u ajib bir musiqiy g'amginlik bilan. Keyin boshini ko'tardi, ahdini dadil aytdi:-Men undan voz kecholmayman!

Zaur o'zini bosolmay, g'azab bilan o'rnidan turib ketdi:

- Tentak! Nima deyayotganiningni bilyapsanmi? Endi u sening sevgiling emas, idrok qilyapsanmi endi u akang! O'z akangni sevmoqchimisan? Hech qachon bunday bo'lмаган, bo'lmaydi ham!

Bu ta'kiddan so'ng u cho'chib tushdi. Darvoqe, bu haqda o'ylamagan ekan-a! Urusxon o'z jonini saqlab qolib, muhabbatlarini esa azobli o'limga hukm qilib qo'yibdi-ku?!

Zaur qizining sukut saqlab, o'nga tolib qolishidan foydalanib, gapini keskinroq ohangda davom etdi:

- Akasiga muhabbat izhor etish baxti qarolikning o'zginasi! Mayli, men sharmandalik balchig'iga battar bulg'anayin, mayli, onang sho'rlik behayo qizining dardida ezilib ado bo'l'sin! Bizni o'ylamay qo'yaqol. Lekin sevgingandan kechmasang, Urusxonning boshiga bundan besh battar balolar yog'iladi. Kulfat botqog'iga botib, it azobida o'ladi u! Senga shu kerakmi?!

Qiz "yo'q", degan ma'noda bosh chayqadi: Urusxonga atalgan balolar uning boshiga yog'ila qolsin! Otasi buni tushunarmidi?

Zaur buni tushunmasdi, tushunishni ham istamasdi. Shu bois qizini achchiq gaplar savag'ichida savalashni davom etdi:

- Uning o'zi bila turib shunday qildi. Unga "o'g'lim bo'la qolgin", deb taklif qilganimda mendan o'pkalasang bo'lardi. Uning o'zi senga er emas, aka bo'lishni xohlab ayollar bo'lmasiga kirdi. Buning uchun uni ayblama. Urusxon aqlli odamning ishini qildi, otasiga rahmat! Seni g'avg'olardan ozod etib, baxtli turmuishing uchun sharoit yaratib berdi.

Zoliyxon otasining bu gaplarini ma'qullay olmasdi. Jon achchig'idagi Urusxonning tanlagan yo'lli oqibatini o'ylab ko'rmaganligiga u aniq ishonadi. Zoliyxon otasiga e'tiroz bildirolmay onasiga najot ko'zi bilan qaradi. Yillar davomida eriga biron marta e'tiroz bildirmagan, urf-odatlar talabiga hamisha bo'ysinib yashagan ojiza kampir bu onda nima qilsin? Bosh irg'ab, tasdiq ishorasini qilishdan o'zga chorasi yo'q-ku... Qizini himoya qilishi uchun biror asosi bormi uning?

Zoliyxonning onasidan najot kutishi sahrodagi tashna odamning bulutsiz osmondan yomg'ir istashi kabi amalga oshmas holat edi. U boshini egib, chorasiz odamning ovozida pichirladi:

- Ota, men uni unuta olmayman. Unutishga qurbim yetmaydi.

"Gaplarim ta'sir qilyapti, qizim o'z haddida turadi, itoatda bo'ladi", deb umid qilayotgan Zaur bu gapdan keyin vulqon kabi portlab ketdi:

- Sen uni unutishga majbursan! Bu faqat mening istagim emas, bu taqdir taqozosi! Urusxon ham shunday bo'lishini xohlaydi.

Chunki bu Tbau-uats-Ilaning qarori!-Shunday deb qizi tomon bir qadam qo'ydi:-Buni xudoning bir jazosi deb qabul qilsang ham bo'ladi.

Zoliyxonning bardosh jomi to'lib-toshdi. Endi chiday olmadi:

- Ona, onajon! Menga yordam ber! Meni bu balolardan qutqar!-deb faryod qildi-yu, ojiza qarshisida tiz cho'kdi, panoh istab, boshini uning tizzalariga qo'ydi.

Ona jabrdiyda qizining boshini mehr qo'llari bilan siladi. Nursiz ko'zlar yoshlandi.

- Zoliyxon, qizginam, otangning so'zidan chiqma,-dedi titroq ovozda.-Shunday qilsang Tbau-uats-Ilaning qahridan o'zing ham qutulasan, sevganiningni ham balolardan asrab qolasan. Avval sevgan bo'lsang ham, endi bu yog'iga uni o'z akang o'rnila ko'rishing kerak. Boshqa chorang yo'q.

Ojizaning xasta ovozini Zaurning dag'al tovushi bosdi:

- Tbau-uats-Ila seni Kerimga xotin bo'lishingni iroda etgan. Sen endi xudo bilan bahslashmoqchimisan? Xudo qarshisida kim ekaningni unutyapsanmi?

Uning bu so'zlar kech topilib, erta yo'qtilayotgan muhabbatni o'limga hukm qiluvchi ahd bo'lib jarangladi. Bu hukm jarangi devorlarga urilib yanada kuchliroq aks- sado bergach, go'yo hisobsiz nayzalarga aylandi-yu, sevgi otashida kuyayotgan qiz qalbini ilma-teshik qilib yubordi.

- Hademay Zurab keladi. "Kerim sovchilarni yuboraversinmi?" deb so'rasa qaysarlik qilib o'tirmay "xo'p", deb javob berasan, uqdingmi?

Qiz noroziligini bosh chayqash bilan ifoda etdi.

- Sen "xo'p", deb rozilik berasan,-deb yanada qat'iy ohangda ta'kidlati ruhoniy ota.-Xudo uni sendan ajratib, ko'z ilg'amas uzoqlarga ketishini iroda qildi. Xudoning unga atab qo'yan jazosini yumshataman, desang "xo'p" deysan.

Keyingi izoh Zoliyxonni tamoman yengdi. U otasining hukmi adolatli ekanini tushundi. Ammo tan olishga qurbi yetmadni. Aqli ko'ngani bilan behalovat yuragi norozi edi.

- Xudodan qo'rqliking kerak,-deb davom etdi Zaur.-Onang bilan menga, yana... akang Urusxonga bo'lgan mehring haqqi-hurmati rozilik berasan. Uning hayotini tavqi la'natlardan qutqarib, umrbod baxtli hayot kechirishi uchun ham muhabbatning qurban qilishing kerak!

Ilojsiz qiz yengilganini tan oldi. Biroq buni so'z bilan ifoda etishga o'zida kuch topa olmadi. Zaur bir oz sabr qilgach, yana so'radi:

- Xo'pmi?

- Xo'p,-deb shivirladi qizning jonsiz lablari,-Urusxon, sen uchun, faqat sen uchun "xo'p" deyapman...

Jonsiz Jon

Zaur muddaosiga yetib, chiqib ketgach, Zoliyxon onasi bilan qolishni, unga hasrat qilishni istamadi. Uning ko'ngli alhol yolg'izlikni qo'msardi. U o'nidan asta turdi-da, yon tomondagi kichikroq xonaga qarab yurdi.

Zoliyxon alangasi ko'klarga o'rlayotgan ikki gulxan orasida qoldi. Aql bilan ruh uni iskanjaga olib, do'zax azobiga sola boshladi. "Endi unga sening muhabbatningdan sira-sira naf yo'q. Uning o'zi seni bu balodan xalos etdi. U xudoning qahru-g'azabiga duchor bo'lmasligi uchun sen sevgingni qurban qilasan", deydi aql.

Shunda ruh faryod uradi:

- Yo'q, yo'q! Men uni unutolmayman, unutolmayman! Jonimdan kechaman, lekin undan yuz o'gira olmayman!

Azobdag'i ruhga shirin xotiralar madad bera boshlaydi. Ko'zlarini yumadi...

Mehmonxonadagi o'choq ro'parasida kalta sochli xushsurat yigit o'tiribdi...

Uning qo'shiqlari qalbni larzaga soladi...

Shunday qo'shiqlar kuylovchi azamat nahot uni o'z xohishi bilan tashlab ketdi?

Bu fikr uning o'limtik yuragidagi jonni sug'urib olganday bo'lди. Ingrab yubordi. Keyin... yana xotiralar uni ilk muhabbatning huzurli damlariga qaytardi...

Yigitning haroratlari bo'salari... Kuchli bilaklari bilan mahkam quchoqlab olishlari... Keyin o'rmon... oydin kecha...shundaygina buloq bo'yidagi maysa ustida o'tkazilgan totli soatlar. Nahotki huzurbaxsh damlar yo'qlik olamiga cho'kib, qaytmas bo'lib ketdi? Ha... hammasi tamom bo'lди. Endi totli nafaslar uchun haq to'lash vaqt yetdi. Haqiqiy baxt bo'lib tuyulgan u damlar endi qon talab qilyapti. Qon... qon...qon...

Zoliyxon shu holatda o'tirganida Qo'rg'ok kirib, uni ikki o't balosidan qutqardi. Singlisiga imo-ishora qilib, suv keltirishi lozimligini bildirdi. Zoliyxon uning ishorasiga itoat etib o'nidan turdi. Suv olgani pastga qarab tushayotganida yo'lida Zurab paydo bo'lди. Zurab qizni tasodifan uchratib qolganday ajablanib qaradi. Zoliyxon suv keltirish bahona ekanini anglab, uning qarashiga e'tibor bermadi.

Zurab do'sti Kerim va uning muhabbatni haqida uzoq gapirdi. Qalbi Urusxon sevgisi bilan band qiz bu gaplarni hushsiz eshitdi. Zurab ishq g'avg'osi xususidagi bayonini tugatgach, "sovchilar kelaverishsimi?", deb so'radi.

Zoliyxon rozilik ishorasi sifatida boshini egdi. Bir narsa tomog'ini bo'g'ib olganday "ha", deyishga qurbi yetmadi. Zurab uchun bosh egilishining o'ziyoq kifoya edi. U quvonchli xabarni tezroq do'stiga yetkazish uchun orqasiga qaytdi. Qiz uning izidan qarab ham qo'ymadidi. Boshini quyi egganicha yo'lida davom etdi.

"Nima qilib qo'yding-a! Nima qilib qo'yding?"deydi yuragi yarador qush kabi potirlab.

"Nima qilishim shart bo'lsa o'sha ishni qildim!"-deb javob beradi aqli.

Do'sti keltirgan xushxabardan ko'ngli ko'tarilgan Kerim o'sha zahotiyoq Kadgaronga jo'nadi. Ovuldag'i baobro' qarindoshlariga uchrab, Zaur Tutsat qiziga uylanish niyati borligini bildirdi. Ertasiga esa sovchilarni boshlab Sagat Lamardonga qaytdi.

Zaur sovchilarni izzat-ikrom bilan qarshilab, alohida lutf ko'rsatib, Temir joylashgan xos mehmonxonasi boshladi. Mehmonlar kutib olinayotgan paytda Qo'rg'ok o'z vazifasini ado etdi: tog'dan qo'y keltirib, so'ydi.

Sovchilarga atalgan mehmondorchilik oxirlab qolganda Zaur tomonidan chaqirilgan barcha tutsatlar birin-sirin kirib keldilar.

Salom-alikdan so'ng ikki urug' orasida qalin puli miqdorini kelishib olish uchun bozordagi kabi oldi-sotdi boshlanib ketdi.

Arzimas ishday tuyulgan bu jarayon butun kecha davom etdi. Bu kabi masala hal etilayotganda keksalar o'tirgan joyalarida xotirjam ravishda babs yuritadilar. Yoshlar esa suhbatga aralashmay devor tomonda turnaqator tizilib, xanjar dastasini ushlaganlaricha qimir etmay turadilar.

Quyosh vodiyni nurga cho'mdirib ko'tarilganiga ikki soatdan oshsa-da, tuni bilan davom etayotgan bahsning oxiri ko'rinsasdi. Yoshlarning sabr kosalari to'lib, "bo'lди-da endi, bir to'xtamga kela qolinglar", degilari kelib tursa-da, odat talabi va odob chiroyi yuzasidan lom-mim demaydilar. Noroziliklarini hatto ko'z qarashlari bilan ham ifoda etmaydilar. Shunday qotib turishdan lazzat topayotganday, qariyalarning bahsiga mutlaqo qiziqmayotganday haykal misol turaveradilar.

Tutsatlar oilalarining obro'-e'tibori, qadimiylas zodalar avlod ekanliklarini qanchalik pisanda qilishmasin, qizlarining go'zal va oqila eng muhimi - sog'lom ekanligini maqtab, qalin puli miqdorini oshirishga qanchalik urinishmasin, To'tarevlar Zoliyxonning iffatl qizga xos bo'lмаган aybi ham borligi, ya'ni abrekk yordam bergenini ba'zan piching, ba'zan esa tagdor gaplar bilan eslatib, ularni lab tishlashga majbur qilib turishdi. Nihoyat har ikki tomon qalin pulini ikki yuz ellik rubl miqdorida belgilab, bahsga yakun yasadi.

Oldi-sotdi tugagach, Tambi izdihom ahlining topshirig'i bilan Zoliyxonning rozilagini olgani ayollar bo'lmasiga chiqdi.

Salimat bilan uning singlisi Ominat bu kecha Zoliyxon bilan birga bo'lib, uning yasan-tusaniga ko'maklashib o'tirishgan edi. Och-qizg'ish rangli milliy libos qizga juda yarashgan edi. Lekin Tambining ko'ziga jiyani g'oyatda bemor holda ko'rindi. Qon qochgan yuzlariga qarab, unga achindi. Shu bois daf'atan gap boshlay olmadi. Jiyaniga biroz tikilib turdi-da, so'ng mehribon ota ovozida so'radi:

- Kerimga turmushga chiqishga rozmisan?

Shunday deb so'rashga so'radi-yu, "yana "yo'q!" deb inkor etsa-ya?" deb cho'chidi.

Qiz uni xavotirdan qutqarib, boshini egdi. Huddi shabada shiviri kabi eshitilar-eshitilmas ovozda javob qaytdi:

- Otam nima desa shu. Men ota izmidan chiqmayman.

Shunday deb boshini ko'tardi. Uning yuzi endi o'likning rangiday oqarib ketgan edi. Agar Salimat uni ushlab qolmaganida hushsizlanib, yiqilib tushardi. Tambi xushxabarni yetkazish uchun chiqib ketgach, Salimat bilan Ominat Zoliyxonni o'niga yotqizishdi. Ikki opa-singil nima qilarlarini bilmay, xavotirga tushishganda, Zoliyxon ko'zlarini ochdi. Lekin uning ko'zlarida hayot nishonasini bildiruvchi nur yo'q, hissiz boqardi. Shu ondan boshlab Zoliyxon toshmisol bo'lib qoldi. Hamma narsaga hissiz, e'tiborsiz boqadi, aytيلayotgan gaplar qulog'iga kirmaydi.

Tuyg'ulari qora yerga ko'milgan Zoliyxon tunni ko'z yoshlari bilan qarshi oldi. Yig'lay-yig'lay charchab, uxlab qoldi. Tushida Urusxonni ko'rди: uning azoblarini o'ziga olgan mish. Tong otganda uyg'ondi. Endi u yorug' dunyoda ko'z ochib yurgan baxtiqaro qiz emas, balki uyqusidagina yashayotgan jonsiz jon edi. Uning nazarida bo'lib o'tgan, bo'layotgan voqealarning barchasi dahshatl tushda kechayotgan edi. Faqat bu alamli tushning qachon nihoyasiga yetishini, qachon baxtiyor qiz libosida uyg'onishini bilmas edi.

Kerimning kirib kelishiga e'tibor bermadi. Uzatgan sovg'alarini ham beparvo ravishda qabul qildi. Bu sovuq muomaladan

Kerimming ko'ngli og'rigan bo'lса-da, ishq olovida kuyib, o'tanayotgani uchun buning sababini so'rashdan o'zini tiydi. Qizning huzuridan chiqqach, Zurabga xavotirini aytgan edi, u: "bu o'tib ketadigan holat, qo'yningga kirganidan keyin halimday bo'lib qoladi", deb ovutdi.

Ro'yo

Kunlar imillab o'taverdi. Vodiydag'i kattayu-kichikning bayramga tayyorgarligi avjga mingan. Qoyalar qurshovidagi g'orda jon saqlayotgan Urusxon kunduzlari quyoshda toblanib, ancha kuchga kirdi. U Zaurning rejasidan bexabar bo'lgani sababli "Ruhoniyalar meni hukumat ta'qibidan qochirib bu yerga olib kelishdi", deb o'yldi. U butunlay sog'ayib, quvvatga kirkach, Zoliyxoni o'zining burgut qoyasiga olib chiqib ketishni intazorlik bilan kutardi. Qizga yetishish yo'lida o'tib bo'lmas dovonlar borligini esa sezmas edi.

"Bunaqa odatlari irim-sirimlar mening yo'limni to'sa olmaydi,-deb o'yldi u,-men unaqa laqma odamlardan emasman".

Urusxon o'z orzulariga bandi bo'lib yotgan kezлari ruhoniyalar Nayfatga ko'chib chiqishdi. Yoshlar muqaddas o'rmonga kirib o'tin terib chiqishgach, pivo qaynatishga kirishdilar.

Shanba kuni ertalab barcha tutsatlar jamuljam bo'ldilar. Cherkascha oq kamzul kiyib olgan ruhoniyalar aziz-avliyolari qadamjolarini ziyorat etib, ibodat qilib olishgach, Tbau-uats-Illani madh etuvchi qasidani aytishib, tantanali yurish bilan tor so'qmoq orqali vodiy tomon yo'naldilar. Necha asrlarki, har yili bir marta quyosh eng uzun kun marrasiga yetib kelganda mana shu so'qmoq orqali Tbau tomon boradilar. U yerda tunni ibodat bilan o'tkazishgach, yakshanbada yana shu so'qmoq bilan izlariga qaytadilar.

Tutsatlar yeri boshlanadigan joyda ziyoratchilar ruhoniyarlari izzat-ikrom bilan kutib oladilar. Ularning yuqori martaba egalari ekanliklari hurmatidan oyoqlari ostida qo'yilib, qurbanlik qilinadi.

Avval ibodat qilinib, ketidan ilohiy qo'shiqlar kuylangach, to'kin ziyofat boshlanadi. So'yilgan qurbanliklar pishiriladi, Tbau-uats-Illa sharafiga necha-necha qadah arog'u pivolar bo'shatiladi. Ziyofat avjiga chiqib sarmast bo'linganida yana xudolari sharafiga madhiya boshlaydilar. Ruhoniyarning jarangdor ovozlari butun vodiyni qamrab oladi.

Shundan so'ng ruhoniyalar avvaldan aniq belgilab qo'yilgan yo'l bilan olg'a yuradilar. Yo'l goho keng o'tloqlar yoqasidan, gohida tog'liklarning to'rtburchak shaklidagi tomorqalari yonidan o'tadi.

Zaur Qizildonga yetib kelganda kodatlar uni o'z chegaralarida qurbanliklari va turli sovg'a-salomlari bilan kutib turishardi.

Duogo'ylik va ziyofat bu yerda ham takrorlandi. Ruhoniyalar bu yerda uzoq qolmadilar. Tantana endi maxsus ajratilgan yerga irmoq yoqasiga ko'chdi. Zaur urug'-aymog'i bilan muqaddas va ilohiy hisoblangan yo'ldan Tbauga ko'tarila boshladи.

Tog' bag'ridagi yassi maydonchada nafas rostlashdi. Bu yerdan uncha uzoq bo'lмаган Xassar Lamardon ovulining aholisi ularni ziyorat qilgani keldilar. Ular qadimiyo odatlari bo'yicha qo'y suruvini ham haydab kelgan edilar. Suruv orasidan bir qo'y tanlab olinib, yuqoriga, so'nggi manzilga yetganlarida Tbau-uats-Illa uchun qurbanlikka so'yilishi kerak. Ibodat va qasidadan so'ng Zaur pichirlab duo o'qiganicha suruv oraladi. Bir qora qo'zi cho'zib ma'raganicha suruvdan ajraldi-da, uning izidan yurdi. Shundan so'ng ruhoniyalar yana yo'lga tushdilar. Qora qo'zi ulardan ortda qolmadi. Daraga yetib borgach, so'qmoq orqali g'orga chiqdilar. G'or og'zida quvvatga kirib, avvalgi holiga qaytay deb qolgan Urusxonga ro'para keldilar.

Ular tunni shu yerda o'tkazadilar. Qora qo'zichoq so'yilib, olov yoqildi. Oila boshlig'i bo'lgani uchun faqat Zaurgina Tbau cho'qqisiga chiqadi.

U o'ng qo'lida o'rmondagi oq qayindan bugun kesib chiqilgan, uch tomoniga hozirgina so'yilgan qo'zining kallasi ilingan xassani ushlagan, chap qo'lida esa bir cho'mich to'lа pivo bilan yog'li pishloq tugilgan tugunchani ko'tarib olgan edi.

Ruhoniy ota so'qmoqdan shoshilmay, asta-asta yurib yuqoriga ko'tariladi. Faqat ugina yilda bir marta shu muqaddas cho'qqiga ko'tariladi. Bu yerda topingan xudosi faqat ungagina mo'b Тjiza ko'rsatadi.

Mashriqda qizil shafaq ko'rinxay qoldi. Dam o'tmay sovuq tuman cho'qqilarni o'z chodiriga o'rab oldi. Nishabi shimol tomonga ketgan maysazor maydonchaga yetgach, nafas rostladi. O'rтada toshlardan betartib ravishda tiklangan mehrob turibdi. Bo'ronlar hamlasiga chidagan mehrob toshlarini mog'or bosgan. Atrofda sochilgan suyaklar avvalgi yillardagi qurbanliklardan darak beradi. Mehrob yonidagi supacha xudoning xontaxtasi hisoblanadi. Zaur ko'tarib kelgan ehsonlarini shu yerga qo'ydi. Maydon atrofiga uch yuzga yaqin oq tayoqlar ko'mib qo'yilgan. Ayrimlarining uchlariда qo'yning kalla suyaklari ilinganicha turibdi. Ayrimlarini bo'ron yulib olib, maydoncha uzra sochib yuborgan. Xudolari yo'lida qilgan qurbanliklarini shamolu yomg'ir, qishda qor-u, yozda quyosh nurlari chiritib, ado qilib yuborgan. Bu yerga chiquvchi ruhoniy zot uchun buning ahamiyati yo'q, uning vazifasi xudoga atalgan qo'y kallasi ilingan oq tayoqchani ko'mib ketishi shart. Zaur uchun bu vazifa yangilik emas. U xanjari bilan yerni kavladida, tayoqchani ko'mib, atrofini tepkilib, bostirib qo'ydi. Keyin tiz cho'kkanicha mashriq tomon tikilib xudo tomonidan ayon etiluvchi mo'b Тjizani kuta boshladи.

Bu yerda duo o'qilmaydi. Ibodat ham qilinmaydi. Otasining vasiyati shunday. U Tbau-uats-Ilaning mo'b Тjizasini toqat bilan kutadi. Afsuski, bu mo'b Тjiza har yili ham nasib etavermaydi.

Zaur kutyapti...

U o'zini g'oyat haqir va yolg'iz his qildi.

Atrofda vazmin tun sokinligi hukmron.

Uning ovuli pastda joylashgan. Huddi xudoning g'azab omochlari bilan shudgorlangan yerga o'xshaydi.

Oy ko'tarildi.

Vodiy tomonidan esgan shamol Tbau qoyalari orasida sarsari kezadi.

Zaurning vujudiga qo'rquv oralay boshladи.

Ilohidan sodir bo'lajak mo'b Тjiza oni yaqinlashganini qalban sezdi.

Tiz cho'kib o'tirgan ruhoniy beixtiyor ravishda egilib, peshonasini yerga qo'ydi. Qoyalar yuzini silab, suzib yurgan tuman quyuqlashdi. Go'yo hamma yoqni qop-qora tutun bosganday, Zaurga hatto tayoqlar ham ko'rinxay qoldi. Ko'zga ko'rinxuvchi farishta Dzuarning yaqinlashayotgani shu tarzda Zaurga ayon bo'lди.

Tuman orasida odam qiyofasi ko'rindi.

Zaur hushini yo'qotdi.

Ammo yiqilmadi, yelkasidan kimdir mahkam ushladi:

- Qara!

Uning ko'z oldini qoplаб turgan qora pardasi yirtildi-yu, o'tgan va bo'lguvchi voqealarning mudhish manzaralari ko'rina boshladи.

Avvaliga keng va asov daryoni ko'rди. Ajabki... daryoda xarsangdan xarsangga urilib ko'piruvchi suv emas, qon oqayapti. Qon daryosi uzoqda emas, shundaygina yonidan oqib o'tyapti. Ana, qon to'lqinlari yelkasida nimadir oqib kelyapti. Zaur diqqat bilan tikildi: qizlarning libosini kiyib olgan o'smir bolaning jasadi. Ko'ksida xanjarning o'rni bor. To'lqinlar jazavaga tushgancha girdob hosil qildi-da, jasadni chirpirak qilib aylantira-aylantira past tomon oqizib ketdi. Zaur Urusxonning xanjaridan o'lim topgan ma'sum Muldorni tanidi.

- Oqizib ketdi, oqizib ketdi-ya!-deb pichirladi uning lablari.

Dam o'tmay or'kach-o'r'kach qon to'lqinlari yana bir jasadni oqizib keldi. Bunisi katta kishiniki edi. Gavda tuzilishidan azamat jangchi bo'lgani bilinib turibdi. Yuz-ko'zlari quloqchin bilan o'rab tashlangani uchun Zaur bo'g'ziga xanjar uring so'yilgan bu jangchini tanimadi.

Bu o'lik ham yonginasidan oqib o'tib ketdi.

Qonli daryo mavji tinmaydi.

Ana... yana bir kimsa ko'rindi.

Zaur beixtiyor qichqirib yubordi. U shu topda yuzini o'grib olishni, hech bo'lmasa ko'zlarini yumishni istadi. Ammo bunday qilishga haqqi yo'q, amr etilgan: qarashga majbur!

Qora libos, sochlari oppoq, ko'zlardagi nur so'ngan...

- Xotinim...-deb shivirladi dahshatga tushgan Zaur,-mening xotinim!..

U qon daryosidan ko'zini uzib, boshini yerga urishni istadi. Agar bu on yer yorilsa-yu, uni yuta qolsa, mushkuli ancha oson bo'lardi.

Biroq yelkasidan yana bir chayir panja tutdi. Oliy hokim unga yana qat'iy buyruq berdi:

- Qara!

U yana qip-qizil mavjilarni, o'lim oqimini ko'rди. Oqim oqaveradi, oqaveradi oxiri ko'rinnmaydi. Shu asnoda to'lqinlar talvasaga tushib, yelkasida yana bir jasadni ko'tarib keldi. Oq libosdagi o'likning yuzlariga oq ro'mol tashlangan, ko'ylagining ko'krak qismi yirtilgan, siynabandlar ham yirtilib, ko'kraklari yalang'ochlangan.

Zaur dahshat bilan ko'zlarini kattaroq ochdi:

- Bu nima? Ko'kraklari kuydirilganmi?

Shamol jasadning yuzidagi oq ro'molni ko'tardi.

- Zoliyxon! Bolam!!!

Ruhoni yota hushsiz yiqildi. Ko'rganlari uning uchun g'oyat og'ir yuk edi ko'tarishga qurbi yetmadi.

Kechasi bilan hushsiz yotdi. Ertalabki sovuqdan junjikib, o'ziga keldi. Quyosh tumanni haydab, tog' va vodiyni oltin nuriga g'arq qilib ulgurgan edi. Tungi mudhish manzaralar ham yo'qolib, hayot o'z yo'rig'iga tushib olgandi. Quyosh nurlaridan qayta jon olgan Zaur o'midan turib mehrobga yaqinlashdi. Bultur olib kelgan ehsonlari qoldiqlarini chetga olib qo'yib, iziga qayta boshladи.

Qoyalari bilan o'ralgan maydonchada ilhaq bo'lib kutayotgan inilari uning oqarib ketgan yuziga qarab, havotir nazari bilan bir-birlariga qarab oldilar. Ularning javob kutayotganlarini Zaur bilardi. Ammo bu onda biron nima deyishga holi yo'q edi. Holi bo'lgan taqdirda ham ko'rganlarini ularga ayta olmasdi. Shu bois inilariga qarab bosh chayqab qo'ya qoldi. Tutsatlarning "demak, bu tun xudo ko'rinish berishni istamabdi", degan xulosaga kelishlari uchun shu ishora kifoya qildi.

Urusxon g'ordan chiqib, qaddini g'oz tutdi-da, musht qilib tugilgan qo'lini ko'kragiga qo'yanicha mag'rur ohangda salom berdi.

Zaur alik olmay, "so'yilgan o'lik shu emasmidi?"-degan xayolda bir necha nafas tikilib qoldi.

Ruhoniylar Ursuxonni yana g'orda qoldirib, izlariga qaytdilar.

Turnaqator bo'lib olgan tutsatlar necha yuz yillardan beri bobokalonlari qatnagan tor so'qmoq bo'ylab yurib borardilar. Shoshilmay yurganlari sababli Nayfat qal'asi xarobalariga oqshomda yetib keldilar. Yarmi buzilib ketgan darvozadan o'tib, qal'a ichkarisiga kirdilar. Bu yerdan Tbauning baland cho'qqilari va uning poyidagi Lamardon vodisi yaqqol ko'zga tashlanib turardi.

Chap tomonagi xonalarning ayrimlari butunlay vayron bo'lgan, but qolganlarini esa ruhoniylar o'zlarini uchun omborga aylantirgan edilar. O'ng tomonagi qiya ochiq eshikdan yarimqorong'u kushxona ko'riniib turardi.

Bayram boshlandi. Oq libosli yosh tutsatlar ust-boshlarini qonga belab, qurbanlik uchun keltirilgan qo'ylarni toshlardan tiklangan mehrob qarshisida so'ymoqqa kirishdilar.

Doshqozonlarda sho'rva qaynaydi. Qo'ralarda kaboblar jizzillab pishyati. Kabobpazlar yog'och sixlarga terilgan go'shtlarni ustalik bilan cho'g' ustida to'xtovsiz aylantirib turishadi.

Torgina zina ikkinchi qavatga olib chiqadi. Bu yerdagi keng xonada to'plangan muridlar ruhoni yotalarining kelishlarini sog'inib kutishadi. Qal'a hovlisida to'plangan olomon ham Zaurni ziyyarat qilib olishga intiladi. Zaur ular orasidan arang o'tib, ikkinchi qavatga ko'tarildi.

Xonaning o'ng va chap tomoniga o'rindiqsifat qoqilgan taxtalar ustida haloyiqning Tbau-uats-Ila uchun olib kelgan ehsonlari, likopchadan tortib, kosaga qadar turli buyumlar terib qo'yilgan edi. Kichkinagina to'rburchak derazadan kunduzi tushib turadigan nur ham bu xonani yetarli yorita olmaydi. Hozir esa yoqib qo'yilgan o'nlab moychiroqlardan taralayotgan nur bu derazadan oshib, hovlini yoritishga oqizlik qiladi.

Xona to'riga turli tasvirlar aks etgan suratlar osib qo'yilgan. Gurji podshohi hadya etgan katta mis qozonda har birining kattaligi tuxumdek keladigan ikki ma'dan tosh tashlab qo'yilgan. Ruhoni yota Tbau-uats-IIлага sig'inib, duo o'qiganida mo'b Bjiza yuz berib, bu toshlar davolash kuchiga ega bo'lar ekanlar. Aytadilarki, jinniliqi avjga chiqqan, hech kimga bo'yusunmay, qichqirqlari bilan olamni buzayotgan kimsa bu yerga olib kelingach, Zaur duo o'qiganicha toshlardan birini olib, bemorning peshonasiga tekkizgan ekan. Shunda tipirchilayotgan jinni tinchib, birdaniga toshday qotib qolgan ekan. Bir necha daqiqadan so'ng ko'zlarini katta-katta ochganicha atrofga hayron boqqan odam jinniligidan asar ham qolmaganidan quvonib, Tbau-uats-IIlaning quadratini olamaro ta'riflash uchun ovuliga yo'l olgan ekan.

Bu xona devoriga Zaur uchun eng muqaddas hisoblangan, mo'b Bjizalarga boy uzun zanjir-kishan osib qo'yilgan. Samoviylar hisoblangan bu zanjir haqidagi afsonalar tillardan tillarga ko'chib necha asarlardan beri yashaydi.

Emishki, ko'p asrlar muqaddam qabardinlar vodiya bostirib kiradilar biroq qal'ani zabit eta olmaydlar. Ammo tog' yonbag'rida ot boqib yurgan yosh tutsatni asirga oladilar. Uni o'zlarini bilan vatanlariga olib ketib, oyoqlariga kishan uradilar-da, qo'ylarini boqishga majbur qiladilar.

Yosh o'g'lon qismatidan qayg'urgan tutsatlar Tbau-uats-IIлага sig'inib, undan madad so'raydilar. Nihoyat, ularning munojotlarini ilohlari eshitadi.

Kunlarning birida o'g'lon suruvni o'tlatib yurganida osmonu falakdan boshi bilan qanotlari burgutga, tanasi esa odamga o'xshagan mahluq uchib keladi-da:

- Yelkamga o'tir,-deb buyuradi.

So'ngra bu mo'b Tjiza mahluq Tbau tog'iga uchib keladi-da, Nayfatdagi muqaddas qal'ani ko'rsatib:

- Vataningni tanidingmi?-deb so'raydi-yu, o'zi g'oyib bo'ladi.

O'g'lon kun bo'yи piyoda yurib, Nayfatga yetib keladi. Uni kishandan ozod qiladilar. Zanjirni esa tashlab yubormay, esdalik uchun ziyyaratgoh devoriga osib qo'yadilar. O'shandayoq bu kishan ilohiy kuch kasb etib qolgan. Ruhoni yota tanlagan bemor shu kishanga qo'l urgani zamon sog'ayib ketaverar ekan.

Qachonlardir Abxaziya knyazi Shervashidze qal'ani xarobaga aylantirib, mo'b Tjizaviy kishanni yurtiga olib ketgan, lekin kishan o'sha tuniyoq Nayfatga qaytib uchib kelib, devordagi o'z o'rnini egallagan ekan. Kishanni ucha boshlaganini ko'rgan abxzaz soqchisi unga qarab o'q uzgan ekan. Kishanda hozir ham shu o'q izi saqlanib qolgan. O'sha-o'sha kishan bu devorda muqim qolgan.

Tbau-uats-Ila sharafiga o'tkazilgan bayram ikki hafta davom etdi. Bu vaqt ichi qal'adan muridlarning oyog'i uzilmadi. Hovli hamisha odamlarga to'la, muridlar ruhoniy otalarini ziyyarat qilish uchun uzoq vaqt navbat kutadilar. Qurbanliq so'yish ertalabdan kechgacha tinmay davom etadi. Qoyalari bag'rini qizilga bo'yab pastga qon sizib oqadi.

Zaurga odamlar o'z dardlarini aytib iltijo qilishadi. Biri bemorlariga shifo talabida kelgan, yana biri mehr-oqibatga muhtoj, boshqasi xudodan baraka tilaydi. Zaur ularning istaklarini jimgina eshitgandan so'ng xudo bilan shu odam o'rtasidagi vakil misoli Tbau-uats-IIaga munojot qilib, talablari ijobot bo'lishini so'raydi.

Diniy vazifalarini bajo etib bo'lgan yoshlar esa saylni boshlab yuborganlar. Ular davra-davra bo'lib raqsga tushadilar. Qizlardan biri garmon chaladi. Boshqalar kuyga qarsaklari bilan jo'r bo'ladir. Davra o'rtasida ikki yosh xuddi ikki oqqush misol suzadi. Qo'llari pastga tushirilgan, yuzma-yuz turib bir-birining ko'zlariga muhabbat bilan tikilayotgan yigit bilan qiz kuyga monand ravishda maydon bo'yab suzadilar: bir yaqinlashadilar, bir uzoqlashadilar.

Qal'aga ko'p qatori kelgan Temir ham o'g'li yordamida qurbanlikni so'yib, xudodan Kerim bilan Zoliyxon nikohlarining qutlug' bo'lishini iltijo qilib so'radi.

Zaur do'stiga uzoq tikilib qoldi. "Kechasi ko'rgan dahshatli manzarani unga aytammikin yo yo'qmi?" deb ikkilandi. Keyin sir saqlashga qaror qildi: "Aytganidan nima foyda? Tbau-uats-Ila kimga baxtsizlikni ravo ko'rgan bo'lsa, bu qarorni odam bolasi o'zgartira olmaydi".

U ruhi ezilgan, toptalgan odam holatida Temirdan sal nari ketib, aziz-avliyolar tasvirlari qarshisida tiz cho'kdi-da, Tbau-uats-IIaga yolvorib, Temir va uning oilasidan marhamatlarini ayamasligini so'radi. Zoliyxonning ismini tilga olib, uning haqqiga duo qilishga botina olmadi. "Qizim xudoning qahru-g'azabiga duchor bo'lgan, endi najot yo'q!"- deb o'ylardi u. Zoliyxonning ruhan ezilishini, qarashlariga muhranib qolgan qo'rquvni o'z ayniga iqror bo'lish deb hisoblardi. Qo'rquv ham, ezilish ham Urusxonning hajrida ekanini esa o'ylab ham ko'rmasdi.

To'y

Kerimning iltimosiga ko'ra, Temir to'y harakatlarini tezlatdi. Ikki quda bayram oyoqlashi bilan to'yni boshlab yuborishga kelishdilar. Bu kelishuvdan Zaurning ko'ngli to'ldi. Har holda bayramning to'ya ularishi tufayli chiqim ham kamayadi.

Bayramdan ortib qolgan ichimliklari yeguliklar to'ya yetadi.

Zaur "qizimning taqdiri uzel-kesil hal bo'ldi, endi hech qanday kuch uni o'zgartirishga qodir emas", degan fikrda qat'iy edi. Ayollar Zoliyxonga sep tayyorlash, kelinchaklik libosini tikish bilan ovora. G'amini ichiga yutgan Zaur esa ruhi ezilgan odamning ma'yus qiyofasida yuradi. Biron dardkash topib, xasratini to'kishni istamaydi. U jazo qilichini ko'targan ilohi qarshisida ongi xiralashgan tarzda nochor turadi.

Tambi bilan Inaldkoning taklifini ma'qullab, bayramning so'nggi kuni to'y boshlashga qaror qildi. Sagat Lamardonda uch kun davom etadigan to'y ziyoftati yakunlangach, to'tinchi kuni suvoriylar qurshovidagi kelinning aravasi Kadgaronga yo'l olishi kerak. Dargov yo'lida kelinni kuyov kutib oladi. Shu yerda, vodiydag'i yagona cherkovda nikoh o'qitiladi.

Temir To'tarayev ham bo'sh kelmas, uning uyidagi to'y ziyoftati ham kamida uch kun davom etar. Shunga qaraganda Zoliyxonni bir hafta davom etuvchi, dovrug'i tillarga doston bo'luvchi to'y tantanalarini kutayotgan edi.

"Ishqilib, to'y tinchlik bilan o'tib olsin..."

Zaurning birdan bir tilagi shu!

Ham orziqb, ham havotir bilan kutilgan to'y kuni yetib keldi. Va'dadagi qalin puli to'landi. To'y tantanasiga ovul ahli jamuljam bo'ldi. Zaurning boshqa ovullardagi birodarlari, qarindoshlari ham yetib keldilar. To'tarayevlar avlodidan ham aziz mehmonlar tashrif buyurdilar. Ular orasida faqat kuyov yo'q. Taomilga ko'ra, u qizning uyidagi ziyoftga kelmaydi.

Tutsatlar avlodiga mansub ayollar kun bo'yи non yopish, taom pishirish bilan band bo'ldilar.

To'y tantanasini yoshlarga chiqargan: hovlida davra qurib olib, raqs tushishdan bo'shashmaydi. To'yga istagan odam kelaveradi, istaganicha o'yin-kulguga qo'shilaveradi. "Sen kimsan?" yoki "Nega kelding?" deguvchi topilmaydi.

Kelin hovliga chiqmaydi, shodiyonaga qo'shilmaydi. U ichkarida, ayollar xonasida. Dugonalari dam-badam kirishib, uning ko'nglini ko'tarishga harakat qilishadi. Unga qiziq-qiziq hangomalarni aytishadi. Aytishadi-yu, o'zlarini kulishadi. Zoliyxon dardini oshkor qilmaslik uchun ba'zan ma'yusgina jilmayib qo'yadi. Kelinning ezgin holati, oqarib ketgan rangi dugonalarini ajablantiradi, ammo sababini so'rashmaydi. Tashqariga chiqishadi-da, shodiyona davraga qo'shilishadi.

Uch kunlik ziyoft shu tarzda o'tdi.

Zoliyxon uch kun og'ir dard iskanjasida o'tirdi. "Yuragim chidolmay yorilib ketsa kerak", deb o'ylagandi, yo'q, chidadi. Ehtimol, ilohi tayyorlab qo'ygan barcha azoblarni ko'rish uchun ham chidagandir...

Ziyoftning uchinchi kuni adog'iga yetay deb qoldi. Hovlidagi mash'alalar yorug'ida kattalar ziyoftni davom ettirishyapti. Yoshlar xizmatda. Ayollar esa erta tongda kelinni kuzatish tadorigini ko'rib, uyda ivirsib yurishibdi. Zoliyxon xonasida yolg'iz qolgan. Uch kunlik xordiq uni holdan toydirgan. Avval tizzasiga boshini qo'yib o'ksindi. Keyin derazaga yaqinlashib, ko'zlarini katta-katta ochib, samoga tikildi. Yulduzlar charaqlab turgan bo'lsa-da, nur ko'rinnadi ko'zlariga. Uning kelajagini tun zulmati qoplab olgan: na bir yorug'lik, na bir najot bor.

Hovlidan qiyqiriqlar eshitilyapti. Kelin-kuyovning baxti uchun qadahlar bo'shatilyapti.

Qochoqlar

Zoliyxon mash'alalar g'ira-shira yoritib turgan hovliga tikildi. O'zini bag'ishlashga rozi bo'lgani - Kerimni ko'rishga ko'zi yo'q. O'y-xayoli faqat Urusxonda. Ko'zini yumdi degunicha sevgan yorining qiyofasi gavdalanveradi.

Hovliga tikilib turgan Zoliyxon bir odamning sharpasini ko'rdi-yu, yuragi xapriqib, qichqirib yuboray dedi. Deraza orqasida ko'ringan kim edi? Nahot Urusxon bo'lса?

Ha, o'sha!

Deraza tiqilladi...

Zoliyxon nafas olishdan ham to'xtab qoldi. Ko'rgani, eshitgani tushimi yo o'ngi ekanini bilmay taraddudlandi.

Deraza yana tiqilladi...

Uning yuragi potirlab, qo'llari titrab, derazani ochdi. Urusxonni ko'rdi-yu, tili gapga ham aylanmay, dovdirab qoldi. Zoliyxon ko'zlarini katta-katta ochganicha unga tikilib turaverdi. Shodlanishini ham, dahshatdan qichqirib yuborishini ham bilmay kalovlanib turaverdi. Urusxonning o'tli qarashi jonsiz joniga jon qaytarganday bo'ldi. Ko'kragida ajib bir ilqlik sezdi. Urusxon ham sevganini ko'rganidan masrur edi, ammo hozir sururli qarashlar fursati emasligini bilardi. Shu bois "Zoliyxon!" deb shivirladi-da, qo'l uzatdi. Uning shu shivirlashida ham, qo'l uzatishida ham amr ohangi zohir edi.

Ikki o't orasida qolgan qizning vujudini dahshat qamrab olib, titray boshladi.

Ha, uning yuragi Urusxonagina atalgan. Ammo u Kerimning qallig'i ekanini ham, sevgan yori esa akasi maqomidagi odam ekanini ham unutgani yo'q. Agar bu dam qallig'iga bevafolik qilib, akasi bag'riga kirsa boshiga ag'anaydigan balo tog'larining dahshatini ham anglab turibdi. Mana shu dahshat uni bu tor xonadan tezgina uchib chiqib ketishiga yo'l qo'yaydi.

Zoliyxonning imillashidan norozi bo'lgan Urusxonning ko'zlarida g'azab uchqunlari chaqnadi:

- Tezroq bo'l! Yurasanmi yo yo'qmi?-dedi u ovozini biroz ko'tarib.

Qizning ixtiyori o'zidan ketdi.

- Ketyapman... ketyapman...- u shunday deb shivirlab, atrofiga qo'rquv bilan qarab oldi.

Erkaklar hovlida, ayollar uyda o'z yumushlari bilan band. U bilan birovning ishi yo'q.

Zoliyxon deraza tokchasida turgan tuvakdag'i gulni pastga olib qo'ydi. Oq shohi ko'ylagining etagini ko'tarib, deraza tokchasiga chiqib o'tirdi.

Dunyodagi eng mash'um va eng dahshatli voqeа sodir berdi: u qonsiragan muhabbatи yo'lida vafoni, qallig'iga bo'lgan sadoqatini qurban qildi. Aslida chala tug'ilgan, endi esa o'lib borayotgan vafo endi uning qalbini chidab bo'lmas darajada eza boshladi.

Suygan yori bilan diydor ko'rishishning shunday bo'lishini orzu qilib edimi? Diydor sevinchi qani? Vujudga iliq rohat baxsh etuvchi ishq o'ti qani? Bulardan asar yo'q. Faqat... vijdon azobi bor, faqat gunohi uchun olajak jazodan qo'rquv mavjud..

Urusxon churq etmaydi. Uni derazadan ko'tarib olib, yerga qo'yadi-da, karam va kartoshka ekilgan tomorqa sari boshlaydi. Keyin ikkovlari tomorqani ihota qilib turgan shoxdevordan oshib o'tadilar.

Ustunga bog'lab qo'yilgan otni Zoliyxon bir ko'rishdayoq tanidi: Zurabniki! "Bu baxt keltirmaydi!" deb o'yladi qiz. Bu fikri vujudida tilroq uyg'otdi. Urusxon bir sakrab otga mindi-da, unga qo'lini uzatdi. Qiz uning qo'lini ushlab, oyog'iga oyoq qo'ydi. Urusxon uni chaqqonlik bilan tepaga tortib oldi-da, orqaga mingashtirib, otni niqtadi. Ular bir zumda tun bag'riga singib, ko'zdan yo'qoldilar. Ilonizi yo'llar ortda qolib, vodiyya olib boruvchi so'qmoqqa chiqib olishdi. Urusxon shoshiladi. Kelinning yo'qolganini sezib qolishguncha bu yerlardan uzoqlab ketishni istaydi. U qancha oshiqmasin, tezlashishning iloji yo'q tik so'qmoqda otning keyingi oyoqlari tiyg'anadi, ba'zan esa o'tirib qoladi.

Zoliyxon Urusxonning belidan mahkam quchib oglancha, o'zini taqdir hukmiga berib, har qadamda jazo kutadi.

Nihoyat vodiyya eson-omon chiqib olishdi. Qizildon yoqalab ketgan ovul yo'li ularning qarshisida oqarib ko'rindi. Urusxon otni tezlatdi. Tun sokinligini ot tuyoqlarining dupuri buzdi.

Zoliyxon yuragini qo'rquv, Urusxon qalbini esa g'azab olovi kuydiradi. Yigit sevgilisining to'yga rozi bo'lganidan xafa. Suymay turib erga tegishga rozi bo'lishi sababini bilolmay ko'ngli xufton.

Tbau cho'qqisidagi g'orda jon saqlayotgan Urusxon Zaarning uyida boshlangan to'y xabarini taom olib kelgan Xadar ismli yosh tutsatdan eshitib, avvaliga nima qilarini bilolmay gangib qoldi. Keyin g'azab vulqoni otashida Xadarga vahshiylarcha tashlanib, uni dast ko'tarib oldi-da, jar yoqasiga keltirdi. "Bor gapni aytmasang tashlab yuboraman", deb qo'rqitdi-yu, to'y voqeasini ipidan ignasigacha bilib oldi. Yigitchani jar yoqasiga keltirishi shunchaki po'pisa emasdi. Tashlab yuborishi hech gap emasdi. Lekin so'nggi soniyada "bolada nima gunoh?" degan fikr uyg'ondi-yu, g'azab olovini jilovlab olishga o'zida kuch topdi. "Mahmadanaligi tufayli, sirni oshkor qilib qo'ygani uchun o'zidan qo'rqadi, qaytib borganida bo'lgan voqeani yashiradi", degan xayolda uni qo'yib yubordi. Keyin fursatni g'animat bilib, yo'nga otlandi. Tbau qoyalarini tark etib, vodiymi kesib o'tdi-da, bo'rining ehtiyyotkorligi bilan Sagat Lamardonga yaqinlashdi. Ot topishga qiyalmadi. Mehmonlarning otlari o'tloqda o'tlab yuribdi. Ammo taqdir unga Zurabning otini nasib etdi. Biroq miltiq topa olmadı. Keyin qosh qorayishini kutib, bog'da yashirinib yotdi.

U Zoliyxonni butun vujudi bilan sevardi. Shu sababli qizni vafosizlikda ayblab, undan g'azablanardi.

Hozir qochib borayotgan bir paytda uni so'kmaydi, ta'na toshlari otmaydi. Hafsiz joyga yetib olishgach, yagona xo'jayin kim ekanini unga o'rgatib qo'yadi.

* * *

Salimat yoniga dugonalarini chorladи-da, kelinning ko'nglini ochish maqsadida bir gapirib, o'n kulib ayollar bo'lmasiga kirib keldi. Xonada kelinning yo'qligini ko'rgan qizlar ostona hatladilaru hayrat va qo'rquv bilan to'xtab qoldilar. Ular alhol qochoqlik haqida o'ylashga ham jur'at etolmasalar-da, ochiq deraza, pastga olib qo'yilgan tuvakdag'i gul bor gapdan xabar berib turardi. Ular sapchib orqaga chekindilar-da, qo'shni xonadagi xotinlarni fojiadan ogoh qildilar. Bu sharmandali xabar yashin tezligida tarqab, mehmonlar qulog'iga ham yetdi-yu, hammalarining hafsalalari pir bo'lib ketishga chog'lanishdi.

Bu voqeani o'zları uchun tahqir deb bilgan To'tarayevlar otlarini tezlikda keltirishlarini mezbonlardan talab qildilar. Tutsatlarning qalbida esa bu onda qasos o'ti alanga oldi. Qiz o'g'risini ushlab, uning qoni bilan nomus-orlarini poklab olganlaridagina, kuyov tomon oldida yuzlari yorug' bo'lgandagina bu alanga pasayishi mumkin edi.

Yigitlar, hatto o'smirlar ham o'tloqqa shoshilishib, otlarini oxtonaga haydadilar. Hech kim imillamadi, garangsib turmadı ham.

Yurtni huiddi qo'qqis yov bosganday, vatan himoyasiga otlanayotganday shoshilishdi. Zero, ular uchun nomusni poklash vatan himoyasi kabi muqaddas burch edi. Otini topolmay g'azablangan Zurab, ko'p ham o'ylab o'tirmay, qo'shning otiga mindi-yu, jonivorga achchiq-achchiq qamchi bosdi. Uning oti birinchi bo'lib yeldekk uchdi. Zurab qizni kim o'g'irlaganini bilib turardi. U

ukasining toptalgan nomusi uchun qasos oladi, ha! Qonsiragan xanjari bugun mal'un qoniga to'yadi, ha! U boshqalarning yetib kelishini kutib o'tirmay, so'qmoqning xatarli ekaniga ham parvo qilmay otni choptiraverdi. Ko'p o'tmay tahqirlangan oilaning a'zolari ham ko'cha changitibunga ergashdilar.

Qochoqlarni tezroq tutish ahgidagi quvloqlar huddi quyun kabi yeldilar. Bir qancha chavandozlar ehtiyojsizlik qilib jarlikka quladilar. Kim chalajon, kim behush holda yotgan yerida qolaverdi. Bezbet olibqocharni, hayo va nomusini unutgan qizni tezroq ushlab, jazolash qasdida ot surayotganlar birodalarining holatlariga e'tibor ham bermadilar. Xatarli jar yoqalab ketgan so'qmoq ortda qolib, vodiy yo'liga chiqishgach, o'rama qamchinlar ishga solindi. Oldinda borayotgan Zaur bilan Zurab o'ylab ham o'tirmasdan otlarini Dargov sari burdilar. Ularning fikricha, qochoqlar faqat shu yo'ldangina yurishlari mumkin edi.

Olishuv

Dargovdan o'tib, Jisxitdagi qabrtoshlari tizilib ketgan o'liliklar shahriga yetib kelishganda Urusxon orqadan otlarning dupurini aniq eshitdi.

- Ular kelishyapti!- deb shivirladi dahshat girdobidagi Zoliyxon.-Kelishyapti! Meni qutqar!

Urusxon otni tezlatmoqchi bo'lди. Ammo tepasida ikki odam bilan og'ir yo'l bosgan jonivor charchagan, og'zi ko'piklanib, arang nafas olardi. Urusxon bu ot bilan uzoqqa borolmasligini anglatdi. Ammo uning olg'a bosishdan o'zga chorasi yo'q edi. O'ng tomoni tik qoyalar bilan to'silgan, chap tomondagi tosh o'zanida Qizildon jo'shib oqadi. Najot yo'li faqat oldinda!

Biroq najotdan umid yo'q. Bu hayot emas, mamot yo'li ekan haqiqatga yaqinroq

Otlarning dupuri borgan sayin yaqinlashyapti.

Urusxon chora umidida atrofga ko'z tashladi. Hamonki qochib qutulishning iloji yo'q ekan, hayotini qimmatroqqa sotmoqqa, bu yorug' dunyoni qahramon sifatida tark etmoqqa qaror qildi. Qachonlardir u do'stlariga maqtanib, chalajon kampirlar singari ko'rpa-yostiqqa mixlanib emas, botir o'g'lon martabasida ko'kragidan o'q yeb o'lish umidida ekanini aytardi.

Uning nazdida o'sha orzusining amalgalash fursati yetdi.

Urusxonning ziyrak nigohi yo'l burilgan joyda, qoyaning yuqori tomonida g'or mavjudligini aniqladi. Ehtimol bu g'or qachonlardir qasoskorlaridan qochib yurgan biron abreknинг boshpanasi bo'lgandir. Endi bu g'or Urusxon hamda sevgilisining xaloskori bo'ladi. U ko'p o'ylamay, otni to'xtatib, egardan sakrab pastga tushdi-da, jonivorning jilovidan mahkam tutganicha tepaga ko'tarila boshladi.

Otlarning dupuri tobora yaqinlashar, ikki jonne asrab qolish ilinjidagi Urusxon esa yanada shoshilardi.

Do'nglikda otliqlarning qorasi ko'rindi.

"Sezmay o'tib ketishlari mumkin",-deb umid qildi Urusxon.

Bu safar umidi unga vafo qilmadi. Oldinda kelayotgan otliq to'xtab, yulduzli kecha bag'rida yuqoriga ko'tarilayotganlarga qarab qichqirdi:

- To'xta-a-a!

Boshqa otliqlar ham to'xtab, qochoqlarga tikilib qolishdi.

Bu onda ko'zlagan manziliga yetib olgan Urusxon otdan epchillik bilan tushgan qizga jilovni uzatdi. Zoliyxon jonivorni yetaklab g'orga kirdi. G'or og'zida qolgan abrek miltiq topolmaganidan pushaymonda edi.

Qasos olovida yonayotgan otliqlar bir qarorga kelolmay tortishib qoldilar. Kuyovning tutingan akasi martabasidan foydalangan Zurab hammadan ko'ra qattiqroq gapirib, g'orni tezlik bilan egallab, mal'unni qiyima-qiyima qilib tashlashni talab etardi.

Zaur abreknинг o'limga mahkum ekanini aniq bilsa ham, qon to'kilishini istamayotgan edi. Ellikka yaqin qurollangan botir yigitlarning yolg'iz va quolsiz turgan o'g'liga hujum qilishlari unga adolatsizdek tuyuldi. Qanchalik gunohkor bo'lmasin, Urusxon uning o'g'li hisoblanardi va Zaur bu haqiqatni inkor eta olmasdi.

Hamonki olishuvda tenglik yo'q ekan, bu er yigitning ishi bo'lmaydi.

Zaur g'orni qurshab olib, nikoh o'qitish uchun Kadgarondan Dargovga yo'l olgan Kerimni shu yerda kutib olishni taklif qildi.

- Qallig'i uchun Kerimning o'zi yakkama-yakka olisha qolsin. Qaysi biri yengsa qiz o'shaniki! Mana shu olishuvda Tbau-uats-Ilaning o'zi qizning kimga tegishli ekanini aniqlab beradi.

- Bu gaping ma'qul, Zaur,-dedi Xadar To'tarayev.-Lekin bu olchoq shunday shartga ko'narmikin?

- Rozi bo'ladi!-dedi Zaur ishonch bilan.-U lattachaynar emas, botir jangchi!

Ruhoniy otaning gaplari Zurabga malol keldi. U g'azabini yashirmay, dag'al ohangda Zaurga murojaat qildi:

- Yaxshi, hammamiz baravariga hujum qilmaylik. Yakkama-yakka jang bo'lsin, desang, men rozman. Ammo ertagacha kutishning nima hojati bor? Zaur, sen undan so'rab ko'r, balki men bilan olishar? U kamning or-nomusi uchun qon to'kishga men hammadan ko'ra haqliroqman.

Aka-ukalik ahvida sadoqatini namoyish qilish uchun Zurabda yaxshi sharoit vujudga kelgan edi. To'planganlar buni anglab, uning qarorini ma'qullashdi.

- Shartning qanday bo'ladi?-deb so'radi undan Motsko Tutsat.

- Shart bitta,-dedi Zurab g'or og'zida turgan raqibidan ko'z uzmay,-so'nggi nafasgacha olishamiz. Ayab o'tirish yo'q.

- Yaxshi,-dedi Zaur, chuqr nafas olib.-Men uning oldiga chiqib, gaplashib ko'raman.

Uning qarori ukalariga ma'qul tushmay, norozi qiyofada boqdilar. Zaur ularning e'tiroz bildirishlariga yo'l qo'yamadi.

- Xavotir olmanglar, u menga hech nima qilolmaydi.

U asta yuqoriga ko'tarila boshladi. Qochoqlarni quvlab kelganlar uning har bir harakatini nafas yutib kuzatib turishdi. Zaur yarim yo'lga yetgach. To'xtab ovoz berdi:

- Urusxon!

Abrek "javob bersammikin yo indamay turaveraymi?" deb ikkilandi. U o'zini fosh qilishni, ta'qib etilayotganini tan olishni istamas edi. U bir qarorga kelgunicha zulmat qa'rini poralab yana Zaurning ovozi yangradi:

- Urusxon! Meni taniyapsan, sen bilan gaplashib olishim kerak!

Ortiqcha ikkilanib turishga hojat qolmagan edi:

- Zaur, men shu yerdaman. Gaplarining aytaver.

- Sen baxtingni, shu bugunoq... hoziroq sinab ko'rishga rozimisan? Biz ko'pchilikmiz. Men ortiqcha qon to'kilishini istamayman.

"Demak, miltig'im yo'qligini bilishmaydi",-deb o'yładi abrek. So'ng bir ozlik suktandan so'ng so'radi:

- Men bilan kim olishmoqchi?

Aslida kim bilan jang qilishning farqi yo'q bo'lsa-da, Urusxon vaqtidan yutish uchun shunday deb so'radi.

- Kerimning tutingan akasi Zurab bilan yakkama-yakka jangga chiqishing kerak.

- Qiz nima bo'ladi?

- Qiz - g'olibniki!-dedi Zaur shoshib. U "xudo hech qachon kufroniyni qo'lllamaydi", deb ishonardi. Endi xov o'sha bayram kuni tog' choqqisida ko'ziga ko'ringan, qonli to'lqinlar ustida qalqib kelayotgan, boshiga xanjar urilgan murdaning Urusxon ekaniga amin bo'layotgan edi.

Pastda qolganlar Zaurning bu ajrimini eshitgach, noroziliklarini yashirishmadi:

- Qiz hech qachon abrekniki bo'la olmaydi!

- Bu sharmandlik!

- Aka-singil qanaqasiga birga bo'lishi mumkin? Axir bu ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan munkirlik-ku!

- Biz bunga yo'l qo'yamymiz!

Birlari olib, birlari qo'yib hayqirayotganlarni, ayniqsa, To'tarayevlarni tinchitish uchun Zaur pastga tushishga shoshildi. U dam baqirib, dam imo-ishora qilib, barchanining jum bo'lishini so'radi:

- Bu ikki badkirdorni ajratib yuborish hammangizdan ko'ra menga lozim burchdir. Tbau-uats-Ila menga baxt kimga kulib boqishini xabar qilgan. Shu bois ham yakkama-yakka teng jangni talab qilyapman.

Bu gapdan keyin g'ala-g'ovur bosildi. Undagi ishonch qasoskorlarning g'azabini yengdi. Uning hotirjamligi boshqalarga ham ta'sir etdi.

- Yaxshi, sen aytgancha bo'lsin olishsa olishaqlisin,-dedi Aldian To'tarayev.

Malladan kelgan, ko'zlar esa ko'm-ko'k xushsurat bu osetin yigitning qarori boshqalar tomonidan ma'qullangach, Zaur yana yuqorida g'or tomon chiqib, Urusxonni olishuvga chorladi.

- Hammasi qonunlarimiz va urf-odatlarmiz yo'rig'ida halol ravishda bo'ladi. Kim tirik qolsa qizni o'lja kabi o'zi bilan olib, yo'lida ketaveradi,-deb ishontirdi u.

Urusxonning boshqa chorasi yo'q edi. G'or ichkarisida hamma gaplarni titriganicha eshitib, havotirini yenga olmay turgan baxtsiz qizga qarab:

- Sen shu yerda qolasan!-deb amr etdi. Keyin yumshoqroq ohangda qo'shib qo'ydi:-Bu ayollar ko'radigan tomosha emas.

Qiz amrga itoat etmay, oldinga bir qadam bosib, najot tilaganday, qaltiroq qo'lllarini u tomon uzatdi. Ketishi oldidan qizga nisbatan bo'lgan gina-kuduratlarini unutgan Urusxon bir narsaga amin: qiz faqat unigina sevadi. Butun borlig'ini ungagina baxsh etgan. Agar qo'yib bersa Zoliyxon ko'kragini ajal o'qlariga qalqon qilib, sevgan yorini himoya qiladi. Hozir qo'lllarini uzatib, unga Ilia xudosidan panoh tilamoqchi, gunohlarini kechirishini iltijo qilmoqchi. Qaltis jangga otlangan Urusxon bunday nozik hislar og'ushida xayrashishni istamadi.

- Bema'hi ayollar kabi g'ashimni keltirma!-dedi u hokimona ohangda.

Xayrashuv oldidan dilbarini suyib, o'pmadi, mehri jo'shib, bag'rige bosmadi. Lablaridan "meni kechir" degan mardlarcha so'z ham uchmadi. G'or og'zida xaloskorisiz qolgan qizning bag'ri qon bo'lib, ko'zlaridan qaynoq yosh quyildi. Otning bo'yning osilib, yuzini uning terga botgan yollari orasiga yashirdi. Nazarida dunyoning barcha g'am-alamlari uning vujudini ezib turgan, atrofi odamlarga to'la bo'lsa-da, ular orasidan bitta hamdard topilmaydi. Sevgan yorining esa qahri qattiq. Shunday ekan, jonivordan o'zga hech kimi yo'q....

Aqlii jonivor qizning tilga ko'chmagan xasratlarini tushunganday, oldingi oyoqlari bilan yerni asta-asta tepib, iliq nafasi bilan yengil pishqirib, "dardingni men olaman", deganday uning kuylaklari etaklarini hidlab-hidlab qo'ydi.

Bu orada Urusxon mag'rur qadamlar bilan pastga tushdi.

Qasos ilinjida ta'qib etib kelganlar, ovul yo'lini halqa qilib o'radilar. Urusxon ularga yaqinlashib, musht qilib tugilgan qo'lini ko'kragini bosib, salom berdi.

Salomi aliksiz qolmadidi.

Zurab g'azabli nigohini unga tikib turardi. U hoziroq xanjarini yalang'ochlab, uning kallasini uzib tashlashni istardi. Lekin urf-odatga sadoqat hissi uni bu g'azabli hamladan ushlab turardi.

Zaur Urusxonning vakili, Temir To'tarayev esa urug'-aymog'ining kattasi sifatida oldinga chiqishdi. Boshidan necha alg'ov-dalg'ovli yillarni o'tkazgan Temir yoshi ulug' bo'lgani uchun urug'ining kattasi hisoblanardi. Har qanday sharoitda ham urf-odatlarga bo'yishinishni talab qiluvchi bu odam davradagilarga bir-bir qarab oldi-da, dona-dona qilib, shoshilmay gap boshladidi:

- Inilarim! Bu ikki yigit o'z baxtini sinab ko'rish uchun hayot yoki mamot olishuviga bel bog'lashibdi. Jang halol bo'lishi kerak. Gunohkorni xudoning o'zi jazolagay! Bularning biridan xudo omonatini olmagunicha jang davom etaveradi. Bularning istagi shu. Xudo ham shuni xohlayapti. Ayab o'tirish yo'q!

Temir To'tarayev gapini tugatib, bir-birining qonini to'kishga shay turgan ikki yigitga qaradi. Endi raqiblar ajdodlar odatiga amal qilib, bir-birlariga qo'l uzatishlari va uzrxohlik qilishlari shart.

Temirning qarashidagi ma'noni uqqan Urusxon mard yigitlarga hos qadam tashlab Zurabning qarshisiga keldi. Uning qalbidagi g'azab va nafrat o'ti bu on so'nganday bo'lди. U boshdan papog'ini oldi-da, raqibiga hurmat bilan shunday dedi:

- Zurab Kodat! Hozir so'nggi nafasimizgacha jang qilish taqdirimizda bor ekan. Bu xudoning irodasi! Ikkovimizdan birimizning yurak qonimiz hozir mana shu turgan yermizni sug'oradi. Birimiz shu yerda jon berishimiz kerak. Qay birimiz haqimiz xudoning o'zi ajrim qilib beradi. Agar seni o'ldirgudek bo'lsam, meni kechir.

Zurab undan ko'z uzmagan holda gaplarini diqqat bilan eshitdi. So'ng u ham papog'ini qo'liga olib, javob so'zlarini aytdi:

- Urusxon! Hozir Tbau-uats-Ila ikkalamizdan birimizga o'lim hukmini chiqaradi. Agar xanjarim senga o'lim hadya etsa, meni kechir!

Raqiblar bir-birlariga qo'l berdilar, so'ng quchoqlashdilar. Atrofdagilar ularni darrov ajratib qo'yishdi. Temir To'tarayev yengilgina yo'talib yana so'z boshladidi:

- Men to'pponchadan o'q uzishim bilan olishuvni boshlaysizlar. Qarsaklar tovushiga diqqat qiling: qarsaklarning qattiq bo'lishi yoki pasayishiga qarab, bir-birovingizga yaqinlashganingiz yoki uzoqlashayotganingizni aniqlab olasiz. Endi menga ikkita qulqochin beringlar.

Tog'liklar "bashlik" deb nomlovchi yengil qulqochin bilan raqiblarning ko'zlarini bog'lanishi lozim edi. Aldian To'tarayev yelkasidagi qulqochinni olib, Zurga uzatdi. Urusxon esa o'zining qulqochinini Temirga berdi. Zaur bilan Temir qulqochinlarning yirtig'i yoki teshigi yo'qmikin, deb sinchiklab tekshirishdi. Qulqochinning butunligiga ishonch hosil qilishgach, avval Urusxoniga

yaqinlashdilar. Qulochchini boshiga kiyg'izib, yeng kabi yelkada osilib turuvchi uzun mato bilan yuz-ko'zlarini bog'lab qo'yishdi.

Bu jarayon paytida Urusxon mutelik bilan turdi, churq etmadi.

Zaur bilan Temir Zurabga yaqinlashishdi.

Zurab boshidan papog'i olib, osmonga qarab iltijo qildi:

- Tbau-uats-Ila! Sadoqatl bo'lishga ont ichganim tutingan ukam nomusi yo'lida jang qilish imkonini berganining uchun o'zingga shukrlar aytaman! Agar sening irodang ila o'lim menga nasib etsa, Kerimning nomusini deb ko'z yumayotganim uchun ham roziman o'zingdan! Sen o'zing barcha narsani bilguvchisan, hammasiga o'zing guvohsan. Bizning bahsimizni o'zing adolat bilan hal qilib berguvchisan! Omiy!

Atrofdagilar baravariga "Omiy! Omiy!" deb uni quvvatlashdi.

Zurabning yuz-ko'zi ham o'raldi. Zaur Urusxonga yaqin kelib, uni turgan yerida bir necha marta aylantirdi. Urusxon raqibining qayerda turganini chamalash imkonidan mahrum bo'ldi. Temir Zurabni ham huddi shunday aylantirgach, belidagi kamarida osig'liq turgan to'pponchani chiqarib osmonga qarata o'q uzdi.

Raqiblar baravariga xanjarlarini yalang'ochlashdi. Bo'yiali balandroq, qo'llari uzunroq bo'lgan Urusxonning g'alabaga ishonchi zo'rroq edi.

Atrof bir nafaslik o'lik sukunat hukmida qoldi. Hatto pastda jo'sh urayotgan Qizildonning shovqini ham tinganday bo'ldi. Hamma nafas yutib ularning harakatini kuzatadi. Arzimas tuyulgan sharpa ham raqiblardan biriga yo'l ko'rsatib qo'yishi mumkin. Shu bois barchanining jim turishi shart. Raqiblardan biri davraga yaqinlashsagina sharpasiz chekinishlariga ijozat etiladi.

Urusxon birinchi hamladayoq raqibiga xanjar urish ishtiyoyida yonadi.

Temirning ishorasi bilan davradagilar huddi raqs paytidagi kuyga jo'r bo'lganday qarsak chala boshladilar. Raqiblar bir-birlariga orqama orqa turganlari sababli qarsak ovozi pastroq edi. Urusxon ehtiyyotlik bilan bir necha qadam bosib raqibidan uzoqlashgan edi, qarsak tovushi yanada pastlashdi. Zurab raqibidan uzoqlashganini anglatdi. Urusxon keraksiz tomon yorganini sezib, orqasiga keskin o'girildi. Qarsak ovozi balandladi-yu, raqiblar yanada sergak tortdilar. Urusxon o'ljasiga pusib yaqinlashayotgan yo'lbars kabi ehtiyyotlik bilan qadam bosardi. U raqibiga ro'para kelmay, yana yonidan o'tib ketgach, qarsak ovozi pastladi. Urusxon o'girildi-yu, to'xtab, biron sharpani ilg'ash maqsadida atrofga ziyraklik bilan qulqoq tutdi. Bu safar Zurab yura boshladi. Qarsak balandladi. Urusxon "raqibim yonimda turibdi", degan o'ya xanjar urdi. Ammo uning o'tkir xanjari faqat havoni kesib o'tdi xalos. Qarsak ovozi yana kuchaydi, so'ng birdan tindi. Bu raqiblarning yaqinlashib qolganlariga ishora edi. Urusxon chaqqonlik bilan sakradi. Shu sakrashida raqibni yerga yiqitib, ichak-chavag'ini ag'darib tashlashni niyat qilgan edi. Biroq mo'ljalni olishda yanglishdi. Zurabning yonginasidan o'tib ketdi. Zurab esa fursatni boy bermadi, xanjarini siltagan edi, tig' raqibining biqinini tilib ketdi. Urusxon yaralangan yo'lbars misoli bir na'ra tortdi-yu, Zurab bor, deb taxmin qilgan tomoniga tashlandi. U qorni, sonining qonga belanganiga ham parvo qilmay, yashin tezligida harakat qilib, yon-atrofida xanjar o'ynata boshladi. Raqibining yaralanganini bilgan Zurab ayyorlik qilib, o'tirib oldi-da, mushuk kabi payt poyladidi.

Raqiblar orasidagi masofa oshdi. Yana qarsak yangradi. Endi baxt Zurab tomon kulib boqqanday, Urusxonning baland bo'y, uzun qo'llaridan naf yo'qday edi. G'azab va og'riqdan xansirab, joyida turib qolgan Urusxon kuchdan ketganini sezdirib qo'ydi. Zurab esa sapchishga tayyor holda unga pusib yaqinlashdi.

Ular orasidagi masofa qisqargach, qarsak yana tindi. Yarador Urusxon xanjarini siltab yana havoni kesa ketdi. Zurabning xanjari ham havoda o'ynay boshladi. Birdan ularning xanjarlari bir-biriga urilib, jarangladi. Kodat o'g'li endi nima qilishi lozimligini o'ylagunicha Urusxon chap qo'li bilan uning o'ng qo'lini ushlab oldi. Ammo abrek o'ng qo'li bilan unga zarba berishga ulgurmadi. Zurab chaqqonlik bilan xanjarini chap qo'liga oldi-da, raqibiga bor kuchi bilan tig' sanchdi. Urusxonning qarshiligi so'nib borayotganini sezgan Zurab muddaosiga yetganiga ishonch hosil qildi.

Urusxon muvozanatini yo'qotib, gandiraklaganicha orqasiga chekindi. Xanjarini tashlab, qon otileyotgan bo'g'zini ushlabi. U na'ra tortgisi, bularni la'natlagisi keldi. Ammo ovoz o'rniga yovvoyi xirildoq eshitildi xalos. U gursillab yiqildi.

- Tbau-uats-Ila! Tbau-uats-Ila!-deb qichqirdi Zurab tantanavor ohangda. U raqibi yiqilgan joyni taxmin qilib yurdi. Deyarli harakatsiz yotgan Urusxonning gavdasiga qoqilib yiqilsa-da, xanjarini qo'lidan tushirmadi.

O'lim talvasasidagi Urusxonda yana g'azab va qasos hissi uyg'ondi. U jon bermasidan oldin raqibini bo'g'ib o'ldirgisi keldi. Ammo behol barmoqlari Zurabning tomog'i izlab topolmadi. Raqibining chap qo'lini paypaslab topib, bemajolGINA siqdi. Zurab esa qaddini ko'tarib, tiz cho'kdi-da, uning yuziga bor kuchi bilan xanjar urdi. Xanjar zarbidan suyaklarning qisirlab ketganini atrofdagilar ham eshitishdi. Chap bilagini siqmoqchi bo'layotgan qo'l birdan bo'shashdi. Zurab to'la g'alaba qozonganini anglatdi. Urusxonning baquvvat gavdasi so'nggi marta bir silkindi-yu, jon taslim qildi.

Hamma yog'i raqibi qonidan qizarib ketgan Zurab shunda ham jasadni qo'yib yubormadi. Sodiq hamrohi bo'lgan xanjaridagi qonni Urusxonning kiyimiga artib, qiniga soldi-da, musht qilib tugilgan qo'llarini yulduzli osmon sari uzatib, jon-jahdi bilan qichqirdi:

- Tbau-uats-Ila!

Tutsatlar ham To'tarayevlar ham xudolariga shukrona bildirish maqsadida bosh kiyimlarini olishib, unga jo'r bo'lishdi:

- Tbau-uats-Ila!

Ruhoniyalar shu onning o'zida xudolarini sharaflovchi g'alaba madhiyasini ayta boshladilar. Ularning bu jarangdor qo'shiqlari vodiy va dovonlar tinchini buzib, xudoning amri bajo keltirilganini Sagat Lamardonga xabar qildi.

G'oliblik bulutida suzayotgan Zurab yuz-ko'zlarini bog'liq holda jim turibdi. Odatga ko'ra har qanday sharoitda ham yuzini ochishga uning haqqi yo'q. Taqdirga tan bergen Zaur Zurabga yaqinlashib, yuz-ko'zlariga bog'langan qulqochchini yechdi. Temir botir o'g'lonni bag'rige bosdi. Hayajon og'ushidan qutula olmagani uchun tili gapga kelmadi. To'tarayevlar birin-ketin yaqinlashib, Zurabni olqishlashdi. Urf-odatga bo'yinishga majbur bo'lib, abreknii o'z oila a'zolari sifatida qabul qilgan tutsatlar ham olishuvning bunday oqibatidan mammun ekanliklarini yashirishmadidi. Ularning nazdida ilohlari gunohkorni jazolab, uzoq davom etgan tashvishli kunlarning baxtli yakunini bergen edi. Shu voqeja tufayli odamlarning xudolari qudratiga ishonchi va yerdagi noiblari hisoblan mish ruhoniy larning avom orasidagi obro'-e'tibori oshajagidan ular ayniqsa mammun edilar.

Hamma g'alaba nashidasi bilan mast bo'lib turgan damda Zaur hukumat tomonidan va'da qilingan mukofotni eslab qoldi. U Tambini chetga tortdi-da, pichirlab maslahatlashdi. Maslahat tezda pishdi: og'a-ini abreknining jasadini biror qabrga ko'madigan, kallasini esa uzib, shaharga olib topshiradigan bo'lishdi. Tbau-uats-Ila bu kufroni yning boshini tanidan judo qilish evaziga hukumatdan besh ming rubl olish baxtini bu ruhoniylariga nasib etgan ekan, kim ham iddoo qilishi mumkin? Akasidan fotiha olgan Tambi jasadga yaqinlashdi-da, xanjarini yalang'ochlab, qulqochinga o'rog'lik kallani tanadan uzib olib, xurjuniga soldi. O'lim topgan raqibining xanjari, enli kamari va cherkascha kamzuli ko'kragiga qadalgan o'qdon odat tartibiga ko'ra Zurabga nasib

etdi.

Otiga chaqqon mingan Xadar Tutsatga o'likni uzatishdi. U hali qoni qotib ulgurmagan bosh siz jasadni otning bo'yning qo'yib oldi. Inson qonining hidi dimog'iga urilgan ot asabiy ravishda pishqirdi. Ammo egasi jilovni qattiq tortib turgani uchun joyidan jilolmadi. Zaurning ishorasi bilan bir necha yosh tutsatlar otlariga minishgach, Sagat Lamardon sari yurdilar.

Nomus

Ular nari ketishgach, Zaur Temir, Tambi, Zurab va yana bir necha To'tarayevlar hamrohligida yuqoriga, qizi qolgan g'orga ko'tarila boshladi. G'orda faqt otni ko'rishdi, Zoliyxon yo'q edi. Zurab g'or qorong'iligida ham otini tanib, ichida raqibini yana la'natlab qo'ydi.

Ular Zoliyxonni qancha qidirishmasin, qancha chaqirishmasin, javob bo'lmadidi. Umidlari sinib pastga qaytib tushishmoqchi bo'lib turishganda, g'or og'zdan nariroqda, jar yoqasidagi maydonchada oq narsaga Zurabning ko'zi tushdi. Pastdag'i olishuv kaftdek ko'rini turadigan maydonchada Zoliyxon behush yotardi. Behush qizni o'rab olganlar unga jimgina qarab turishdi. Jimlikni Zaur buzdi. U Tbau-uats-Ilaning gunohkorni jazolaganini, bu haqda ilohiy kechada Tbau cho'qqisisida xabar berilganini, niyoyat ilohlarining yana bir ixtiyori amalga oshajagini, ya'nii Zoliyxonning Kerimga xotin bo'lajagini aytdi.

Temir uning gaplarini bo'lmay eshitdi. Keyin bosh chayqab, uning keyingi bashoratini qat'iy ravishda rad etdi:

- To'tarayevlar nomus-or nimaligini yaxshi biladilar. To'tarayev o'g'onlarida nikoh kechasi o'ynashi bilan qochib ketgan behayo qizga uylanish odati yo'q!

Tutsatlar lab tishlab qolishdi: Temir haq!

Zaur Kerimning Zoliyxonga uylanishi xudoning irodasi ekanini yana qaytarib aytdi.

- Kim biladi, buning qizlik nomusi qolganmi yo yo'qmi?-dedi Temir yana qaysarlik bilan.

- Bunday gumonga borma,-dedi Tambi.-Biz ularni izma-iz ta'qib qilib keldik. Bunaqa ishni o'ylashga ham fursatlari bo'lмаган. Yaqindagina nomus yo'lida yakdil bo'lganlar endi aynan nomus masalasida ayri-ayri bo'ldilar. Birlarining gaplari ikkinchilariga to'g'ri kelmay, uzoq bahslashdilar. Niyoyat, kuyovning kelishini kutishga qaror qildilar: "Zoliyxonga uylanadigan Kerim nima desa shu bo'ladi". Hanuz behush yotgan Zoliyxonni bo'rk ustiga oldilar-da, avaylab ko'targanlaricha asta-sekinlik bilan pastga olib tushdilar.

Qizni yo'l chetiga yotqizib, tun sovug'i ta'sir qilmasin, deb ustiga bo'rk yopdilar. Kuyovning qarorini bilmay turib tarqalishni hech kim istamadi. Yigitlar qoya panasida gulxan yoqdilar. To'rt yigit taom keltirgani ketdi.

Zurab kuyovning tutingan akasi, kelinning yaqin kishisi sifatida Zoliyxonga xizmat qilish istagini bildirdi. Daryo labiga tushib papog'ini muzdekk suvg'a to'dirgach, asta yuqoriga chiqdi-da, behush qizning yuziga sepdi. Baxtsiz qiz o'ziga keldi. Qaddini ko'tarib atrofiga alanglatdi. Qayerdaligini anglatdi. Bir necha daqiqqa ilgari shu joyda yuz bergan dahshatli fojia yana ko'z oldida gavdalandi. Ko'zlarini katta-katta ochganicha tebranib o'tiraverdi. Birozdan so'ng tebranishdan to'xtab, ro'molchasini olib, yuzini artdi. Shundan so'ng go'y o toshdek qotib o'tirdi.

Zurab tun bo'yи undan ko'z uzmadi.

Kuyov navkarlari bilan visolga oshiqayotgan Kerim dovonga yetib kelganida quyosh ancha balandlagan edi. Yo'l bo'yida to'planib turgan odamlarga ko'zi tushib, avvaliga ajablandi. Yaqinroq kelib, tanishlarini, qarindoshlarini ko'rdi-yu, hayrati yanada oshdi. Otdan sakrab tushishi bilan Zurab unga birinchi bo'lib yaqinlashdi. Abrekning kelinni olib qochgani, shu yerda qo'lga tushganini shosha-pisha aytib berdi.

- Urusxon qani?-deb so'radi Kerim, g'azabdan vujudi yonib.

- Ajali uni shu yerda kutib oldi,-dedi Zurab kamtarlik bilan. Olishuv haqida gapirib o'tirmadi. "Vaqti kelganda boshqalardan eshitib, bilib olar", deb o'yladi.

Kerimning xayoli hozir boshqa muhim masala bilan band, shu bois Urusxonning qanday o'ldirilgani bilan qiziqmadni:

- Zoliyxon qani?

- Ana, bo'rk ustida o'tiribdi. Kerim, sen undan...

Zurab "shubhalanma" demoqchi edi, Kerim uning gapini shart uzdi:

- Otam nima deydi?

- Endi uylanish yo uylanmasligingni o'zing hal qilar ekansan.

Ular to'planib turgan odamlarga yaqinlashdilar. Salom-alik jimgina, g'oyat sovuqlik bilan o'tdi. Kerimning ko'zi yo'l yoqasiga to'shalgan bo'rk ustida uqlab yotgan Zoliyxonga tushdi. Zaur nomusini toptalgan kuyovi bilan gaplashib olishi zarur ekanini anglatdi.

- Kerim To'tarayev, men va mening ukalarim hozir sening qarshingda uyatli holda turibmiz. Sen o'z marhamatingni ayamay, tutsatlar avlodidagi qizga uylanish istagini bildirding. Ammo biz uchun ham kutilmagan, ko'z ko'rib quloq eshitmagan sharmandalik yuz berdi. Bizga o'g'il bo'lib tutingan odam odatimizga xiyonat qilib, qizni olib qochdi. Qiz zo'r lab olib qochilganmi yo o'z xohishi bilan qochganmi, buni biz bilmaymiz. Ammo biz gunoh ishga qo'l urmaslaridan ularni tutdik. Endi hamma gap o'zingda qoldi: unga uylanib, uyingga olib ketasanmi yoki nikohni rad etib, qizimizni o'zimizga qaytarib berasanmi?

Bu gaplar to'planganlarga ma'qul kelib, o'zaro shivirlashib olishdi.

Hayajon va qarama-qarshi xislar to'foni ta'siridan Kerimning chiroyli yuzi oqarib ketdi. Nima deb javob berishni bilmay, otasiga najot ko'zi bilan qaradi. Temir o'g'lini davradan chetroqqa boshladi. Yoshi ulug' To'tarayevlar ham unga ergashdilar.

Temir o'g'lining erkini butunlay o'ziga bergani holda Zoliyxonga uylanish uni baxtli qila olmasligini, eng muhimi bunday beor qizni o'z oilasiga qabul qilish o'ziga ham, aka-ukalariga ham ancha og'ir kechishini ta'kidlashni unutmadi.

Kerim otasining ahvolini tushunib tursa ham Zoliyxon dan voz kecha olmaydi. Bir necha yil mobaynida shu qiz ishqida azob chekkan yigitning, mahbubasiga yetishay deb turganda undan yuz o'girishi osonmi? Qiz tomonidan muhabbat bo'lmasa-da, unga yetishish fikri hamon ustun edi. Raqibi halok bo'lgach, sevgisi yo'li batamom tozalanganiga ishonch hosil qilgan edi.

- Men u bilan gaplashib ko'ray,-Kerim shunday deb qiz tomon yurdi.

Ammo otasining ovozi uni to'xtatdi. Temir uni holi joyga boshladi:

- Bir narsani bilib qo'y: nomusi bulg'angan qizni uyimga olib kirishingga yo'l qo'ymayman. Bu masalada hukm bitta bo'ladi, shuni bilib qo'y!

Kerim: "tushundim, ota!" deganday qo'lini ko'ksiga qo'ydi-da, qiz tomon yurdi. G'ala-g'ovur tufayli qush uyqusidan uyg'ongan Zoliyxon uni ko'rib, hurmati yuzasidan o'mnidan turdi. Uning oq shohi ko'ylagi g'ijimlanib ketgani yigitning nazaridan chetda qolmadi. Kerim nomusiga bu qadar og'ir zarba bergan qizga qarab, nima deb gap boshlashini bilmay garangsib turib qoldi. O'zini

maftun qilgan go'zal chehraga qarab, g'am-alam bulutining qorong'i soyasini ilg'adi. Qizga bo'lgan nafrati va g'azabi pitcha susaydi. Shu bois ham uning ovozi mayin va beozor chiqdi:

- Zoliyxon, men seni ayblamayman. Sevgan odaming o'libdi. Bunday g'amni ko'tarishing qiyinligini bilaman. Ammo sen ham bilib qo'y: sen sevmagan kimsa hali ham seni deydi, sendan voz kechishni xayoliga ham keltirmaydi. Qalbingda unga o'r'in bo'lmasa ham, u seni uyiga olib ketishni istaydi. U dunyo tashvishlaridan seni panofiga olmoqchi. Uning qanotida bo'sang, balki g'amrlaringni asta-sekin unutarsan.

Yigit gapirayotgan paytda qiz osetinlarning odatiga rioya qilmaydi boshini egmaydi, ko'zlarini yerga tikmaydi. Tosh kabi qotib qolganday unga baqrayib qarab turaveradi. Qofqazlik erlar hech qachon xotinlarni erkalamaydilar. Bunga ko'nikkan xotinlar hech qachon ulardan bunday lutf kutmaydilar. Hozir esa... o'zga hol yuz berdi. Haqoratlarga loyiq qizga bunchalar mehribonlik?..

Zoliyxon o'z quloqlariga ishonmasa ham, yigitning gaplaridan keyin g'am to'la yuragi yumshadi. Ko'rgan dahshatlaridan keyin ilk marta yig'i kelib, ko'nglini bo'shatdi. Uning ko'zlaridan quyilgan yosh seli yonog'idan oqib, ko'ylagiga tushdi. Qiz shundagina uni shunchalar sevgan Kerimga bevafolik qilib qanchalar gunohga botganini sezdi. Chekingan g'ami o'rnnini jinoyatini anglash tuyg'usi, uyat va sharmandalik hissi egalladi.

Zoliyxon o'zini boshqara olmay qoldi. Beixtiyor ravishda yigit qarshisida tiz cho'kdi.

- Oh, Kerim! Nimalar deyayotganiningni o'zing bilyapsanmi? Men sening bunday gaplaringga munosib emasman!

Chetda turganlar bu holatni ko'rishi "qiz kechirim so'rab yolvoryapti", deb o'ylashdi.

Kerim qizning gapini bo'ldi:

- Zoliyxon, nima qilish kerak? Otam bilan qarindoshlarim ixtiyorni o'zimga berishdi. Endi sening istagingni bilishim kerak: men bilan birga ketasanmi?

- Kerim, sen meni hurmat qilmasliging, gaplarimga ishonmasliging ham mumkin.

- Zoliyxon,-dedi yigit titroq ovozda,- g'amingga befarq emasman, senga hamdardman. Pushaymoningga ham, tavbangga ham ishonaman.

Qiz yigitning bu marhamatini qabul qila olmadi. Keskin bosh chayqadi:

- Men bunga loyiq emasman. Men senga bevafolik qildim. Haddim sig'magan odamga qo'ngil qo'ydim.

Kerim qizni kechirishni istaydi:

- Balki u seni qo'rqtigandir... zo'rlagandir?

- Yo'q, men o'z ixtiyorim bilan unga ergashdim,-dedi qiz yana o'jarlik bilan.

- Bo'lar ish bo'lib o'tdi,-dedi sof qalbli Kerim.-Tbau-uats-Ilaning hukmi ijro etildi. Endi u xudoning huzurida hisob beryapti. Sen bilan ikkimiz hali yer yuzidamiz, quyosh nuridan bahramand bo'lyapmiz, ilohimiz bizga hayotni in'om etdi. Zoliyxon, men sening javobingni hozirning o'zida otamga yetkazishim kerak. Agar sen o'zingni mening oldimda aybdor deb hisoblayotgan bo'lsang, nima uchun gunohingni yuvishni istamayapsan? O'tgan gaplarni unutaylik, men sendan mehrimni ayamayman. Sen ko'p alam tortding. Kel, qo'lingni ber, kelajakdag'i hayot yo'llarimizni birlashtirib, birgalikda bosib o'taylik. Shunday qilsak, bugungi zulmatlar chekinib, bizga ham nur kulib boqar? Sagat Lamardonga qaytib borishing senga juda og'ir bo'ladi. Oxirgi marta so'rayapman: men bilan birga ketishni istaysanmi?

Bu gaplardan keyin ilosiz qiz asta shivirladi:

- Agar xohishing shu bo'lsa, sen bilan birga ketaman. Umrinni oxirigacha faqat sen uchungina yashayman.

Bundan mammun bo'lgan yigit yengil ta'zim qilib orqasiga o'girildi, lekin asosiy narsani so'ramagani yodiga tushib, to'xtadi.

To'xtadi-yu, ammo so'rashga tili bormadi, istihola qildi. Lekin so'rashga majbur edi, shu bois tutila-tutila so'z boshladi:

- Zoliyxon... meni avf et... yana bir narsani... so'rashim kerak... Buni so'rashni otam talab qilyapti... U seni olib qochganida... kechasi... kechirasan... oralaringga biron nima bo'lmadimi?..

Kerim ochiq gapirolmagani bilan, Zoliyxon uning maqsadini uqib, izza chekdi. Nechog'li uyatli bo'lmasin, majburiyat yuzasidan berilgan savolga javob qaytarishga majbur edi.

- Yo'q, yo'q, Kerim! Bunga... uning vaqt ham... imkonni ham yo'q edi... Biz otga o'tira solib shu yergacha qochib keldik. Hech bir yerda to'xtamadik. Izma-iz quvib kelishdi.

Bu javobdan keyin Kerimning yelkasidagi tog' ag'anaganday, yengil tin oldi:

- Men shundayligini bilardim. Men senga ishonaman. Aniqlashtirib olganim yaxshi bo'ldi, Zoliyxon. Endi nomusli qiz sifatida ostonamizga qadam qo'yishningni otamga aytaman.

Yigit ketdi.

Qiz sofdil bu yigitning orqasidan yugurib, haqiqatni aytmoqchi ham bo'ldi, ammo uyat va g'ururi bunga yo'l bermadi. Hatto oyoqlari ham o'ziga bo'ysunmay qoldi. Uning gunohi katta va qo'rqinchli ajdaho qiyofasini olib, qarshisida qad rostladi-yu, butun olamni guldiratib qichqirdi:

- Bilib qo'y, hoy nomussiz qiz! Bu ham Tbau-uats-Ilaning jazosi!

Nikoh

Kerim javobni intiqlik bilan kutayotgan davraga qaytdi. Uning qarorini har kim har hil kayfiyatda qabul qildi. Birov ma'qulladi, boshqasi uni nomusni qadrlay olmaslikda aybladi, yana birov afsus, yana boshqasi ajablanish bilan bosh chayqab qo'ya qoldi.

Kuyovning ahdini eshitgach, Zaurning yuragini majaqlab turgan xarsanglar quladi. Qaysi bir yigit shuncha gap-so'zdan keyin ham nomussizlikda ayblanib turgan qizga uylanaman deydi? Har holda bu tomonlarda uchramaydigan kamyob hodisa!

To'tarayevlarning yoshi ulug'lari bir nima demasalar ham, yoshlari Kerimning bu bo'shangligidan g'azablanishdi. Undagi muhabbatni bema'ni deb bilib, hafsalalari pir bo'ldi. Ularning qat'iy fikricha, Kerim qizni aslo kechirmasligi kerak edi. Yaxshiki, bunday hollarda yoshlarning fikri inobatga olinmaydi, yo'qsa Kerim og'ir ahvolda qolgan bo'lardi. Kerim otasiga Zoliyxonning iffatlari, or-nomusli qiz ekanini ishонч bilan aytgach, Temir o'g'lining bu qaroriga qarshi chiqmadi.

Biroq Kerim kelinni davraga boshlab kelganda uni sovuq qarshi oldilar. Salomi aliksiz qoldi. Zaur bilan Temir nikoh soat o'n birga belgilanganini eslatgach, barchalari shoshib otlariga mindilar.

Zurab kelinga g'ordan olib tushgan otini ro'para qildi. Ot qizga qarab asta pishqirib qo'ydi. Zoliyxonning nazarida jonivor "Sevginingi darrov ko'mib bo'ldingmi? Muhabbat o'tining so'nishi shunchalar osonmidi? Vafodor bo'laman, deb qasam ichib eding. Seni hali qasam urmasaydi..." deb malomat qilganday bo'ldi. Qiz o'zining xayoliga kelgan bu gaplardan seskanib, ortiga chekinmoqchi bo'ldi-yu, o'zini qo'lga olib, itoat bilan otga mindi.

Hamma nikoh o'qiladigan cherkov tomon yurdi. Faqat Tambi shaharga qarab yo'l oldi. U hozir xurjunida qappayib turgan kalla evaziga hukumatdan mukofot olish umidida mast edi. Ammo shaharga borgach, hukumat odamlariga bu kallaning Urusxonni ki ekanini isbotlay olmasligini o'ylab ham ko'rmasdi. Dalil uchun abreknning qarindoshlaridan, yoki hech bo'limganda uni taniydig'an ovuldoshlaridan birini olib borish zarurligini u qaydan ham bilsin. Katta pul ishqida ketayotgan Tambining ertaga quruq qo'l bilan qaytishini uni umid ko'zi bilan kuzatib qo'yanlar ham bilishmaydi.

Tambi o'z yo'lida, nikoh karvoni esa o'z yo'lida ketib boradi.

Nikoh karvoni... Ajab, Ajab! As'asa-yu dabdaba qani? Shodiyona-yu tantana qani? Yigitlarning sho'xliklari qani? Quvonch ramzi bo'lgan otishmalar qani? Yo'q... Hech narsa yo'q! Bu karvon to'yni emas, motam marosimini eslatardi. Temir bilan Zaurning o'talarida yonma yon borayotgan kelin bilan kuyov jim. Ortda borayotgan chavandozlar ham jim.

- To'ya ketyapmizmi yo o'lik ko'mganimi?-deb o'laydi ko'pchilik.

Pravoslav ruhoniysi ularni qishloqning kichkinagina cherkovida kutib oldi. Bu yerda o'qiladigan nikoh ahdi bilan Zoliyxon bilan Kerimning er-xotinlik maqomi qonun kuchiga kiradi. Folbinlikni kasb etgan osetin ruhoniylari qonun kuchiga kiruvchi bunday marosimlarni bajarish huquqiga ega emasdilar.

Kelinning ezgin aft-angori, g'ijimlangan ko'ylagi, faqat erkaklar hamrohligida kelishi ruhoniyni shubhaga soldi. Nikoh o'qisammi yo o'qimasammi, deb ikkilandi. Ammo Zaurning qo'lini siqib, ma'nodor qarab qo'yishidan keyin shubhani bir chetga yig'ishtirib qo'yib, nikoh marosimini risoladagiday boshladi.

Zurab bilan Aldian To'tarayev kelin va kuyovning boshlari uzra oltin halli chambarakni ushlab turishdi.

Nikoh marosimi yakuniga yetgach, tutsatlar Sagat Lamardonga qaytish tadorigini ko'rishdi. Ammo Temirning iltimosini yerda qoldirishni ep ko'rmay, yoshlar Kadgaronga to'ya boradigan bo'lishdi.

Qariganida boshiga sharmandalik yomg'irini yog'dirgan qizini kechira olmayotgan Zaur Zoliyxon bilan sovuqqina xayrlashdi-da, seclarini ertagayoq Kadgaronga yetkazishga va'da qildi.

To'y karvoni yana avvalgiday jimlik bilan yo'lga tushdi. O'qilgan nikoh hech kimning ko'ngliga ravshanlik olib kirmadi.

Zoliyxonning nazarida ruhoniung aunga nikoh o'qimadi. Balki bevafolikning la'nat tamg'asini qalbiga urganday bo'ldi. U ana shu la'nat tamg'asiga bandi bo'lib, qonuniy eri yonida uning uyi tomon boryapti. Erining uyida uni nimalar kutyapti? Kerim va'da qilgan baxtmi? Kerim astoydil va'da qilgan bo'lsa-da, Zoliyxon baxtli bo'lishiga ishonmaydi.

Kadgaronda to'y harakati avjida.

Ajal ham g'aflatda emas, Zoliyxonni intiq kutadi.

Kechga yaqin G'azola ovuliga yetib keldilar. Temirning do'sti ularni quchoq ochib kutib oldi. Kelinni kuzatib keluvchilar orasida ayollar yo'qligidan u ham ajablandi-yu, ammo sir boy bermadi. Sababini so'rab o'tirmay, Zoliyxonni ayollar bo'lmasiga kuzatdi. Erkaklar mehmonxonada tunashdi.

Kerim qochoqlarni tutish voqeasini batafsil eshitish maqsadida Zurabning yonida yotdi. Kodat gapni qizlarning vahimali xabarlarini eshitganidan boshlab, qochoqlarni quvib borganlarini va nihoyat olishuv tafsilotini so'zlab berdi.

Kerimni olishuv bayoni o'ylatib qo'ydi.

- Mening o'rnimga olishganingdan mammundirsan?

- Albatta! Senga bo'lgan sadoqatimni namoyish etishimga imkon bergani uchun Tbau-uats-IIaga shukrlar qildim.

Agar Kerim Zurabning o'rnida bo'lganida u ham aynan shu yo'lni tutgan bo'lardi. Uning do'stiga havasi keldi.

U Zurabga yaqinroq surildi-da, shivirlab so'radi:

- Zurab, Zoliyxon o'tgan gaplarni unutib, bundan bu yog'iga faqat meni seva olarmikin?

- Bilmadim,-dedi Zurab. Keyin gapini boshqalar eshitib qolmasligi uchun ovozini yanada pastlatdi:- u abreknii jonidan ham ortiqroq yaxshi ko'rardi.

- Xudoga shukrki, abreki bu dunyoni tark etdi. Buning uchun senga rahmat.

- Uning o'lgani yaxshi bo'lди. Boshiga xanjar sanchganimda suyaklari qisirlab ketdi. Bundan qanchalik lazzatlanganimni bayon etib berolmayman.

- Vaqtida quvib yetganlaring yaxshi bo'libdi. Yana kim biladi, ozgina fursati bo'lganida... balki...

- Buning uchun ham rahmat, desang arziydi. Otni ayamay haydadim.

- Agar kechikkanlaringda... o'sha ish bo'lganida... Zoliyxonga uylanishimga otam ikki dunyoda ham ruxsat bermas edi.

- Kerim... har holda o'sha ish bo'lib o'tgan...

- Yo'q, Zurab, men undan ochiqchasiga so'radi. Uning vujudi ham, qalbi ham pok.

- Qochayotgan paytlarida ulgurishmagandir. Lekin ungacha bo'lgan, deb o'layman. Men o'rmon yoqasida quchoqlashib, o'pishayotganlarini o'z ko'zlarim bilan ko'rganman.

- Axir o'zing o'pishishdan boshqa gap bo'lmedi, degan eding-ku?

- Men ko'rganimni aytdim. Balki o'sha kecha hech nima bo'limgandir. Aqlingni salgina bo'lsa ham ishlatsang-chi! Sen nima deb yuribsan, Urusxondek yigit shunday go'zalni yarim kechada pinhona joyda kutib oladi-yu, tegmaydimi? Agar shunday bo'lsa, u erkak emas ekan. Men ham bir xotinchalish bilan olishgan ekanman.

- Men bunga ishona olmayman.

- Ishonish yoki ishonmaslik o'zingning xohishing. Men shunday ish bo'lganiga aminman!

Zurabning keskin ohangda aytgan so'nggi gapi Kerimni parishon qildi. Anchagacha gapirmay yotdi. Nihoyat:

- Zurab, endi nima qilishim kerak?-deb maslahat so'radi.

- Endi bitta yo'ling bor: keyingi bayramgacha xotiningga yaqinlashmaysan. Agar u muhabbat lazzati deb qadamjoni oyog'osti qilgan bo'lsa, Tbau-uats-IIa uning sharmandasini chiqaradi. Agar shu vaqt mobaynida hech nima sezilmasa, demak, men adashgan bo'laman. Xotining nomusli pokiza qiz bo'ladi. Shundan keyingina sen uni sevib, xotinlikka olasan.

- Zurab, maslahating juda g'alati bo'ldi-ku? Necha yil sevib, intilganimni uyga boshlab kirsamu, yaqinlashmasam... Menga og'ir bu...

- Ogi'rlilikka og'ir. Lekin butun umring davomida "xotinim meni aldadimi yo yo'qmi?" degan shubha bilan yashashing bundan ham mushkulroq, bilib qo'y.

- Sen haqsan, Zurab. Gaplaring to'ppa-to'g'ri. Lekin... o'sha o'rmonda nomusini berib qo'ygan bo'lsa-yu, lekin hech nima sezilmay qolsa-chi?

- U holda buni Tbau-uats-IIaga qo'yib beraver. Bizga sir bo'lgan narsa unga ma'lum. U gunohkorni jazosiz qoldirmaydi. Bo'ldi.

Endi uxla.

Kerim yonboshiga o'girilib oldi. Xonadagilar bir maromda nafas oladilar. Uning esa na tinchi bor, na uyqusi keladi.

Jazo

Kadgarondagi to'y qadimdan meros qolgan urf-odatlarga rioya qilingan holda o'tkazildi. Kelin va kuyov mehmonlarga ko'rinish bermadilar. Mehmonlar esa uch kecha-kunduzni yemoq-ichmoqlik va o'yin-kulgudan iborat shodiyonalik bilan o'tkazishdi. Kelinni abrek olib qochgani hammaga ma'lum bo'lsa-da, bunday voqealar Qofqazda uchrab turgani sababli vafqulotda fofia sifatida qabul qilinmadi. Balki abrekkha jazo berilganini nishonlab, quvonch bilan qadahlar ko'tardilar.

To'ydan so'ng Zoliyxon barcha xotinlar kabi o'z xonasiga ega bo'ldi. Ammo tashvish bilan kutgani visol sodir bo'lindi. Tunlar ketidan tunlar o'taverdi, biroq Kerim uning ostonasini bosib, ichkari kirmadi. Dastlab bunday holatdan Zoliyxon quvondi ham. Kerimning asl maqsadini bilmay, buni uning marhamatiga, olijanobliligiga yo'ysi. Qiz uning ko'ngilchanligini qanchalik qadrlamasin, qalbining to'ri hamon Urusxon bilan band edi. Urusxonning bu dunyonи tashlab ketgani rost, ammo qiz qalbini tashlab ketmagan edi. Dastlabki kunlari erining uyg'a kirmagani unda minnatdor hislarni uyg'otdi. Ammo keyinchalik hayotining bunday davom etishi mumkinmasligini anglab qoldi.

Hafta ketidan haftalar o'tdi. Kerimning munosabati o'zgarmadi. Zoliyxon endi tashvishlana boshladi. Kunlarning birida, Urusxon zabit etgan yuragining ostida tirik jon paydo bo'lganini sezdi. Avvaliga homilasiga ishonmadi. Buni tan olishning o'ziyoq bir dahshat edi. U butun vujudi bilan ona bo'lismiga qarshi edi. Uni sharmandalikdan qutqarib qutqarib qolishning birdan-bir yo'li eri bilan yaqinlashish edi. U endi Urusxon xotirasi bilan yashamasdi. Erini o'ziga chorlardi. Bu yo'lda ayollarga xos barcha karashmalarni ishga soldi: eriga faqat jilmayib qaraydi, ba'zan nozli ko'z suzishlari bilan uni o'ziga og'dirmoqchi bo'ladi. Kerimni gapga soladi, nozli so'z ohanglari orqali sog'inganini anglatishga urinadi. U o'zining rafiqalik huquqidan foydalanishni, tug'ilajak farzandga Kerimning ota bo'lismini juda-juda istardi. Biroq hamma urinishlari behuda ketaverdi. Zoliyxon unga intilaveradi, Kerim esa undan o'zini olib qochaveradi. Noz-karashmalar e'tiborsiz qolaveradi. Zoliyxonning nazarida eriga intilgani sayin Kerim g'oyat bemehrlik bilan undan uzoqlashishga urinardi.

Yoz faslining adog'ida baxtsizligining nishonasi homilasi sezilib qoldi. Yuragini dard azobidan xalos qilay desa, atrofida uning xasratini tinglaydigan dardkashi yo'q. Qaynonasi bilan qayinsinglisi avval boshdanoq unga noxush muomala qila boshlashgan. Zoliyxon bu xonadonda kutilgan, ardoqli kelin emasligini dastlabki kunlardanoq anglagan. Nomus-or, vafo-sadoqat tuyg'ulari haqidagi yuksak tushunchalar ta'sirida tarbiya ko'rganlari sababli ular Zoliyxonning sharmandaligini kechira olmas edilar.

Sentyabrning boshlarida uning qomati to'lishib, yuzida dog' paydo bo'lib, homilasini oshkor qildi. U hamon eriga yaqinlashishga intiladi. Kerim hamon o'zini olib qochadi. Kunduz kuni ham yolg'iz qolishni istamaydi.

Qaynonaning ziyrak nigohi Zoliyxonning o'zgarishni sezdi. Bir kuni dasturxon atrofida o'tirishganda u odatiga xilof ravishda keliniga muloyimlik bilan gapirib qoldi:

- Xudo senga marhamatini ayamaganga o'xshaydi. Tez orada Kerim o'g'ilchasini qo'liga olib, shodligini do'stlari bilan baham ko'radi.

Bu haqiqatni qaynonasining og'zidan eshitgan Zoliyxonning boshi aylandi. Yiqilib ketmaslik uchun xontaxtani ushlab qoldi. "Tbau-uats-Ilaning jazosi bu!" degan fikr butun vujudini qaqqhatib yubordi-yu, hushsizlanib yiqildi.

Ona-bola qo'rqib ketdilar. Uni o'ringa avaylab yotqizib, yuziga suv purkab, hushiga keltirdilar. O'g'lining xotiniga hanuz yaqinlashmagandan bexabar ona bu holatni homiladorlikning og'ir va azobli jarayoniga yo'ysi.

Oqshomda yomg'irda qolib bo'kkon Kerim daladan qaytdi. Kiyimlarini yechib, olov qarshisida isinib o'tirganida onasi unga qarab xushxabarni aytib, suyunchiladi:

- Kerim, yangi yil bayramida o'g'lingni qo'lga olib, do'stlaringga ziyofat beradiganga o'xshaysan.

Bu xabarni eshitib sakrab turib ketdi. Lekin harakat quvonchdan emas, bexos uyg'ongan g'azab oqibatidan edi. Uning rangi oqardi. Ko'zlarida olov uchqunlari yondi. Qo'li beixtiyor xanjari dastasiga yuborildi.

- Nimalar deyapsan!-dedi u xirildoq ovozda.

Kampir o'g'ildagi bu o'zgarishdan hayratlanib, unga qo'rqibgina boqdi:

- Menimcha, yaqin orada Zoliyxon ona bo'lsa kerak...

Kerim shu oylar ichi qo'rqib kutgan xabarni eshitib, o'zini yo'qotib qo'ysi.

- Bu bo'xton! Bo'limgan gap! Yolg'on!-deb hayqirdi.

- Senga nima bo'ldi?-dedi kampir mehribonlik bilan.-Bunaqa paytda otalar quvonchdan xudoga shukrlar qiladilar.

Bu gapni eshitib, Kerim telbalarcha kula boshladni:

- Men quvonayinmi? Men xudoga shukr qilayinmi? Nima uchun?

U kulgidan bordaniga to'xtadi-da, ko'zlar ola-kula bo'lib onasiga qaradi:

- Ona, uning qornidagi bola meniki emas!.. Chunki men... er bo'lib unga haligacha yaqinlashmaganman.

Kampir bu gapni eshitdi-yu, dahshatdan toshday qotib qoldi. O'g'iz ochib bir nima deyishga ham qurbi yetmadi. Keyin jon berayotganday lablari asta pichirladi:

- Buzuq.... bizning uyimizga fohisha kirib kelgan ekan...

Tilidan uchgan bu achchiq haqiqat so'zlarini kampirni seskantirib, o'ziga keltirdi. Endi bor ovozi bilan qichqirdi:

- Buzuq! Buzuqni boshlab kelganmiding?!

Kerim onasini holi qoldirib, Zoliyxonning xonasiga otilib kirdi. Deraza yonida nimanidir tikib o'tirgan Zoliyxon cho'chib, o'rnidan turdi. Zoliyxon erini bunday darg'azab holda sira ko'rмаган edi. Kerimning yuzlari g'azabdan qizarib ketgan, ko'zlarida nafrat o'ti bor edi. Biroq u xotiniga tashlanmadni, la'nat so'zlarini ham tilidan uchirmadi. O'zini bosib olib, vazminlik bilan so'radi:

- Zoliyxon, senga nima bo'ldi?

- Rahmat, Kerim, sening panohingga menga nima ham bo'lishi mumkin?

- Men sog'lig'ingni so'rạyapman?-u shunday deb qizning qomatiga sinovchan tikildi.-Nazarimda to'lishib qolganga o'xshayapsan.

Qiz qandaydir dahshat to'fonining sharpasini sezib, o'ng'aysizlandi.

- Kerim, gaplaringga tushunolmayapman?

Bu gapdan keyin Kerim o'zini tutolmadi portladi:

- Sen hali ham nomusli qizmisan? Ha... homilador qiz!

Zoliyxon qaltiraganicha uning qarshisida tiz cho'kdi:

- Meni kechir, kech...

Zoliyxon uzrini oxirigacha ayta olmadi. Uning so'zini Kerimning qat'iy hukmi uzdi:

- Yo'q!-dedi u qahri qattiq odamning berahmligi bilan.-Hech qachon!

Shunday deb chiqib ketmoqchi edi, Zoliyxon o'zida kuchli bir jur'at topib, sakrab turdi-da, ostonaga undan oldin yetib borib, yo'lini to'sdi.

- Sendan o'tinib-o'tinib iltimos qilaman. Uzil-kesil hukm chiqarmasdan oldin bir og'iz so'zimni eshit.

- Yana qanaqa so'zingni eshitay? Hozirgina o'zing tan olding-ku? Boshqa gapga o'r'in yo'q!

- Kerim, nikohimizdan keyin men senga zarracha bevafolk qilmadim.

- Nikohdan keyin deysanmi?-Kerim shunday deb zaxarli iljaydi:-Oilamiz kattalari kelishib olishgan ondan boshlab sen meniki eding!

- Bilaman... o'shandan keyin ham senga xiyonat qilganim yo'q.

- Lekin sen u ablax bilan birga qochding-ku?

Zoliyxon bu haqiqatni rad etishga ojiz edi. U bosh egib, jimb qoldi. Bundan foydalangan Kerim gapini davom etdi:

- Endi men senga qanday ishonishim mumkin? Esingdami... yo'l ustida... gunoh ish qilmadilaringmi, deb so'raganimda sen "gunoh ish qilmadik" devding?

- Ha. shunday degandim, esimda. Lekin sen "o'sha tunda bo'ldimi?" deb so'raganding.

- Sen gapni chalg'itma. Men pokliringcha qoldingmi... qizmisan, deb so'ragan edim. Buni men o'zim uchun emas, otam uchun so'rovdim. Seni sevgan, senga ishongan odamni aldading. Muhabbatimdan foydalanib, abrekdan bo'lgan bolangni mening nomimga o'tkazmoqchi eding. Xudoga beedad shukrlar bo'lsinki, u menga yetarli sabr-toqat berib, senga yaqinlashishimdan o'zi asrab turdi. Endi oramizda hech narsa yo'q. Mening muhabbatim bugun o'ldi. Ha, xuddi Urusxonning singari o'ldi. Endi yo'lidan qoch!

U yana yolvormoqchi, tushuntirmoqchi edi, biroq buning foydasiz urinish ekanini sezib, o'zini chetga oldi.

Zoliyxon hali hayot bo'lsa-da, yuziga o'likning rangi yugurdi. Holsizlanib o'tirdi. Vujudini go'yo sovuq bulut o'ray boshlagan bo'ldi. Ko'zlar bir nuqtaga ma'nosiz tikilib qoldi.

Xayoliga qadimdan qolib kelayotgan odat hukmi keldi-yu, ko'zlar dahshatdan katta-katta ochilib, sapchib turib ketganini o'zi ham bilmay qoldi. Osetinlarning buzuqlarga nisbatan hukmi g'oyat dahshatl edi: benomusning sochi kesilib, ko'kraklari cho'g'da kuydirilib, so'ng ota-onasinkiga jo'natib yuborilardi. Zoliyxon yaqin atrofda shunday voqeа yuz bergenini eshitmagan. Chunki Osetiyada uzoq yillardan beri bunaqa hol yuz bermagandi. Es-es biladi, unda hali qizaloq edi, qo'shni kampirlar o'choq oldida suhbatlashib o'tirib shunday odat mavjudligini gapirishgan edi. Hozir o'sha suhbatni eslab, badaniga muz yugurdi. Endi nima bo'ladi? Unga "buzuq" deb hukm chiqarishadimi? Ko'kraklariga cho'g' bosishadimi?

Yo'q. yo'q! Bunga yo'l qo'yolmaydi. Bu sharmandalikdan ko'ra o'zini daryoga tashlab o'lgani ming marta afzal. Daryo uning o'zini ham, gunohlarini ham yutadi. Bu dunyo azoblaridan qutuladi. Aslida allaqachon shunday qilishi kerak edi. Faqat Urusxonidan qolgan yodgorining o'limini istamayotgandi... Endi u ham ko'ziga ko'rinxay qoldi.

U bir qarorga kelib, uydan chiqishga ulgurmay ostonasida qaynotasi ko'rindi. Kerim xotinining xonasidan chiqishi bilan otasiga bor gapni aytib, Zoliyxonni shu onning o'zida haydar yuborishni talab qilgan edi. O'g'lining talabini eshitgan Temir hukm chiqarishga shoshilmadi, yaqinlarini chaqirtirib keldi. Zoliyxonning xonasiga avval o'zi, orqasidan akalari Mshoxt bilan Muxtor, keyin amakivachchasi Urusmat kirib keldilar.

Kattalar xonaga hech bir mulozimatsiz va salom-aliksiz kirib keldilar. Ularning izlaridan Kerim, Xotshosh va go'zal Aldian ham kirdilar. Gap boshlash huquqi Temirda edi:

- Zoliyxon Tutsat,-dedi u vazmin va muloyim gapirishga tirishib,- sen mening o'g'lim Kerim To'tarayevga o'z rozililing bilan xotin bo'lgan eding. O'g'lim er sifatida senga yaqinlashmagani holda homilador bo'lib qolganingni aytib, ayblayapti. Uyingga qaytarib yuborishimizni talab qilyapti. Biz hammasini aniq bilmagunimizcha odatimizga binoan hukm chiqara olmaymiz.

"Hammasi aniq: buzuqlarga beriladigan jazo berishadi menga", degan fikr yashin sifatida miyasiga urilib, tovonigacha zirillatib yubordi. Qaynotasining gapini endi uzoq-uzoqlardan eshitganday bo'ldi:

- Kerim, avval sen gapir.

Xanjari dastasini mahkam ushlab turgan Kerim hayajonlanib, darrov gapira olmaydi. Zoliyxon tomonga qarashga botinmaydi.

- Ha, otam to'g'ri gapirdi,-dedi u ovozi titrayotganidan o'zi ham hijolat bo'lib. Tomoq qirib olib, hayajonini bosgan bo'ldi-da, qat'iyroq ohangda davom etdi:-Men Zoliyxon Tutsatni ota-onasinkiga haydar yuborishni talab etaman. U menga hech qachon xotin bo'lgan emas. Homilasi abrekk Uruxonidan. Ular yo'l ustida qo'lga tushishganda menga "nomus-orli qizman", degan edi. Shuning uchun men uning "o'z akasi" bilan qochganini kechirgan edim. Endi esa buzuqligi uchun haydar chiqarishni talab qilaman. U meni aldadi. U nomus-orli osetin yigitning xotini bo'lishga hech qachon haqli bo'lgan emas. Talab haqli edi. Shunday bo'lsa ham Temir hukm chiqarishga shoshilmadi.

- Zoliyxon Tutsat, endi sen gapir: o'zingni oqlay olasanmi?

Temirning ovozida qo'rqlilik bir xotirjamlik borligini qiz payqadi.

Butun o'y-xayolini qamrab olgan bo'lajak hukm dahshati biron nima deyishga ham yo'l bermaydi. Shunday bo'lsa-da, so'nggi quvvatini ishga solib gapirishga chog'landi:

- Nikohdan keyin xiyonat qilmadim,-dedi g'oyat past ovozda. Tishlari zirillab boshqa so'z aytolmadi. To'planganlar uchun uning gapirishi unchalik muhim emasdi. Shunga qaramay Temir yana so'radi:

- Kerim senga er bo'lgannimi?

- Yo'q!-dedi u sekingga.

- Homiladormisan?

- Ha...

Qizning iqrorni o'zidan boshqa hech kim eshitmagan bo'lsa-da, Temir akalariga bir qarab olib, yana so'radi:

- Bola kimniki?

- O'zinglarga ma'lumku?

- Bolaning otasi kimligini o'zing ayt!

- Urusxon...

- Kerimga tegishga o'zing rozi bo'lganmiding?

- Ha... Urusxonga bo'lган muhabbatim tufayli xo'п deganman.
- Nima-a?
- Ha, maqsadim uni Tbau-uats-Ilaning jazosidan qutqarib qolish edi. Urusxon akam bo'lib qolganidan keyin baribir unga tegolmas edim. Shuning uchun ixtiyorimni otamga berdim.
- Sagat Lamardonda qalin pulini kelishayotganimizda sen o'z xohishing bilan rozilik bergenmiding yo zo'rashgan edimi?
- Hech kim zo'rlamagan.
- To'y kuni abrekkta o'z ixtiyoring bilan ergashdingmi?
- Ha.... to'g'risi... men undan qo'rqidim. Ko'zlarda g'alati o't bor edi.
- Balki u seni qo'rqtib, ochishga majbur qilgandir?
- Yo'q bunday bo'lmadidi.
- Demak, sen bir yigitning qallig'i bo'la turib, boshqa odam bilan qochdingmi?
- Ha.

Temir bu iqordan so'ng qarindoshlariga bir-bir qarab oldi:

- Og'alarim, boshqa gap so'rashning endi foydasi yo'qqa o'xshaydi. Aybini bo'yniga olyapti, shuning o'zi kifoya.
- Qayerdan kelgan bo'lsa, o'sha yerga haydab yubor!-dedi Urusmat g'azab bilan.
- Haydab yuborish oson,-dedi Temir.-Unga avval buzuqligi uchun jazo berishimiz kerakmikin?

Oraga bir zum sukut tushdi.

Zoliyxon titray boshladi.

- Mana shu hukm adolatdan bo'ladi. Boshqa chora yo'q,-dedi Mshoxt, oppoq soqolini silab qo'yib.
- Mulohazaga o'rin yo'q,-deb akasini quvvatladi Muxtor,-aybiga iqror bo'lmaganda ham boshqa gap edi.

Temir hukmga akalaridan oq fotiha olgach, xanjarini qiniga qo'l yubordi-da:

- Qachon?-deb so'radi ulardan.
- Hozir,-deyishdi ular hukm ijrosi vaqtini aniq belgilab. Ularning fikricha hukm ijrosi vaqtini ortga surishdan ma'no yo'q edi.

Temir Zoliyxon sari bir qadam bosdiB :

- Zoliyxon Tutsat! Biz sen nomusini bulg'agan avlodning kattalari seni buzuqlikda aybli deb topdik. Senga urf-odatimiz qoidalariga ko'ra jazo bergach, otangning uyiga jo'natamiz. Kerim!-shunday deb o'g'liga o'girilib qaradi:-Ayollarni olib, uydan chiq. O'zimiz chaqirgunimizcha tomorqaning chetidagi olmazorda kutib turinglar.

Kerim uydan chiqib ketish uchun bahona topilganidan quvondi.

Muxtor Mshoxt va Urusmat bilan maslahatlashib olgach, xontaxta ustidagi yonib turgan chiroqni chetga olib qo'ydi.

- Temir,-dedi Mshoxt,- sen Kerimning otasisan. Hukmni ijro etish sening burching.

- Bilaman,-dedi Temir keliniga bir qarab olib.

Bu onda Zoliyxon kishanlangan kabi qotib turardi. U hovliga qochib chiqishni, daryoga borib o'zini suvga otishni istardi. U o'zida kuch topib, ochishga ahd qildi. Sal qimirlashi bilan Urusmat uning niyatini sezib qolib eshikni mahkam berkitib qo'ydi.

Ilojsiz qolgan Zoliyxon qaynotasi olida tiz cho'kdi.

- Meni avf et,-u xuddi xudoga iltijo qilayotganday qo'llarini baland ko'tardi:-Otamnikiga shundayligimcha haydab yuboringlar.
- Agar shart bo'lsa. mayli sochimni qirqinglar, ammo ko'kragimni kuydirmanglar, o'tinaman.

U tiz cho'kkanicha qaynotasi tomon yurdi.

- Men bundan battar jazoga ham loyiqliman. Lekin bolaga rahm qilinglar. Axir uni kim emizadi... rahm qilinglar.
- Erkaklardagi rahm tuyg'usidan ko'ra odat hukmiga bo'yishni hissi kuchliroq edi. Muxtor tashqariga chiqib, o'choqdagi olovda temirni qizdirib qaytgach, nolayu fig'onga ahamiyat ham bermay ishga kirishdilar. Zoliyxon tipirchilab qanchalik qarshilik ko'rsatmasin, qanchalik yalinmasin, foydasi bo'ljadi. Uni xontaxta ustiga yotqizganlarida oyog'i osilib qoldi. Urusmat uni tizzalaridan mahkam bosib turdi. Mshoxt bilan Muxtor qizning qo'llarini ushlashdi.

- Bunday qilmanglar,-deb yalindi titroq iskanjasidagi Zoliyxon.

Zoliyxon tog'larga yalinganida balki ularning rahmi kelib yorilib ketarmidi. Lekin nomusi tahqirlangan erkaklarning tosh qalbi yumshamadi. Temir xanjarini qinidan chiqarib, damini tekshirdi: o'tkir! U chaqqon bir harakat bilan Zoliyxonning sochlarini kesib tashladi-da, ko'kragini ocha boshladi. Zoliyxon xuddi nolasini birov eshitib, yordamga keladiganday bor ovozi bilan dod soldi. Kuchiga kuch qo'shilganday bo'ldi. Erkaklar changalidan chiqish uchun tipirchiladi. O'ng qo'lini Mshxotning changalidan chiqarib olib, yarmi ochilgan ko'kragini panjasi bilan to'sdi.

- Bola... bola... go'dakka rahm qiling!

Bechora qizning fig'oni sovuq devorlarga singib ketdi. Mshxot qizning qo'lini qayira boshladi. Temir akasiga yordamlashdi. So'ng ko'ylikni yirtib, ko'krakni batamom ochdi-da, qizitilgan temirni uning ko'kragiga yaqinlashtirdi.

Bog'da, barglarini to'kib yalang'ochlanib qolgan olma daraxti ostida ayollar turishibdi. Ular o'zaro gaplashmay, hukm ijrosini jimgina kutishadi. Ularni ham qandaydir qo'rinchli kuch qamrab olgan. Barchalarining vujudlarida yengil titroq bor.

Nihoyat, kutilgan on yetdi: odam vujudini larzaga soladigan faryod eshitildi. Jimgina turgan ayollar bir-birlariga qarab oldilar. Bir necha nafasdan so'ng avvalgisidan ham kuchliroq, yurakni ezib yuboradigan darajadagi faryod yangradi.

Mshxot mis kosada suv keltirib, Temirga uzatdi. U rangi o'liknikiday bo'zarib ketgan qizning yuziga suv sepsi. Zoliyxon ingrab, to'lg'ondi. Keyin o'kirib yig'lay boshladi. Mshxot bilan Muxtor uni ko'tarib, kursiga o'tqizishdi. Urusmat bilan Temir javonni titib, toza sochiqni topdilar-da, qizning kuygan ko'kragini bog'lab qo'yidilar.

Hukm ijrosidan ko'ngli to'lgan Temir gunohkorni Sagat Lamardonga shu onning o'zida jo'natish uchun arava tayyorlashni buyurdi. Juvonni kuzatib boruvchi odam odat bo'yicha uni eshigi ostonasiga tashlagach, hech bir gap-so'zsiz iziga qaytishi lozim edi.

Arava tezda hozirlandi. Alaxsirayotgan Zoliyxonni suyab olib chiqib, aravaga o'tqazishdi. Kuylaklari o'ralgan bir tugun bilan, yo'lida yegulik taom ham qo'yishdi.

- Otang qalin pulini qaytargach, qolgan buyumlariningni olasan,-dedi Temir. Alhol Zoliyxon qolayotgan buyumlarini o'laydigan ahvolda emasdi. Boshiga selday yopirilgan azob-uqubat uni bo'layotgan gaplarga, voqealarga hissiz qaraydigan qilib qo'ygan edi.

Arava To'tarayevlar xonardonidan uzoqlashib, qorong'ulik bag'rige singib, ko'zdan g'oyib bo'lди.

Zoliyxon o'tirgan arava tosh yo'llarda galdirab yurib, suvlari jo'shib-jo'shib oqayotgan soylarni kechib o'tib, qorong'i dovonlarni, xatarli jar yoqlarini ortda qoldirib borardi. Zoliyxon qayerlardan o'tib borayotganiga ahamiyat bermaydi. Uyiga qachon qay ahvolda yetib borishini ham bilmaydi. Uning boshiga tushgan barcha uqubatlar bir tugunga to'planib to'xtovsiz azoblaydi. Ruh

azobi ko'kragidagi yara azobidan battarrog qiyaydi.

Bu tunning tonggi yo'qday edi go'yo...

Kun yorishganda kuzatuvchi aravani to'xtatib, otni chiqardi-da, o'tloqqa qo'yib yubordi. Keyin Zoliyxonni nonushtaga taklif qildi.

Zoliyxon uning nima deyayotganini anglamadi, maqsadini tushunmadi. Lablari nimadir deb shivirladi. Kuzatuvchi engashib, uning uzuq-yuluq gaplarini arang tushundi:

- Suv beringlar... suv... yuragim yonyapti...

Kuzatuvchi atrofga alanglab, baland qoya bag'ridan jildirab tushayotgan svnvi ko'rdi-yu, o'sha tomon shoshildi. Papog'ini suvga to'ldirib qaytdi. Zoliyxon svnvi yutoqib-yutoqib ichdi. Bir necha marta qalqib-qalqib ketsa ham suvdan boshini ko'tarmadi.

Chanqog'i biroz bosilgach. Boshini ko'tarib, kuzatuvchiga hayron boqib qoldi:

- Menga rahming keldimi? Sen odam emasmisan? Ular o'zlarini odam deb hisoblaydilar. Lekin ularda rahm-shafqatdan zarracha ham yo'q.-Shunday degach, papoqdagi svnvi oxirigacha simirib ichdi-da, so'ng boshini egdi.

Kuzatuvchi noqlay ahvolga tushib unga tikilib qoldi. "Agar men bu bilan Sagat Lamardonda birga bo'lganimda edi... bu azoblargra ro'para qilmas edim", deb o'yaldi u.

Kichkina otda bo'rkgiga o'ranib o'tirgan kishi aravaga yaqinlashgach, baxti qaro ayolga achinib qarab qo'ydi. "Bu bemorni shifo istab Tbau-uats-Ilaning ruhoniylariga olib ketyapti shekilli", deb o'ylab nari ketdi.

Peshinga yaqin vodiy ortda qolib, yuqoriga, Sagat Lamardonga olib boruvchi yo'lga chiqdilar.

Zaurning qo'rg'oniga yetib kelishgach, kuzatuvchi Zoliyxonni aravadan tushirdi. Tugunni olib, uning yoniga qo'ydi-yu, hayr-xo'sh ham demay, iziga qaytdi.

Tutsat qizi bir oz harakatsiz turgach, darvoza tomon beholgina qadam qo'ydi. Eshikni ohib, ostona hatlashi bilan tugun qo'lidan tushdi. Tugunni ko'tarishga uning kuchi ham, istagi ham yo'q edi. Uning nazarida bu tugunga To'tarayevlar uning ko'ylyaklarini emas, nomussizlik yo'lida topgan gunohlarini o'rab berib yuborgan edilar. Zoliyxon eshikni qiya ochiq qoldirganicha ichkari qarab yurdi. Uyda kimsa ko'rinnmasdi. To'g'ri ayollar xonasiga bordi. Eshikni ochdi. Deraza yonidagi yumshoq kursida o'tirgan qora libosdagi onasini ko'rdi. Uning oppoq sochlari derazadan yopirilib kirayotgan nur yorug'ida kumushsimon tovlanadi.

- Ona... onajonim!-deb o'tandi Zoliyxon.-Onajon!-shunday deb onasiga yaqinlashib tiz cho'kdi-da, tizzasiga bosh qo'ydi. Zoliyhon faqat shu yerdagina rahm-shafqat, mehr-muhabbat topa olishini bilardi.

Kutilmagan tashrifdan garangsib qolgan kampir qaltiroq qo'llari bilan uning boshini siladi:

- Zoliyxon! Qizginam...Senga nima bo'ldi? Nega kelding?

- Ona, rahming kelsin menga, rahming kelsin. Bu dunyodagi barcha odamlar toshbag'ir bo'lib ketishibdi. Zarracha shafqat yo'q odamlarda...

- Zoliyxon, mushtipar onangga ayt: nima bo'ldi?

Ojiza qizining ahvolini ko'rmaydi. Qizining ko'zlaridagi dardli nurni, isitmada yonayotgan betlarini, xushqomatiga ko'r berib turuvchi sochning kesib tashlanganini, kuydirilgan ko'kraklari ustidan tang'ib bog'langan sochiqni ko'ra olganida, xudoga nola qilib: "bu fojiaga guvoh qilganidan ko'ra meni ko'r qilib qo'yanigan yaxshi edi!"deb nolalar qilishi aniq edi.

- Ona, Temir To'tarayev meni la'nat va sharmandalik tamg'asi bilan haydab yubordi. Chunki... chunki... qornimda Urusxonning bolasi bor... Kerim avval boshdan shubhalangan ekan. Er bo'lib menga biron marta ham yaqinlashmadi.

- Shubhasi bor ekan, nega senga uyylanibdi?

- Men undan yashirgan edim... hech kim tegimmagan nomusli qizman, devdim. U asta sekin mening sevib qolishimga umid qilgan edi. Agar guman bilan meni poylamaganida uning xohlagani bo'lardi.

- Dahshat! Qandayin dahshat-a!-deb pichirladi ojiza.-Keyin nima bo'ldi, aytaver, qizim.

- Qaynonam to'lishib qolganimni sezib, homiladorligimni o'g'liga aytgan bo'lsa kerak. Kecha oqshomda xonamga g'azab bilan kirib keldi. Meni so'roq qildi. Men to'g'risini aytdim.

- Keyin-chi?

- Qolganini sen so'rama, men aytmay qo'ya qolay... Yo'q, aytaman, senga aytmasam kim dardimga sherik bo'lardi? Keyin... qaynotam akalari bilan kirib... odad hukmiga ko'ra meni buzuq xotinlarga ravo ko'rildigan jazo bilan jazolashdi!-Zoliyxon shunday deb o'krab yig'lab yubordi Ojiza o'tirgan yeridan sapchib turib ketdi:

- Nima deding?! "Odat hukmiga ko'ra" dedingmi? Hali ular sochingni qirqib, ko'kragingni kuydirishdimi?

- Ha!

- O, dahshat, qanday dahshat-a! Bechora qizginam!-ojiza shunday nolalar bilan yig'lab, qizini bag'rige bosdi.

- Oh, onajon, meni bunchalar siqma, ko'kragim og'riyapti.

- Kechir, meni qizim, unutibman. Bu ishni... kecha qilishdimi?

- Ha... kecha... buni o'sha yovvoyi chollar qilishdi. Keyin aravaga solib, haydashdi. Bo'ldi, ona, endi boshqa narsa so'rama mendan. Bir pas yotay, o'zimni yomon his qilyapman.

Ojiza paypaslanib yurib, qizini o'zining o'rniga yotqizdi. Zoliyxon onasidan tabib kampirni chaqirtirishni iltimos qildi. Mo'ljalida oy-kuni hali yaqinlashmagan, ammo belida uyg'ongan og'riq uni havotirga solayotgandi.

Kampir xassasini do'qillatib, ko'cha tomon yurdi. Tambining uyiga kirib, Salimatni doyanikiga jo'natdi.

Qaytayotganida darvoza yaqinida Zaurga duch keldi. Zaur hamisha uyda o'tiradigan, tashqariga qadam bosmay qo'yan xotining ko'chada yurganini ko'rib, ajablanguanicha to'xtadi:

- Qayerdan kelyapsan?

U erini ovozidan tanib, cho'chibgina to'xtadi. U erining berahmligini bilardi. Shu bois yuragi hozir yuz berajak momaguldirak dahshatini sezdi.

- Tambininida edim,-dedi u ayb ustida ushlangan gunohkor odamning ovozi bilan.-Salimatni Uarzat kampirnikiga yubordim. Zoliyxon keldi. Qizimiz qattiq betob, Zaur.

- Zoliyxon keldi, deysanmi? Nega keladi? Turmushga chiqqaniga hali bir yil bo'ljadi-ku?

- Bir yil bo'ljadi... Lekin... sen uni kechir, Zaur... uni... jo'natib yuborishibdi.

Zaur to'ydan beri har kun, har soat shunday dahshatli voqeja yuz berishini qo'rquv bilan kutayotgan edi. Har ibodatida Tbau-uats-Ilaga yolvorib, sharmandalikdan asrashini so'rayotgan edi. Ilohi munojotini qabul qilmadimi? U beixtiyor ingrab yubordi. Keyin baqrib yuborganini o'zi ham sezmadni:

- Nima?!

- Bir soatcha oldin xizmatkorlari olib kelib tashladi.
- Nima gunoh qilibdi? -Shunday savol berdi-yu, lab tishladi. Qizining nima gunoh qilganini boshqalar bilmasa ham u bilishi kerak-ku? Xotini bu savolga javob bermadi. U o'ziga o'zi gapirganday pichirladi:-Bu butun avlodimizni sharmandalik botqog'iga botiradi-ku?
- Afsuski, ular haq, Zaur. Ming afsuski ular haq... Zoliyxonimiz homilador.
- Homiladorlik gunoh ekanmi?
- Homilasi Kerimdan emas, Urusxonidan ekan. Kerim er bo'lib unga hatto yaqinlashmabdi. Gumonsiragan ekan, sir oshkor bo'libdi.
- Shunday degin... U benomus shu ahvolda mening ostonamni bosib, uyimga kirdimi?! Sen uni bag'ringga oldingmi? Darhol yo'qot uni! Tutsatning pokiza xonadonini buzuq qadami bilan bulg'amasin! Haydab chiqar, deyapman, senga!
- Zaur! -ojiza shunday deb yolvorib, u tomon qo'llarini cho'zdi:-Rahming kelsin, Zaur! Ular qizimizni odat hukmiga ko'ra buzuq xotin sifatida jazolashgan. Yarasi bitmagan, isitmasi baland...
- Haydal-dedi qat'iy Zaur.
- Zaur! Qirq yildan beri men senga itoatda yashadim. Sendan biron narsani so'rashga hech mahal jur'at etmaganman. Bugun birinchi marta iltimos qilyapman: bolam kasaldan turgunicha parvarishlashimga ijozat ber. Sen uning naqadar baxtsiz holda ekanini bir ko'srang eding...

Zaur uning nolasini sovuqqonlik bilan uzdi:

- Yo'q! Men uyimda kufroniying haromi bolasi tug'ilishiga yo'l qo'ymayman!
- Zaur, yolvoraman...
- Jim bo'l, boshqa gapirma!

Zaur shu gapi bilan hukmning qat'iy ekanini bildirib, uyiga kirmay orqasiga qaytdi. Kampir eridan shafqat kutish ortiqchalogini, u qaytib kelgunicha qizini uydan chiqarib yuborishga majbur ekanini angladi. Angladi-yu, choraszligidan ezilib, dardini ichiga yutdi.

Isitma otashidagi Zoliyxon dam ingrab, dam alaxsirab yotibdi. Ojiza "qizimning dardini menga ber", deb ilohiga iltijo qilib o'tiribdi.

Nihoyat Salimat Uarzat kampirni boshlab keldi. Kampir erining hukmini Salimatga aytib, Tambidan najot kutayotganini bildirdi. Salimat o'sha zahoti otasiga uchrab ijozat oldi-da, akalari va Qo'rg'ok yordamida Zoliyxonni o'zining xonasiga olib chiqib yotqizdi.

Tunda Zoliyxon o'lik o'g'il tug'di...

Bir necha kun mobaynida u hushsiz, alahsirab yotdi. Uning hayoti ham qil ustida qolgan edi. Hamma sukut saqlab, uning jon berishini kutardi. Benomusning o'limi bu avlodning ayni muddaosi, go'yo o'z ishini bajargan ajal tutsatlar boshi ustidagi sharmandalik bulutini tarqatib yuboradiganday edi. Zoliyxonning o'limi uzoq oylar davom etgan dardli tashvishlarning quvonchli yakuni bo'lishi kutilardi. O'lim Zoliyxon uchun ham najot edi, nursiz kelajagidagi azob-uqubatlardan qutqarardi. Ammo yoshlik kuchi jo'sh urgan qiz o'limni yengib chiqdi. O'zi istamasa-da, kundan-kun sog'ayib boraverdi.

Yarasi bitib, sal quvvatga kirgach, o'rnidan turdi. Katta ro'molga o'ralib, hovliga chiqdi. Uni ko'rgan Salimat yoniga kelib o'tirdi. U amakivachchasiga nimadir demoqchi bo'lar, lekin gapini aytishga qiynalib, nuqul ro'molchasini burab o'ynardi. Zoliyxon uning gapi borligini sezdi.

- Salimat, o'zingni qiynama, gapingni aytaver. Men har qanaqa dahshatli gapni eshitishga ham tayyorman.
- Zoliyxon, gapim dahshatli emas, lekin... bilasanmi, men seni judayam yaxshi ko'raman. Senga juda-juda rahmim keladi.

Eisizgina... Seni sirayam ranjitgim yo'q...

Zoliyxon maqsadini aytolmay qiynalayotgan qizning gapini bo'ldi:

- Salimat, tortinmay aytaver.

- Bilasanmi... otam men bilan gaplashdi...

Zoliyxon maqsadni anglaganday bo'lib, undan ko'zini oldi.

- Otamning aytishicha... Bilasanku, otam Zaurning merosxo'ri. Kelajakda ruhoni yota bo'lib, Tbau-uats-IIaga xizmat qilishi kerak.

- Shunday bo'lishi aniq. Keyin-chi?

- Otam xalqning fikri bilan hisoblashishga majbur. U sening xulqingni himoya qilishni istasa ham, bunday qilolmaydi.

- Maqsadingni aytta qolsangchi?

- Xullas, qisqa qilib aystsam, uyimizda boshqa tura olmas emishsan...

Zoliyxon bu gapni eshitib, o'rnidan turdi. Boshini g'urur bilan tik tutdi:

- Otangni xotirjam qil. Uyinglarda endi bir kecha ham yotmayman.

- Zoliyxon, o'tinaman sendan, mendan ranjimagine, xo'pmi?

Zoliyxon javob bermadi. Qimir etmay, qotib turaverdi.

U odamlar qalbidan rahm-shafqat topa olmadi. Endi qarori qat'iy: bu yorug' dunyoda unga joy yo'q! U o'zini o'zi o'ldirishi kerak, boshqa chorasi qolmagan! U boshqa dunyoga ko'chishi kerak. Ehtimol u dunyoda joy topilar. "Balki-deb o'yladi u,-rahm-shafqat egasini o'sha dunyoda uchratarman".

U hamon yonida hijolat chekib turgan Salimatga qaradi:

- Hoziroq ketaman, men tufayli amakimning boshi egilishini istamayman, Faqat... sendan bitta iltimosim bor. Urusxonning miltig'ini olib chiqib ber. Qarab ko'r, miltiq otangning xonasida bo'lsa kerak.

- Miltiqni nima qilasan?

- Nima qilishimni so'rama.

Salimat Zoliyxonga hayrat bilan tikilib, shivirladi:

- Biron odamdan qasos olmoqchimisan?

- Shunday bo'lsa-chi? Senga nima? Sababini surishtirmay, otang kelib qolmasidan tezroq miltiqni olib chiqib ber.

Salimat gapni ko'paytirmay, Zoliyxonning amriga itoat etib, uyiga kirib ketdi. Devorda osig'liq turgan qurollar orasida

Urusxonning miltig'i borligini u bilardi. Qasos to'g'risida bekorga gap ochmadi. Urusxonni o'ldirgan, Zoliyxonni barcha balolarga giriftor qilgan Zurabning kim tomonidan bo'lsa ham jazolanishini Salimat juda-juda istardi. Zoliyxon miltiq so'riganida qasos oni yetib keldi, deb o'ylab hatto quvondi. Chunki odat bo'yicha nomus-ori uchun qasos olishgina sharaf emas, qasoskorga

ko'maklashish ham olqishga sazovor hisoblanardi. Shu quvонch va g'urur bilan miltiqni olib chiqib berdi.

Zoliyxon miltiqni avaylab ushlab, alamlı jilmaydi.

- Endi uyingga kiraver, Salimat,-dedi Zoliyxon unga mehribonlik bilan.-Otangning xonasiga kirib, miltiqni mening o'zim oldim. Sen bundan butunlay bexabarsan, tushunding-a?

"Ma'qul" ishorasini qilgan Salimat ketmoqchi bo'lganida Zoliyxon uni to'xtatdi:

- Salimat, sendan yana bitta iltimosim bor: men uchun onamga ta'zim qilib qo'y. Uni oxirgi marta kirib ko'rishga qurbim yetmaydi. Onam hamisha menga mehribon edi. Men onamdan roziman. Men uchun zorlanib so'ra: onam bergen oq suti uchun mendan rozi bo'lisin.

Bu vido onidan ko'ngli o'ksigan Salimat yig'lamoqdan beri bo'lib, uyga kirib ketgach, Zoliyxon miltiqni o'pdi. Bu miltiqni uning yori olib yurardi, bunda Urusxon qo'llarining harorati bor. Zoliyxon bu dunyoni tashlab ketishidan g'oyat mammun. Endi yo'lida to'siqlar yo'q qalbida ilk bor muhabbat olovini yoqqan sevgilisi bilan umrbod qovushadi. Bu dunyoga sig'magan bolajonini u dunyoda bag'riga bosa oladi. Zoliyxon u dunyoda shunday baxtga erishajagiga ishonadi. Ota-bola uni intiq kutishyapti. Zoliyxon bu dunyoda hech kimga kerak emas. Zoliyxon faqat va faqat ularniki. Ular bir baxtli oila bo'lib qovushadilar. Mana bu o'qlog'lik miltiq o'sha nurli hayot kaliti, Zoliyxonga sehrli darvozani ochib berguvchi saodat kaliti...

Qaror qat'iy, ortga yo'l yo'q. Ammo rejasini qayerda amalga oshirsin ekan?

"Salimat qasos haqida gapirdimi?-o'yaldi u.-Kimdan qasos olishim kerak? Zurabdanmi?"

Boshi ustida to'planayotgan o'lim buluti zulmatida Zurab unga shunchalar pastkash, shunchalar haqir ko'rindi-ki, oqibatda "u mal'unga o'q ham hayf, jazosini Tbau-uats-Ila bersin", degan to'xtamga keldi. Ilohi nomini eslashi bilan xayolini bir fikr chaqmoq kabi yoritdi:

"Tbau-uats-Ila! Ha! Tbau tog'ining ilohiga men so'nggi nafasimgacha qarshilik bildiraman. Men undan qo'rqumayman! Men uning muqaddas o'rmoniga kiraman. Buloq boshida men Urusxonimni yodga olaman. Muhabbat izhorlarini huzurlanib eslayman. Keyin bu dunyoni la'natlab, tashlab ketaman. Agar osmonu falakda Tbau-uats-IIadan ham oliyroq boshqa xudo bo'lsa, hayotning bu qadar johilligi va ayovsizligidan, Ilaning menga bunchalar uqubatlarni ravo ko'rganidan shikoyat qilaman. Men Iladan endi najot kutmayman. Undan a'loroq adolatli hakam huzuriga borishni istayman. To'g'ri, men gunohkorman. Ehtimol, meni u dunyoda kechirishar. Balki u dunyoda ahvolimni tushunib, meni himoya qila oladigan shafqat egasini uchratarman..."

U asta-asta qadam bosib amakisi xonadonini tark etdi. Qor uchqunlari uning yuzlariga qo'nib, go'yo poklamoqchi bo'ladi. Ostona hatlab chiqqach, atrofga alanglatdi: zog' ham ko'rinnadi. Biron odamga ro'para kelib qolishdan cho'chib, qadamini tezlatdi Nayfat sari oshiqdi. Yozning necha tunida bu yo'ldan xavotirlanib, qo'rqib yurgan edi. U tunlar faraxbaxsh edi. Endi qo'rquvsiz yurib boryapti. Yoz tunlarida, o'rmon yoqasida sevgilisi kutib turardi. Endi ajal kutyapti. Qor uning so'nggi yo'liga oq poyandoz to'shayapti. Urusxon yashayotgan olamga shu poyandozni bosib kiradi...

Ko'zları yo'lda. Xayoli esa Urusxonda: o'sha bo'ronli kecha... Qulqlari ostida mag'rur yigitning mahzun qo'shiqlari yangray boshladi:

Ota-onam o'tdi xoru zor,
Mening ham hayotim ko'p g'amgin.

Qayg'ularda benavo va xor,

Men yo'qotdim hayotim rangin.

Men o'larman... lekin tepamda,

Ko'z yosh to'kib ezilmas inim.

Osmon o'zi yig'laydi g'amda,

Yomg'ir bilan yuvinlar tanim.

Singillar yo'q... inimga esa,

Borib yetmas pajmurda bu tan.

Dahshat, uni bo'rilar yesa,

Talashib och quzg'unlar bilan!

Zoliyxon beixtiyor ravishda bu qo'shiqnı xirgoyi qila boshladi.

Ajabo! Qo'shiq so'zları bu onda uning baxtsiz taqdiriga naqadar mos-a!

Qor yog'yapti...

Koshki edi, gunoh sari boshlab borgan yo'llarni endi poklay olsa...

Zoliyxon dovonga yetib keldi. Qo'lidagi miltiq og'irlik qilsa-da, uni mahkam ushlaganicha qiyinchilik bilan yuqoriga ko'tarildi. Bu yo'ldagi har bir daraxt, har bir buta unga tanish. Ammo hozir barchasi sovuq oq libosga o'rallyapti. Hammasi o'lik uyquda.

Zoliyxon gunoh sari borayotganda, gunohni yelkasiga ortib qaytayotganda guvoh bo'lgan yaproqlar jonsiz holda shoxlaridan uzilib tushib, endi loyga belanib yotibdi. Zoliyxon o'sha guvohlarini bosib boryapti.

Urusxon bilan yotgan, bo'salaridan mast bo'lgan, sadoqat xususida qasam ichishgan buloq boshidagi maysalar ustini ham qor xarir parda kabi qoplagan. Hamma yoq oppoq. Go'yo bu olamda zarracha g'ubor yo'qdek...

Zoliyxon "senga sadoqatli bo'laman", deb qasam ichgan edi. Sadoqatini isbotlaydigan vaqt yetdi.

U o'tirdi-yu, miltiq tepkisini bosdi...

* * *

Salimat ojiza kampirga baxti qaro qizning vido so'zları, so'nggi uzri va iltijosini yetkazdi. Kampirning hayajon va hayrat bilan bergen savollariga cho'chibgina javob qaytardi. Otasining nomussiz qizni uydan chiqarib yuborish haqidagi buyrug'ini istihola bilan aytdi.

- Otang buncha bemehr bo'lmasa! Kasal odamni ham qishda uydan haydab chiqaradimi? Axir yolg'iz o'zi qayoqqa ketdi?

- Balki... kodatlarnikiga ketcandir?

- Kodatlarnikiga? Esing joyidami? U yerda nima qiladi? Sen bir baloni bilmasang gap boshlamaysan. Menga to'g'risini ayt!

- Men bu haqda og'iz ochmayman, deb qasam ichganman. Mayli, sizga aytay, faqat birovga gapirib yurmang. Menimcha Zoliyxon Zurabni o'dirmoqchi. Axir Urusxonning o'limi uchun kimdir qasos olishi kerak-ku? Har holda Urusxonning miltig'ini bekorga

This is not registered version of TotalDocConverter
olmasi.

Kampirning talabiga ko'ra Salimat kodatlarnikidan xabar olgani ketdi. Havotirini bosolmay, paypaslanib, hovliga chiqdi. Shu onda qor bosayotgan vodiyni titratib o'q ovozi yangradi. Bu ovoz muqaddas o'rmon tomondan kelib, qoyalarga urilib aks-sado berdi.
- Bu nimasi?-deb so'radi ojiza o'zidan o'zi.

Xavotir changalidagi yuragi yarador qush kabi potirlay boshladi.

Hamma yerdan haydalgan baxti qaro qiz...

Sevgan yorining miltig'ini olgan...

Muqaddas o'rmon tomondan kelgan o'q ovozi...

Salimatdan esa haligacha darak yo'q...

Kuta-kuta kampirning toqati toq bo'ldi. Oxiri chiday olmay , boshida ro'moli yo'qligini ham unutib, yo'lga tushdi. Ojiza muqaddas o'rmon yo'lini yaxshi biladi. Bir vaqtlar bu yo'llardan ko'p yurgan. Har bir so'qmoq, har bir burilish unga tanish.

"Bevosh qiz... Urusxon bilan uchrashadigan yerga borgan,-deb o'yladi kampir.-Boshqa joyni tanlamaydi... Tezroq ... tezroq yetib borishim kerak. Balki hali tirikdir..."

Ojiza sirg'anchiq so'qmoqni xassasi bilan paypaslab shoshiladi. Qor endi bo'ralab yog'adi. Ko'zi sog' odam ham bir qadam nardagi narsani ko'ra olmaydi.

Kampir behos sirg'anib ketdi. Biron narsani ushlab qolish umidida qo'llarini yoydi-yu, muvozanatini saqlay olmay, najot ilinjida bir qichqirdi-yu, jarga quladi.

Kodatlarnikidan qaytayotgan Salimat bu qichqirqni eshitib, ovuldagilarni fojiadan ogoh qildi.

Bir necha soat qidirishgach, Tambining o'g'llari jarlik tubidan boshi pachoqlangan kampirning murdasini topishdi.

Ovulda "kampirning miyasi aynib, ko'chaga chiqib ketgan ekan, adashib yiqlibdi", degan ovoza tarqaldi.

Qor yog'adi...

Huddi hech qanday fojia yuz bermaganday xotirjam qor yog'adi.

Qor o'zining oppoq choyshabi bilan tog' va dovonlarni o'rab chiqdi.

Issiq uylarida o'tirgan tog'liklar Zoliyxon qayerga yo'qoldi ekan, deb qidirish u yoqda tursin, o'ylab ham ko'rishmadi.

Bu fojiadan faqat tulkilargina xabar topganlar. Ularning o'rmondag'i inlarida katta-kichik suyaklar sochilib yotibdi.

Odam suyaklari...

Yana Tarjimondan:

O'qiganingiz mazkur qissaning tarjimasini 1970 yil 17 oktyabr, shanba kuni tonggi soat 6.10da yakuniga yetkazgan ekanman.

Oradan o'ttiz olti yil o'tib, asarni yana qo'lga oldim. Bir necha oy mobaynida qayta tahrir qilib, oqqa ko'chirish bilan band bo'ldim.

Alloha shukrlar bo'l sinkim, O'zining madadi ila bu ish 2006 yilning 21 iyun, chorshanbasida nihoyasiga yetkazilib, siz

azizlarning hukmingizga havola etishga qaror qilindi.

Yana bir-ikki so'z aytmoqlikdan maqsad, tarjima tarixidan sizlarni ogoh etishgina emas.

Gap shundaki, mazkur asar o'ttiz olti yil muqaddam kaminaga boshqacha ta'sir etgan edi. Oqqa ko'chirish jarayonida Zoliyxon va Urusxonning muhabbatini va taqdiriga bo'lgan munosabatim ancha o'zgardi.

Sezib turibman, asarni o'qigan yoshlari Zoliyxonga achinishyapti.

Keksaroq odamlarning esa fikri o'zgacharoq.

Aslida ularga achinish kerakmi? Buni har bir o'quvchi o'zi hal qilishi lozim bo'lsa-da, fikrlaringizni bahsga chorlashni lozim topdik. Qaysi bir asarda bosh qahramon bayon yakunida o'lim topar ekan, o'quvchi unga g'oyat achinadi. Ba'zan yozuvchini bemehrlikda ayblaydi ham. "O'tgan kunlar" romanini o'qiganlar Kumush jon berganda yig'lagan bo'lalar kerak. Hatto Abdulla Qodiriyning o'zлari ham bu satrlarni yozganlarida yig'lagan ekanlar. Xo'sh, Zoliyxonga Kumushga achinganimizdek achinishimiz kerakmi?

Albatta yo'q!

Kumush hayo, sadoqat, pok muhabbat olihasi. Zoliyxon-chi?

Benomuslik barcha xalqlarda, barcha dinlarda g'oyat og'ir gunoh sanaladi. Barcha xalqlarda, barcha dinlarda benomuslar qattiq jazolananadilar. Urusxon Tbau tog'inining Ila xudosidan qo'rwmadi. Nega? Chunki bu xudoni odamlarning o'zлari to'qib chiqqanganlarini biladi. Agar u chinakam Xudoni taniganida ehtimol, gunohdan o'zini tiyib olgan bo'lardi.

Siz achinayotgan Zoliyxon ikkita katta gunoh qilib oxiratini ham kuydirdi. Nomussizlik ko'chasiga kirgani bir gunoh bo'lsa, o'zining joniga qasd qilgani yanada og'irroq gunohdir. Barcha xalqlarda, barcha dinlarda odamning o'zini o'zi o'ldirishi kechirilmas gunoh sanaladi.

Bizning bu mulohazalarimizni inkor etmay, sevishganlarning taqdirini yana bir qayta o'ylab ko'rsiz. Xalqimizning bir maqoli ularning hatti-harakatlarini baholashda qo'l kelishi mumkin: "Bilmayin bosdim tikanni, tortadirman jabrini, bilsam erdim, bosmas erdim, tortmas erdim ul tikanni jabrini".

Ehtimol, oralarin g'oyat qo'yib, sevgilisiga yetolmay yurganlar ham bordir. Ehtimol, ular sevgani bilan qovushishga yo'l bermayotgan ota-onalari yoki boshqa yaqinlaridan norozidirlar. Shunday bo'lsa ham shoshilmang. Avval sevgi bilan havasni farqlab oling. Benomuslik ko'chasiga kirishni xayolingizga ham keltirmang. Nikhsiz turmush qurish benomuslikdir va bu harakat bu dunyoda ham u dunyoda ham jazolanadi.

Duo qilaylik: yo rabbimiz Alloh! Qissada bayon etilgan Urusxon va Zoliyxonning taqdirini bizning yoshlarga begona qil.

Yoshlarimizni or-nomusli bandalarindan qil. Hayo, iffat, sadoqat kabi fazilatlar bilan ziynatlantir. Yoshlarimizga totuv oila saodatini ber. Omiyn!